

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus ta'lim Vazirligi
Guliston Davlat Universiteti qoshidagi Guliston akademik litseyi**

H. NE'MATOV, A. GULOMOV, T. ZIYODOVA

***HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILINI
O'RGANISHDA O'QUVCHILAR SO'Z
BOYLIGINI OSHIRISH***

**Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun
o'quv qo'llanma**

**TOSHKENT - 2002
«XALQ MEROSI»**

Mazkur uslubiy qo'llanma akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining so'z boyligini oshirish, gap tuzish va matn yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan bo'lib til satnlarini o'zaro bog'lab o'rganishda uzluksizlik, so'z boyligini oshirishning turfa imkoniyatlari usul va vositalari yuzasidan baxs yuritadi.

Bu metodik qo'llanma akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchi va o'qutuvchilari, uchun mo'ljallangan.

Qo'llanma O'MKHTRI ilmiy-uslubiy kengashining 12.04.2002 y. 1-sonli yig'ilihi qarori bilan nashrga tavsia etilgan.

Taqrizchilar:

1. **K. Nazarov** TDYI professori.
2. **M. Shamsiyeva** TDPU dotsenti, f.f.n.

Muharrir:

A. F. Marasulov. O'MKNTRI ma'naviyat va ma'rifat ishlari prorektori.

С 4702000000-355
M 361 (04) - 2002 grif - 2002

©H.Ne'matov, A.G 'ulomov,
T.Ziyodova, 2002 yil

KIRISH

O'zbek tili mustaqil O'zbekistonning davlat tili bo'lib, uning akademik litsey va kasb-hunar ta'limi tizimida o'rganilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarda milliy g'oyani shakllantirish, milliy qadriyatlarimizni hurmat qilish, ozod Vatan ravnaql yo'lida sharafli kurashga doimo shay ruhda tarbiyalash masalasi ona tili fanining eng dolzarb, mas'uliyatli vazifasiga aylandi. Yosh respublikamizda Davlat ta'lim standartlarining qabul qilinishi til ta'limini jahon standartlariga moslash sari qo'yilgan ilk qadam bo'ldi. So'z boyligini oshirish DTS talablari asosida kommunikativ savodxonlikni ta'minlashning muhim tarkibiy qismi. Shu sababli so'z va uning lug'aviy ma'nolari, o'zbek xalqining boy lug'at xazinasini o'rganish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbek tilining lug'ati ikki katta guruhga ajratib o'rganiladi:

1. Qo'llanilish doirasi keng, chegaralanmagan, faol so'zlar /keng iste'molli so'zlar/:

2. Qo'llanilish doirasi chegaralangan, ma'nosi xususiylik, badiiy nozikliklarga ega bo'lgan so'zlar /tor iste'molli so'zlar/.

Keng iste'molli so'zlar. Kundalik hayotda, muomala-munosabatda, o'quvchi nutqida tez-tez qo'llanadigan so'zlar keng iste'molli so'zlardir. Bu so'zlarning asosiy qismini xalq orasida keng ishlatiladigan so'zlar tashkil etadi. Masalan, tilimizda *kitob, maktab, ko'cha, baland, oq, o'n besh, oz, ko'p, yozdi, o'qidi* kabi ming-minglab so'zlar borki, o'quvchi ularni muomala-munosabat zaruriyati tufayli turmushdan tayyor holda qabul qiladi va kundalik faoliyatida keng qo'llaydi. Bolalarning yoshi oshgan sari bu so'zlar doirasi kengayib, to'lib boradi.

Maktab davri o'quvchining so'z boyligini oshirishda asosiy o'rinni egallaydi. Ona tilini o'rganish, muomala-munosabat, zaruriyati, radio, televidenie, matbuot, badiiy adabiyot kabilar uning so'z zahirasini to'ldiradigan asosiy manbalaridir. Ayniqsa, maktabda o'qitiladigan turli fanlar majmuasi bu so'zlar doirasini yanada kengaytiradi.

Keng iste'molli so'zlarning o'zi ham ikki turga ajratilishi lozim: a) umumiy ma'noli so'zlar: b) xususiy ma'noli so'zlar.

Umumiy ma'noli so'zlarning asosiy ko'pchiligini bola maktabgacha tarbiya davrida o'rganadi. *Daraxt, ot, qo'y, kiyim, oq, xazil, qora, bormoq, olmoq, yurmoq, chopmoq, yozmoq, kiymoq, yemoq* kabi so'zlar shunday so'zlar jumlasidandir. Bunday so'zlar narsa, buyum, belgi-xususiyat va harakatlarni ifodalovchi ma'lum bir jinsning, guruhning umumiy atamasi bo'lib keladi. Ularning asosiy qismi bolalarga kundalik

hayotdan tanish bo'ladi, ijtimoiy jamiyatda yashash, o'zaro fikr almashish zaruriyati tufayli o'zlashadi. Bu bo'lajak o'quvchilarda so'z boyligini oshirish uchun asos, zamin vazifasini o'taydigan poydevordir. Lekin bunday so'zlarning umumiy miqdori olti-yetti yoshlik bolada mingtaga ham bormaydi.

Xususiy ma'noli so'zlar sirasiga nomi bolaga ma'lum bo'lgan predmet, belgi, harakatlarning juz'iy ko'rinishlarini - turlarini atovchi so'zlar kiradi. Chunonchi, otning turlarini atab keluvchi **ayg'ir, baytal, biya, qulun, toy, g'unan, do`nan, saman, to`riq, qorabayir, bedov** kabi so'zlar; daraxt turlarini bildiruvchi **chinor, tol, terak, mirzaterak, baqaterak, oqterak, ko`k terak, majnuntol, qayrag'och, sada, archa, qayin** turlarini atovchi **amiri, sherozi, ko`kcha, bosvoldi**; rang turlarini atovchi **oqish, qizg'ish, kukish**; harakatni ifodalovchi **jllmoq, siljimoq, yurmoq, yugurmoq, yelmoq** kabi tilimizning minglab durdonalari bolalar uchun to'la tanish emas. Ona tilini o'qitish oldida turgan asosiy vazifalardan biri mana shunday so'zlar xazinasini o'quvchilar mulkiga aylantirishdan iboratdir. Shuni unutmaslik lozimki, har bir umumiy va xususiy ma'noli so'z o'ntadan yuztagacha xususiy ma'noli muqobillariga ega bo'lib, nutqni boyituvchi va ko'rkamlashtiruvchi asosiy omil ham shudir.

Xususiy ma'noli keng iste'moili so'zlar tur va turchalami atashi, nutqning ayrim uslublarga xosligiga ko'ra tavsiflanishi, guruhlariga ajratilishi lozim. Chunonchi, **kullimsiramoq - kulmoq - xoxolamoq** bir harakatning turli darajalarini atab, nomlab, kelsa, chehrasi ochilmoq, jilmaymoq, tabassum qilmoq, qahqahlamoq shu harakatni turlicha uslubiy xoslik bilan atab, nomlab keladi. Shuning uchun ona tili darsliklarining mazmunini belgilashda dastlab o'quvchilarda tur nomlarini faollashtirish, keyingi bosqichlarda esa ularga uslubiy xoslik nozikliklarini singdirishga e'tibor bermoq zarur. Shu bilan hozirgi kunda ma'nodoshlar sifatida qo'llanib kelinayotgan "o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish" va "o'quvchilarning lug'at boyligini boyitish" metodikasi tushunchalarini farqlashga to'g'ri keladi. "Oshirish" deganda jinsiy nomni o'quvchilar ongida tur nomlari bilan aniqlashtirish ko'nikmalari tushunilsa, "boyitish" deganda jins va tur nomlarini uslubiy nozikliklar bilan boyitilgan holda qo'llay olish ko'nikmalari tushuniladi. Chunonchi, bola ongida bo'lgan **DARAXT** so'zini **archa, qayin, qayrag'och...** kabi tur nomlari bilan aniqlashtirish uning lug'at xazinasini kengaytirish, oshirish bo'lsa, **DARAXT** so'zini **yog'och, og'och, shajar, naxl** kabi badiiy ko'tarinki so'zlar bilan to'ldirish lug'at xazinasini boyitish deb tushunilishi lozim.

O`quvchilarning lug`at boyligini oshirish boshlang`ich va ikkinchi bosqich ta`limining vazifasi bo`lsa, lug`at boyligini yanada boyitish uchunchi bosqich ta`limining vazifasidir.

Tor iste`moli so`zlar deganda qo`llanilish doirasi nisbatan tor bo`lgan, xususi so`zlar tushuniladi. Bunday so`zlarning o`zi ham bir necha guruhga ajratilishi lozim. Eskirgan so`zlar, sheva so`zlari, kasb-kor so`zlari, ilmiy atamalar shular jumlasidandir. O`quvchi bunday so`zlardan faoliyatining maxsus ko`rinishlaridagina foydalanadi. Chunonchi, eskirgan so`zlardan o`tmish hayotimizni o`rganish va tasvirlash jarayonida keng foydalanish lozim.

Har bir shaxs o`z millati o`tmishini chuqur bilishi zarurligi sababli eskirgan so`zlarni /xususan, tarixiy voqea-hodisa, shaxs, narsa-buyum, ijtimoiy faoliyatlarni atab, nomlab keluvchi tarixiy so`zlarni/ o`zlashtirib olgan bo`lishi kerak. Bu so`zlar xazinasini to`latish lug`at boyligini oshirishning tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim.

Sheva so`zlariga o`quvchi ikki jarayonda to`qnashadi. Birinchi jarayon adabiy til va uning me`yorlarini o`rganish jarayonidir. Ma`lumki, bola ijtimoiy hayotda asosan o`z ona tili shevasi so`zlari va uning fonetik ko`rinishlarini qabul qiladi. Ko`pgina hollarda bu so`zlar adabiy til me`yorlaridan farq qiladi. Ona tilining boshlang`ich sinf ta`limi oldida turgan asosiy vazifalaridan biri o`quvchilarda o`z ona shevasi va adabiy til me`yorlari haqida aniq tushunchalar hosil qilishdan iborat. Bu ishda o`quvchilarga hech kim hech qanaqa tayyor qo`llanma bera olmaydi, albatta. Bu ishni o`qituvchi o`z viloyati, tumani, qishloq, shahar va hatto dahasiga mos ravishda, mustaqil holda ishlab chiqishi, "To`g`ri qo`llang"! mahalliy lug`atlarini tuzib chiqishi va uni o`quvchilarga singdirishi lozim. Bunday lug`at ikki ustunchadan iborat bo`ladi. Chap ustunchada so`zning noto`g`ri, noadabiy shakli berilib, o`ng ustunchada to`g`risi, adabiy - me`yoriy shakli ko`rsatiladi. Chunonchi:

Noto`g`ri qo`llash	To`g`ri qo`llash
satil	chelak
lagan	tovoq
inak	sigir
bala	bola
tamosho	tomosha
tireza	deraza

Bunday ish adabiy til me`yorlarini o`rganishga aloqador bo`lib, lug`at boyligini oshirishga ham, uni boyitishga ham aloqador emas. Lekin o`qu

vchilarning ona shevasida shunday soʻz va tushunchalar borki, ular adabiy tilimizda yoʻq. Chunonchi, oʻzbek tilining qator shevalarida erkak it-aron deb yuritiladi. Bunday soʻzlarning hisobini oʻqituvchilar alohida olishlari, uni fanlar Akademiyasi tilshunoslik instituti lugʻat fondiga etkazishlari, oʻquvchilarni bunday soʻzlardan keng va oʻrinli foydalanishga undashlari lozim.

Ikkinchi turdagi sheva soʻzlari bilan oʻquvchilar badiiy adabiyotni oʻqish jarayonida toʻqnashadilar. Bunday soʻzlar adabiy tilidagi soʻzlarning maʼlum bir shevadagi maʼnodoshlaridir. Chunonchi, *doʻppi oʻrnida taqiya yoki kallapoʻsh, narvon oʻrnida zangi, buzoq oʻrnida boʻzak, pomidor oʻrnida patinjon, chivin oʻrnida pashsha* soʻzlari shular jumlasidandir.

Oʻquvchilar badiiy adabiyotda soʻzlarning bunday qoʻllanish sabablarini /mahalliy ruhni berish, soʻzlovchi nutqining boshqalardan farqini boʻrttirish v.h./ bilishlari zarur.

Kasb-kor soʻzlari ham umumxalq tilining ulkan xazinasidir. Bu xazina durdonalari ham sheva soʻzlari kabi ikki guruhga ajraladi:

1. Adabiy meʼyorda muqobillarga ega boʻlmagan soʻzlar.
2. Adabiy meʼyorda muqobillarga ega boʻlgan soʻzlar.

Bu soʻzlarga munosabat ham xuddi sheva soʻzlariga boʻlgan kabidir.

Lugʻat boyligimizning tarkibiy qismini maxsus ilmiy atamalar tashkil etadi. Ilmiy-atamalar bilan tanishtirish, ularni faollashtirish-maktabda oʻrganiladigan fan asoslari boʻyicha oʻnlab oʻquv predmetlarining asosiy vazifasidir.

Ona tili oʻqitishning boshqa fanlar bilan aloqadorligi eng avvalo mana shunday ilmiy atamalarni toʻgʻri qoʻllash, ogʻzaki va yozma nutqni adabiy til meʼyoriga mos tuzish koʻnikmalarini hosil qilishdan iborat. Shu maqsadlarni koʻzlab, oʻrta maktablarning Y-1X sinflarida ona tili oʻqituvchilari fizika, matematika, tarix, tabiatshunoslik, biologiya kabi oʻquv predmetlarining oʻqituvchilari bilan hamkorlikda oʻquvchilar bilan bayon, ilmiy maʼruza va matnlar yaratish ustida jiddiy ish olib borishlari zarur.

Soʻz - nutqning asosiy hom-ashyosi. Oʻquvchini bu xom-ashyo bilan taʼminlashning asosiy masʼuliyati ona tili mashgʻulotlari zimmasiga tushadi. Shuning uchun soʻz ustida ishlash, oʻquvchilarni ularga notanish boʻlgan soʻzlar olamiga olib kirish, nutq sharoitiga qarab ularni toʻgʻri va oʻrinli ishlatishni taʼminlash ona tili mashgʻulotlarining muhim tarkibiy qismiga va ona tilidan oʻquvchi bilimni baholashning asosiy omillaridan biriga aylanmogi lozim.

Bugungi kunda respublikamiz metodist-olimlari oʻrta maktabda oʻqitiladigan turli oʻquv predmetlari boʻyicha, davlat meʼyoriy talablari ustida

jiddiy izlanishlar olib bordilar va buning natijasi sifatida 1999 yilda umumiy ta'lim maktablari uchun Davlat ta'lim standartlari chop etildi. Har tomonlama o'rganilishi va muhokama etilishi lozim bo'lgan bu masala yuzasidan ham ayrim taklif va mulohazalarimiz bor. Ular haqida siz, aziz o'qituvchilar bilan fikr almashishni maqsadga muvofiq deb topdik. Navbatdagi bandda shu haqida ayrim mulohazalarimizni bayon qilimiz.

Ona tilidan davlat ta'lim standartlarida lug'at boyligi omili

Ona tili ta'limidan asosiy maqsad "O'quvchilarda tilning ichki imkoniyatlaridan, uning tasviriy vositalaridan nutq jarayonida samarali va o'rinli foydalanish ko'nikmalarini, fikrni turli yo'sin va shakllarda ifodalay olish malakalarini hosil qilishdan iborat" ekan, bunga erishishni boy va barkamol so'z xazinasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun so'z boyligi omili davlat standartida muhim o'rin egallashi lozim.

Biz taklif etgan "Ona tilidan davlat ta'lim standartlari"ning har uchala ko'rsatkichida

1. O'qish madaniyati va ko'nikmasi.
2. O'qilganni uqish, bayon etish madaniyati va ko'nikmasi.
3. Ijodiy fikrni yozma shaklda bayon etish madaniyati va ko'nikmasi-lug'at boyligi tayanch omil sanaladi. Chunki o'qish sur'ati so'zning o'quvchiga tanish, yoki notanishligiga bog'liq. O'qish, qayta so'zlash, fikrni yozma bayon qilish ham xuddi shu omil - lug'at boyligining faol yoki nafaolligi bilan belgilanadi.

Nutq boyligi masalasi ona tilidan ta'lim samaradorligining amaliy ko'rsatkich darajasiga ko'tarilishi va so'z boyligini oshirish hamda boyitish esa ona tili ta'limining asosiy maqsadiga aylantirilishi ta'limning jahon andazalariga mos keladi.

Haqiqatda ham, o'quvchilarga ona tilini o'qitishdan maqsad nima?

Maqsad - ularda savodli va go'zal nutq madaniyatini hosil qilish.

Ta'lim samarasi har bir o'quvchining amaliy nutqi asosida baholanishi lozim. Ona tili ta'limi oldida hozirgi davr qo'ygan zamonaviy talab mana shundan iborat.

So'z boyligini oshirishga mone'lik qiladigan omillar bir nechta bo'lib, ularni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin. 1) ona tili ta'limining mazmuni bilan bog'liq qiyinchiliklar; 2) metodik qiyinchiliklar; 3) O'quvchilarning O'zi bilan bog'liq qiyinchiliklar.

Ona tili ta'limi mazmunining o'ta ilmiyligi, nazariylashtirilganligi va maydalashtirilganli bolalarning so'z boyligini muttasil oshirib borish, so'zdan tez, to'g'ri va o'rinni foydalanish malakalarini shakllantirishga juda katta g'ov bo'lib kelmoqda. Mashg'ulotlarda va darsdan keyingi paytlarda o'quvchilarning asosiy vaqti nutqiy tadbirkorlik va samaradorlikni ta'minlashga mutloqo aloqasi bo'lmagan til hodisalarini tahlil qilishu, ularni quruq yodlab olish bilan band bo'lmoqda. Hali yetarli so'z boyligiga ega bo'lmagan, o'z ona tilisining imkoniyatlaridan nutqda foydalanish malakalariga ega bo'lmagan o'quvchi gapda ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol kabilarni aniqlashu, ularning talqinini berish bilan ovora. Bu esa g'oyat zararli harakatdir. Chunki ma'lumot mazmunining ilmiylashuvi, nazariylashuvi va maydalashuvi bolalarni fandan bezdiradi: amaliyotdan yiroq, murakkab nazariy bilimlarni o'zlashtirishning qiyinligi o'quvchilarda shu fanga nisbatan salbiy munosabat va o'zlashtira olmaslik xavfini tug'diradi. Zo'rma-zo'rakilik bilan vaqtincha o'zlashtirilib, tez orada xotiradan ko'tariladigan bilimlar esa, besamara faoliyat bo'lib, u o'quvchilarda o'qishga nisbatan salbiy ruhiy munosabatni vujudga keltiradi, ularni o'qishdan bezdiradi. Eng muhimi bolalarning lug'at boyligini oshirishdek foydali amaliy ishlar grammatik talqinlar soyasida qolib ketadi.

Keyingi yillarda o'zbek tilidan tuzilgan dasturlarda "Nutq o'stirish" bo'limi ajratildi; unga maxsus soatlar berildi. Lekin bunday mashg'ulotlar ona tili ta'limi tizimida qandaydir chetda turgan "yamoq mashg'ulotlar" mohiyatiga egadir. Timsoliy qilib aytganda o'quvchi 15-20 soat tilshunoslikka oid bilimlarni yodlaydi. Hech qanday tayyorgariksiz 2-3 soat bayon, insho v.h. yozish bilan shug'ullanadi. Shuning uchun amaldagi dasturlarda ajratilgan "Nutq o'stirish" mashg'ulotlari ta'lim mazmuni bilan uzviy bog'langan emas va shu mazmun bilan uyg'unlashmagan.

Ona tili mashg'ulotlarida nutq o'stirishni til hodisalaridan ajratib qo'yish-daryo o'rtasida turib, suv axtarish kabi norasoliqdir. Zeroki, daryoning mohiyati yer sug'orish bo'lgani kabi ona tili mashg'ulotlarining asosiy vazifasi ham nutq o'stirishdir. Behudaga Arastu tilshunoslik bilimlarini "Ritorika" /so'z san'ati/ tarkibiga kiritmagan edi. Shuning uchun oldimizda turgan muhim vazifalardan biri amaldagi ta'lim tizimidagi grammatizm va akademizmni bartaraf etishdan iboratdir. Bu grammatik bilimlardan to'la-to'kis voz kechish degan so'z emas, albatta. Ayni bir masalaga ikki xil usul yondashish usuli va uning samarasini ko'rib o'taylik:

1. Grammatik, ilmiy. Gap ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol, undalma, kiritma kabi tarkibiy qisimlarga ajratiladi va tahlil qilinadi. Bu usul bolalarda tayyor nutqni parchalash va uni chaynash, maktab amaliyoti uchun keraksiz bilimlarni ajratishga mo'ljallangan.

2. **Amaliy - ijodiy usul.** Bu usul ona tilida "gapni kengaytirish" usuli deb yuritiladi. Gapni kengaytirish ham o'z navbatida 2 turga bo'linadi: a) Gapni vertikal kengaytirish va ixchamlash; b) Gapni gorizontal kengaytirish va ixchamlash (2- jadval); Gapni vertikal kengaytirishda berilgan gapdagi har bir so'zga ma'nodoshlar, uyadoshlar topilib pastga qarab ustuncha shaklida kengaytiriladi. Bunda o'quvchi mustaqil, ijodiy fikrlaydi, so'z izlaydi, so'z topadi va nihoyat ana shu so'zlarni o'z nutqida to'g'ri va o'rinli qo'llash uchun so'z tanlash imkoniyatlariga ega bo'ladi.

2-jadval.

GAPNI KENGAYTIRISH USULLARI

So'zga ma'nodoshlar topib gapni kengaytirish va ixchamlash.

<u>Do'stim</u>	bugun	<u>xursand</u>	edi
o'rtog'im		xushnud	
dugonam		shod-xurram	
jo'ram		baxtiyor	
oshnam		vaqti chog'	
birodarim		kayfi chog'	
qadrdonim		dimog'i chog'	
		og'zi qulog'ida	
		boshi osmonda	
		og'zining tanobi qochgan	
		bosar-tusarini bilmas...	

1.1. Og'aynimning bugun nihoyatda vaqti chog', og'zining tanobi qochgan, kayfiyatining yaxshiligidan bosar-tusarini bilmas, bir gapirib o'n kulardi.

2. Kesimdan savol berib gapni kengaytirish va ixchamlash.

- Keldim.
- Men keldim.
- Men bugun keldim.
- Men bugun Buxorodan keldim.
- Men bugun tungi poezd bilan Buxorodan Toshkentga o'qishga keldim.
- Men bugun sinfdosh do'stim Alisher bilan tungi Buxoro-Toshkent poezdida Toshkent Davlat Yuridik institutiga o'qishga keldim...

Bu topshiriqlarni bajarishda bola yangi jumlasini uchun eng to'g'ri, eng nafis, eng joiz so'zni o'zi mustaqil tanlaydi va asosiy mazmunni saqlagan

holda yangi, "o'zining gapi"ni quradi. Bu jarayon bola uchun juda jiddiy va qiziqarli. Chunki bu yerda bolaning so'z tanlash qobiliyati rivojlanadi va takomillashadi.

Ikkinchi usulni biz "gapni gorizontal kengaytirish va ixchamlash" deb atadik. Bu jarayon kesimdan savol berib gapni kengaytirish orqali amalga oshiriladi.

Navbatdagi bosqichlarda o'quvchilar har bir kengaytirilgan bo'laklarning o'zini kengaytirish, boshqa so'zlar bilan almashtirish orqali ham gap bo'laklari haqida ma'lumot hosil qilishlari, ham so'z boyliklarini oshirishlari hamda ravon nutq malakalarini hosil qilishlari mumkin. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, maqsad grammatik ma'lumotlarni ona tili mashg'ulotlaridan chiqarib tashlash emas, balki uni nutq o'stirishga xizmat qildirishdan iboratdir.

Metodik qiyinchiliklar. O'quvchilarning so'z boyligini oshirishga mone'lik qilayotgan omillardan yana biri ko'p hollarda ona tili mashg'ulotlarida ta'lim metodi, usuli va vositalarining noto'g'ri tanlanganligidir. Ma'lumki, an'anaviy ta'limda hamon o'qitishning deduktiv usuli o'z hukmronligini saqlab kelmoqda. O'qitishning bu usulida o'quvchi faqatgina tinglovchi nari borsa, o'qituvchining ko'rsatmalari asosida harakat qiluvchi, berilgan andozaga qarab, faoliyat ko'rsatuvchi shaxsga aylanib qoladi. Til materiallarini berishning bu deduktiv /qoidadan tahlilga, umumiylikdan xususiylikka/ usuli o'quvchini faollashtirishni qiyinlashtiradi, uni ta'lim jarayonining tinglovchisiga aylantirib qo'yadi. Chunki umumiy qoida, xulosa, ta'rif va talqinlardan amaliy ishga o'tish jarayonida o'quvchining fikrlash faoliyati chegaralanadi. U o'rganilayotgan til hodisalarini o'z aqliy faoliyati jarayonidan o'tkaza olmaydi. O'quvchi o'ylamaydi, o'zi hodisalarni kuzatib, hukm va xulosa chiqarishni o'rganmaydi; tayyor qoidani qabul qiladi, singmagan qoidani bir-ikki mashg'ulotda ko'r-ko'rona amalda qo'llaydi va navbatdagi mashg'ulotga o'tgach, o'zida singmagan "begona" narsani batamom unutadi. Unutish jarayonini maktab ona tili darsliklarida to'lib toshgan, zid talqinlar, bir-birini inkor etuvchi fikrlar yanada tezlashtiradi. Chunonchi, o'quvchi sodda gap haqidagi bilimlarni esdan chiqarmasdan turib, qo'shma gap haqida ma'lumotlarni o'zlashtira olmaydi. Zeroki, "Rayxona kelgach" qurilishdagi gaplar sodda gaplar ichida yo'q. Vaholanki, qo'shma gap ikki va undan ortiq sodda gapning birtikishi deb ta'riflanadi.

Shuni unutmaslik lozimki, ona tili mashg'ulotlarida bolaning ijodiy fikrlash, mustaqil ravishda xulosalar chiqarishiga ko'maklashadigan so'zlarni kuzatish, qiyoslash, guruhlash, umumlashtirish kabi aqliy faoliyat

usullaridan foydalanilmas ekan, ta'lim samaradorligiga umid bog'lash qiyin.

Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchi mustaqil izlanib, qoida va xulosalar hosil qilmas ekan, bu qoida va xulosalarning unda abadiyligini ta'minlash mumkin emas. Shuning uchun ta'lim mazmuni deduksiyadan induksiyaga /xususiylikdan umumiylikka/ o'tish yo'nalishida tomoman yangilanishi zarur. O'quvchiga o'xshash hodisalar berilib, undan o'xshash hodisalardagi umumiylikni ajratish va hodisalar sirasini davom ettirish talab etilsa, samara tamoman boshqacha bo'ladi. Birinchidan, umumiylikni hosil qilishda bolaning mehnati singadi: hosil qilingan umumiylik bolaning faoliyat samarasiga aylanadi. Shuning uchun bu umumiylik o'quvchining shaxsiy mulki sifatida abadiy uniki bo'ladi va unutilmaydi. Berilgan hodisalarni davom ettirish talabi esa hosil qilingan umumiylikni amaliy tadbir bilan mustahkamlaydi. Umumiylikning xususiy voqealanishi cheksiz bo'lganligi sababli, bunday faoliyat o'quvchini doimiy shakllanishga undaydi.

Shuning uchun o'quvchilarga mo'ljallangan "O'zbek tilining izohli lug'ati", "O'zbek tilining tarixiy so'zlar lug'ati", "O'zbek tili dagi shakldosh so'zlar lug'ati", "O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar lug'ati", "O'zbek tilining uyadosh so'zlar lug'ati", "O'zbek tilining so'z yasaliş lug'ati", "O'zakkdosh so'zlar lug'ati", "Qo'shimchadosh so'zlar lug'ati" kabi lug'atlarni tuzish, ularni ommaviy miqdorda chop ettirish, lug'atlardan foydalanish ko'nikmalarini hosil qildirishda muhim vazifalar tarzida qaralmog'i lozim.

O'quvchining o'zi bilan bog'liq qiyinchiliklar. Tom ma'noda bunday qiyinchiliklar ta'lim mazmuni va metodik qiyinchiliklarning o'quvchi faoliyatidagi in'ikosidir. Hozirgi kunda o'quvchilar so'z boyligini oshirishning asosiy omili-badiiy adabiyot va maktabda o'rganiladigan fan asoslari bo'lib kelmoqda. Ona tili mashg'ulotlari bolalarining so'z boyligini oshirish va nutqini rivojlantirishdan chetda qolmoqda. Bu esa o'quvchilarda ona tili mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqishni pasaytirib, loqaydlikni vujudga keltirmoqda. Bu hol, tilshunoslik qonun-qoidalari bilan to'lib-toshgan ona tili mashg'ulotlarining hayotdan uzoqligi samarasizligi mahsulidir.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, o'quvchilarda so'z boyligini oshirish ona tilidan ta'lim mazmunini tubdan yangilash, uning hayotiyiligini ta'minlash, "O'q u v c h i + o'q i t u v c h i" munosabatlarini yangicha qurish, o'quvchi va o'qituvchini zarur metodik qo'llanmalar bilan taminlash kabi sermehnat va vaqttalab ulkan ishlar bilan bog'liqdir. Ularning barchasini biz bir, ikki hatto to'rt-besh yilda ham tugai amalga oshira olmaymiz. Bir tomondan mazkur qiyinchiliklarni bartaraf etmasdan turib, maqsadga erishish mushkul bo'lsa, ikkinchi tomondan bolalar nutqini

rivojlantirish, ularning soʻz boyligini oshirish va boyitish bugungi kunning hal qilinishi, dolzarb boʻlgan muammosi sanaladi, ijodiy nutqni rivojlantirish, oʻquvchilarni nutqning xomashyosi boʻlgan soʻz xazinasini bilan taʼminlash bugungi dolzarb muammo ekan, biz shu muammo yechimiga xizmat qilishimiz, taʼlim mazmunini, oʻquv topshiriqlarini davr talabiga mos ravishda oʻzgartirib, darsliklarga olib kirishimiz davr taqozosidir. Bu esa oʻqituvchidan yuksak ijodiylikni va mustaqillikni talab etadi.

Oʻquvchilarning soʻz boyligini oshirish omillari

Shuni alohida uqtirib oʻtish zarurki, oʻquvchilarda soʻz boyligini oshirishning eng asosiy omili ona tili mashgʻulotlarida soʻzga ehtiyoj hissini yaratishdan iboratdir. Shuning uchun oʻquvchilarning soʻz boyligini oshirishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻygan oʻqituvchi mashq-topshiriqlarini qisman, yoki tamoman yangilashi zarur. Chunonchi, bizga tanish boʻlgan 452-mashqni olib koʻraylik.

Feʼllarni tahlil qiling. Birinchi gapning ikkinchi darajali boʻlaktari tagiga chizing.

1. Qosh qorayganda dehqonlar daladan qaytdilar v.h. Bu mashq feʼllarni takrorlash maqsadida berilgan. Shuning uchun feʼllarning tahlili talab etilgan. Avvalo biz gramatik tahlildan voz kechib, diqqatni lugʻat boyligini oshirishga qaratamiz va topshiriqni - "Feʼllarni aniqlang, ularni maʼnodoshlari va uyadoshlari bilan almashtiring", deb soʻzga ehtiyoj xosil qiladigan shart-sharoitni vujudga keltiramiz. Darslikdagi ikkinchi topshiriq esa "Feʼllarning qanday soʻzlar bilan gapni kengaytirib kelganligini aniqlang, ularni yangi kengaytiruvchilar bilan toʻldiring" deb yakunlansa koʻzlangan maqsadga erishish osonlashadi.

Namuna sifatida yana bir topshiriqni - A. Xojiev va boshqalarning "Ona tili" (7-sinf uchun darslik, Toshkent, "Oʻqituvchi" 1993) darsligidagi 13-mashqni olib koʻraylik.

Koʻchiring. Sifatlarni toping, tagiga chizing. Qaysi soʻz bilan bogʻliqligini ayting, gapdagi vazifasini tushuntiring.

1. Koʻm- koʻk daraxtlar tagida dam olish kishiga roxat bagʻishlaydi v.h.

Yangi maqsadlarni koʻzlagan xolda bu mashqning talabi quyidagicha belgilanishi mumkin:

Oʻqing, sifatlarni toping, qaysi soʻz bilan bogʻliqligini ayting. Bu sifatlarni ularning maʼnodosh va uyadoshlari bilan almashtiring, mazmunini saqlagan xolda boshqa jumla tuzing.

Bu topshiriq o`quvchilarda ko`m-ko`kni *yam-yashil*, *sersoya*, *serbag*, *orombaxsh* kabi so`zlar bilan almashtirish ehtiyojini tug`diradi. Shubxasiz, ishning shu asosda tashkil etilishi ularda ijodiy tafakkurni uyg`otadi, so`z boyligini oshiradi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, lug`atlarga murojaat qilishiga undaydi.

O`quvchilarda lug`atdan foydalanish va ularni tuzish malakalarini shakllantirish

Modomiki, o`quvchilarning so`z boyligini oshirish ona tili mashg`ulotlarining asosiy vazifalaridan biri ekan, ularni turli lug`atlar bilan tanishtirish, bu lug`atlardan foydalanish malakalarini shakllantirish hamda shaxsiy lug`atlar tuzish malakasini xosil qilish o`ta muhim ahamiyat kasb etadi. Lug`at - o`quvchining imlo savodxonligini oshirish, so`z boyligini kengaytirish va boyitishning muxim manbai, asosiy maslaxatchisidir.

Lug`atlarga qiziqish - ehtiyoj maxsuli. Chunki ehtiyoj sezmasa, o`quvchi lug`atga murojaat qilmaydi. Ma`lum bir so`zning imlosi, ma`nosi ma`nodoshi, qarama-qarshi ma`nosi, uyadoshini bilish zaruriyati o`quvchida lug`atga ehtiyojni vujudga keltiradi. Shuning uchun o`quvchilarni lug`atlar bilan tanishtirishga alohida e`tibor berish zarur. Chunki lug`at bilan tanish o`quvchi nimani qayerdan izlash kerakligini yaxshi biladi.

Ma`lumki, keyingi yillarda o`zbek lug`atchiligi katta muvaffaqiyatlarni qo`lga kiritdi. Ayniqsa, 14-tomlik "O`zbek ensiklopediyasi" (Toshkent, 1971-1980) 2-tomlik "O`zbek tilining izohli lug`ati" (Moskva, "Rus tili" 1981) "O`zbek tilining imlo lug`ati" (Toshkent, "Fan" nashriyoti, 1976). Maktab o`quvchilari uchunm lug`at. 5-nashr, Toshkent, "O`qituvchi", 1987/ "O`zbek tili morfem lug`ati", (A.G`ulomov va boshqalar, Toshkent, "O`qituvchi", 1977/ "O`zbek tilining frazeologik lug`ati" (Sh.Rahmatullayev, Toshkent, "Qomuslar Bosh tahririyati", 1992/, "O`zbek tili sinonimlarining izohli lug`ati", (A.Hojiyev, Toshkent "O`qituvchi", 1974/, "O`zbek tili omonimlarining izohli lug`ati" (Sh.Rahmatullayev, Toshkent: "O`qituvchi", 1984/, "O`zbek tili antonimlarining izohli lug`ati" (Sh.Rahmatullayev, Toshkent "O`qituvchi", 1980/ "Paronim so`zlar lug`ati" (E.Ma`rupov, Toshkent, "O`qituvchi", 1971 "Geografik nomlar lug`at" (O.Qorayev, Toshkent, O`zbekiston 1978, Shuningdek joy nomlari lug`ati turli sohaga oid atamalarning izohli lug`atlari(masalan, paxtachilik atamalarining izohli lug`ati, matematik atamalarning izohli lug`ati kabi) ning chop etilganligi o`zbek lug`atchiligining taraqqiyotidan dalolat beradi. Ammo bu lug`atlarning asosiy qismi akademik lug`atlar bo`lib,

ulardan foydalanish o'rtta maktab o'quvchilari uchun ancha qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun bugungi kunda maktab o'quvchilariga mo'ljallangan va ular uchun ixtisoslashtirilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati", "O'zbek tilining uyadosh so'zlar lug'ati", "O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar lug'ati", "O'zbek tilining qarama-qarshi ma'noli so'zlar lug'ati", kabilarning yaratilishi hayotiy zaruriyatga aylanib qoldi. Keyinchalik bu lug'atlar orasida "O'zbek tilining tovushdosh so'zlar lug'ati", "O'zbek tilining eskirgan so'zlar lug'ati", "O'zbek tili va adabiyotidan o'rtta maktab o'quvchilari uchun qomus v. h. bilan to'ldirilishi kerak.

Lug'atlardan tez va to'g'ri foydalanish uchun o'quvchi zarur malakalarga ega bo'lishi lozim. Bu malakalardan eng muhimi alifbo tartibini yaxshi bilishdir. Alifboni yoddan bilmagan o'quvchi lug'atdan zarur so'zni tez topa olmaydi. Shuning uchun boshlang'ich sinflardayoq o'quvchilarning alifbo tartibini yaxshi bilishlariga erishish va izchil kursni o'rganish jarayonida bu borada muntazam ish olib borishga to'g'ri keladi.

O'quvchi qanday sharoitda qaysi lug'atdan foydalanish kerakligini ham bilishi kerak. Sinonimik qatorlar hosil qilish kerak bo'lganda, u hech vaqt imlo lug'atiga murojaat etmaydi, albatta. Ehtiyoj doirasida qaysi lug'atga murojaat etish kerakligini bilgan bola esa shubhasiz, har bir lug'atdan samarali foydalana oladi.

Lug'atlar turli-tuman bo'lgani kabi ular bilan ishlash usullari ham xilma-xildir. Quyida ulardan foydalanishning o'ziga hos xususiyatlari haqida alohida-alohida to'xtalishga harakat qilamiz.

"Imlo lug'ati" bilan ishlash. "Imlo lug'ati" nafaqat o'quvchilarning imlo savodxonligini, balki so'z boyligini oshirishda ham muhim qo'llanmadir.

O'zbek tilining barcha sathlarini o'rganishda "Imlo lug'ati" dan unumli foydalanish zarur. Masaian, fonetika, orfoepiya, grafika va orfografiya bo'limini o'rganishda a, i, u, o, harflari ishtirok etgan so'zlar topish: u- o, i- u, a- i v.h. juftlar bilan farqlashuvchi so'zlar tanlash, birinchi bo'g'inda u, ikkinchi bo'g'inda u yoki i kelgan so'z juftlari (urish -urush, turmush-turmish v.h.) ustida ishlash, i, o, tovushlari (harflari)ning tushib qolishi, bu tovushlar tushib qolgan so'zlar ro'yxatini tuzish: o-a bilan farqlanuvchi so'z juftlari (ana-ona, ata-ota v.h.) tanlash, i-e (e) bilan farqlanuvchi so'z juftlari topish (ish-esh, bil-bel, tish-tesh v.h.) kabi ishlarni bajarishda "Imlo lug'ati" o'ta zarurdir.

"Ot" so'z turkumini o'rganishda otlarning ma'no guruhlariga misollar tanlash, juft shaxs otlari, qo'shib yoziladigan va ajratib yoziladigan qo'shma otlar ro'yxatini yozish, "sifat+turdosh ot", "Son+ turdosh ot", "ot+fe'l - ar" qolipli hodisalar ustida ishlash kabi mustaqil ishlarni bajarishda "Imlo lug'ati"ga murojaat etiladi.

Shunga erishish lozimki, "Imlo lug'ati" o'quvchilarning doimiy yo'ldoshiga aylansin. Chunki, bu lug'atdan o'quvchilar nafaqat ona tili mashg'ulotlaridan balki boshqa o'quv predmetlari darslarida ham, uy mashg'ulotlarini bajarishda ham keng foydalanishlari zarur. Bu jarayon metodik va moddiy omillar bilan mustahkamlanishi shart. Imlo lug'atlarining ko'p miqdorda bosilishi va arzon narxlarda hamisha sotuvda bo'lishi davlat moddiy va madaniy qudratidan dalolat berishini esdan chiqarmaslik lozim.

O'quvchilarning "Imlo lug'ati" ustida ishlash malakalarini shakllantirishda ta'limiy matnlardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, "Fonetika" bo'limini o'rganishda "Imlo lug'ati" dan foydalanish tartibiga oid quyidagi matn tavsiya etiladi.

SO`ZLAR XAZINASI

Tilimizning so'z boyligi lug'atlarda yig'ilgan bo'ladi. Shuning uchun lug'atlar tilimizning so'z xazinasidir. Lug'atlar xilma-xil bo'lib, ularning har biri ma'lum bir maqsadni ko'zlaydi. Lug'atlarning turlari va ulardan foydalanish haqida siz keyinchalik yana alohida matnlar bilan tanishasiz. Hozir esa siz uchun tanish bo'lgan "Imlo lug'ati" va darsligimizning oxirida ilova qilingan "Q'isqacha izohli lug'at" ustida so'z yuritamiz.

Kichik lug'atlar bir necha yuz, yoki ming so'zni, katta lug'atlar esa yuz minglab, hatto millionlab so'zlarni o'z ichiga oladi. Lug'atdan foydalanishni yaxshi biladigan kishi istagan so'zni undan yarim daqiqada topishi kerak.

Tasavvur qilib ko'ring. Yuz mingta so'z ichidan istalganingizni yarim daqiqada topish. Buning uchun so'zlar lug'atlarda juda ham aniq va qulay usul bilan qat'iy bir tartibda joylashtirilgan bo'lishi kerak. Bu alifbo tartibidir. Dastlab birinchi harfga ko'ra "A" bilan boshlanuvchi so'zlar, "B" bilan boshlanuvchi so'zlar, v.h. harflar bilan boshlanuvchi so'zlar o'zbek alifbosi harflariga ko'ra 29 guruhga ajratiladi.

Lug'at ham 29 bobga bo'linadi: a,b,v,g,d,e... kabi. Lekin shunda ham har bir bobda bir necha ming so'z to'plangan bo'ladi. So'zlarni boblar ichida joylashtirishda yana alifbo tartibiga asoslaniladi. Lekin endi birinchi harfni emas (chunki bu harf lug'at bobini belgilaydi) balki so'zning yozilishidagi ikkinchi, keyin uchinchi v.h. harflar asosida joylashtirib borilaveradi. Chunonchi, lug'atda *bibi* so'zi *bobo* so'zidan oldin keladi.

1. Siz bilasizki, alifboimizda 29 ta harf bor. Lekin ' (tutuq belgi) va ng harfiy belgilari so'z boshida kelmaydi. Bibi so'zining ikkinchi harfi i o'zbek alifbosida 8-o'rinda turadi. Bobo so'zining ikkinchi harfi esa - o. Bu harf alifbomizda 14 - o'rinni egallaydi. Shuning uchun lug'atda *bibi* so'zi *bobo*

soʻzidan oldin keladi. *Buva* soʻzi *bobo* soʻzidan keyin keladi. Chunki alifbo sirasida *buva* soʻzi lugʻatda "buvi" soʻzidan oldin keladi. Chunki bu soʻzdagi 4- harf - a, buvi soʻzidagi 4- harf i dan oldin keladi. Mana shu qatʼiy alifbo tartibida soʻzlar lugʻatda aniq oʻringa ega boʻladi.

QOMUSIY VA IZOHLI LUGʻATLAR BILAN ISHLASH

Qomus - ilm-fanning hamma sohalarini oʻz ichiga olgan, yoki biror soha boʻyicha keng, toʻliq maʼlumot beradigan lugʻat tarzidagi ilmiy toʻplamdir. Oʻquvchi undan barcha jumloqlarga javob topadi: istagan bir tushuncha haqida keng va atroflicha maʼlumot oladi. Ayniqsa, qomus oʻquvchilarning soʻzi xazinasini yangi tushunchalar bilan boyitadi, bu tushunchalarni ularning nutqiy faoliyatiga koʻchirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ona tili mashgʻulotlarida maktab oʻquvchilari uchun ixtisoslashtirilgan "U kim - bu nima?" (2-tomli) qomusdan unumli foydalansa boʻladi. Oʻquvchilar ushbu qomusdan foydalanib, maʼlum bir soxaga taalluqli tushunchalar roʻyxatini tuzishlari, bu tushunchalarning maʼnosini aniqlashlari, tushuncha va soʻz orasidagi fikrni bilib olishlari mumkin.

Qomus va qomusiy lugʻatlarda, asosan maʼlum bir ilmiy atama, tarixiy voqea-hodisa haqida bilib olish mumkinligini oʻquvchilar tushunib yetgan boʻlishlari kerak. Shuning uchun qomusiy lugʻatlarga soʻzning maʼnosini bilish uchun emas, balki soʻz bildirib keladigan narsa, tushuncha, voqea, hodisa haqida axborot olish uchun murojaat qilishlarini tushunishlari lozim.

Soʻzlarning maʼnolari faqat izohli lugʻatlarda sharhlanadi.

Oʻquvchilar izohli lugʻatdan maʼnosi oʻzlariga notanish boʻlgan soʻzlarning tavsifini topadilar: koʻp maʼnoli soʻzlarning maʼno turlari haqida maʼlumot oladilar. Lugʻatlardan foydalanishda oʻquvchilar soʻzlar alifbo tartibida joytanishini, maʼnolari oʻzaro bogʻliq boʻlishini, shakldosh soʻzlar alohida-alohida uyalarda berilishini, otlar birlik sonining bosh kelishik shaklida (ot, qalam v.h.) sifatlar oddiy daraja shaklida (och, qizil, zangori, koʻk, kabi), feʼllar - moq qoʻshimchasi bilan (otmoq, ochmoq, toʻkmoq, yashamoq, bermoq kabi) berilishini bilishlari zarur.

Hozirgi kunda oʻquvchilarimiz izohli lugʻatlardan foydalanish imkoniyatidan mahrumdirlar. Chunki 2 tomli "Oʻzbek tilining izohli lugʻati" ni nafaqat maktab kutubxonasidan, balki tuman kutubxonalaridan ham topish amri mahol. Shuning uchun oʻquvchilar badiiy va tarixiy asarlarni oʻqiyotganda ularga ilova qilinadigan qisqa izohli lugʻatlardan foydalanish, oʻzlarining shaxsiy izohli lugʻatlarini tuzish koʻnikmalarini

egallashlari zarur. Metodist va lug'atchilarimiz esa litsey va maktab o'quvchilarini ular uchun mos va xos bo'lgan "Izohli lug'at" bilan ta'minlashlari ham qar, ham farzdir.

Ma'nodosh (sinonim) so'zlar ustida ishlash. Bunday lug'at o'quvchilarga izohli lug'atdan ko'ra ham zarurroq va muhimroq. Ming afsuski, A. Hojiyevning 1974 yilda chop etilgan "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati"ni viloyat kutubxonalaridan ham topib bo'lmaydi.

Shuning uchun hozirgi kunda o'qituvchilarimiz o'quvchilarning shaxsiy "Ma'nodosh so'zlar lug'ati" ni tuzish va uni to'ldirib borish ustida jiddiy ish olib borishlari zarur. Shu sababli bunday lug'atni tuzish ustida mufassalroq to'xtalamiz.

Ma'nodosh so'zlar- bu ma'nolari bir-biriga yaqin so'zlar sirasidir. Chunonchi, yuz - bet- aft - bashara – chehra - jamol - diydor- uzor- ruxsor: yaxshi – durust - tuzuk- binoyi - xo'b- soz; odam - kishi - inson - odamzod - kimsa; shamol - shabada - yel kabi so'zlar qatori shunday siralardandir.

Ma'nodosh so'zlar qatorida bitta so'z, albatta, umumiy ma'noli, keng iste'molli so'z bo'ladi. Yuqoridagi siralarda yuz, yaxshi, odam, shamol shunday so'zlardir. Bunday so'zlar ma'nodosh so'zlar qatorining bosh, yetakchi yoki asosiy so'zi deb ataladi. Ma'nodosh so'zlar qatoridagi boshqa so'zlarning ma'nosi bosh so'z ma'nosiga nisbatan aniqlanadi. Chunonchi, bet - turq - bashara - yuz tushunchasini salbiy munosabat bilan ifodalasa, chehra - jamol - diydor shu tushunchani ijobiy munosabat bilan ifodalaydi. Oraz - uzor- ruxsor so'zlari esa ko'tarinki, badiiy, she'riy uslubga xos ijobiy munosabatli so'zlardir.

Ma'nodosh so'zlar qatori lug'at daftarchasiga bosh (yetakchi) so'zdan keyin berilishi kerak va har bir ma'nodoshning ma'nosi qisqacha sharhlanishi lozim. Chunonchi, yuz so'zining ma'nodoshlari uyasi taxminan quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi. Bu so'zlar sirasi U harfi bobida berilishi lozim. Chunki qatorning bosh so'zi yuz harfi bilan boshlanadi: yuz-bet, aft, bashara, angor, turq, chehra, jamol, diydor, oraz, uzor, ruxsor, bu qatordan keyin ma'nodosh so'zlarning umumiy ma'nosi tavsiflanishi lozim. Ya'ni yuz ... boshning old qismining umumiy ko'rinishi. Bet, aft, bashara, angor, turq so'zlarida salbiy munosabat bo'yog'i oshib boradi.

Masalan, uning betiga qaragim kelmaydi. Mastning aftiga qarab bo'lmaz edi. Uning tirjaygan, xunuk basharasi hali-hali ko'z oldimda. Qaerlarda sang'ib yuribsan? Aftu angoringga qarab bo'lmaydi. Hasadgo'ying turqi qursin. Chehra-jamol-diydor so'zlarida ijobiy munosabat darajalanadi. Masalan, Uning quvnoq chehrasidan xursandligi

balqib turardi. Do'st jamoli tunni ham yoritadi. Janobi oliyning muborak diydorini ko'rishga muyassar etsangiz.

Ma'nodosh so'zlar lug'atining har bir uyasi taxminan ana shunday tuzilishga ega bo'lishi kerak.

Ma'nodosh so'zlar sirasini asta-sekin iboralar bilan boyitib borish yana ham maqsadga muvofiqdir. Chunki tom ma'nodagi so'z san'ati va notiqlik kamoloti iboralarni to'g'ri va o'rinli qo'llashda namoyon bo'ladi.

O'quvchilarimiz uchun o'ta zarur lug'atlardan ana biri "Uyadosh so'zlar lug'ati"dir. Bunday lug'atlarni o'quvchilar va o'qituvchilar o'zlarini tuzishlariga to'g'ri keladi.

Uyadosh so'zlar deganda bir jinsdagi narsa, beigi, harakatning har xil ko'rinishlarini atovchi so'zlar qatori tushuniladi. Biz yuqorida daraxt, ot kabi uyadosh so'zlar qatorini keltirdik. O'quvchilar qizil so'zining qizg'ish, qirmiz, ol, qonrang; ko'k so'zining ko'qish, ko'kin'tir, moviy, havorang; yurmoq so'zining qimirlamoq, emaklamoq, sudralmoq, chopmoq, yugurmoq, yelmoq, uchmoq; kulmoq so'zning tabassum qilmoq, jilmaymoq, kulimsiramoq, xoxolamoq, qahqahlamoq, tirjaymoq, ishshaymoq kabi uyadoshlarini topib lug'at daftarchalariga qayd etsalar va ulardan o'z nutqlarida foydalansalar, lug'at boyliklarini keskin oshirgan bo'lar edilar. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, ma'lum meva, poliz ekinlari va o'simlik turlari nomlarini, kundalik hayotda keng qo'llaniladigan uy-ro'zg'or buyumlari, ovqat turlari, kasiblik va hunarmandchilik mahsuloti turlarining nomlarini topish va tushuntirish bolalarda katta zavq uyg'otadi. O'tkazgan tajribalarimiz shuni ko'rsatadiki, bolalar qovun, olma, uzum kabi mevalarning 10 tadan 20 tagacha turini, zirak, uzuk kabi taqinchoqlarning 6-10 turini, kapkiming 3-6 turini, qozonning 3-10 turini qiynalmay topishdi. Bu ishda ularga ota-bobolari, kasib, hunarmand va dehqonlar zo'r maroq bilan yordam berishlari mumkin. Bunday mustaqil ishlarning muhim tomoni shundaki, u bolalarning o'zida katta qiziqish uyg'otadi. Ayrim o'quvchilar so'zlarni topish va tavsiflash bilan chegaralانب qolmay, hatto rasmi al'bomlar tuzishga muvoffaq bo'lishdi. Ona tili mashg'ulotlarida lug'atlar bilan ishlash imkoniyatlari benihoya cheksizdir. Afsuski, ko'pgina o'qituvchilar o'quv lug'atlarining yo'qligi sababli ko'p hollarda bunday ishni yo'qqa chiqaradilar. Qanday bo'lmasin, lug'at bilan ishlash ona tili mashg'ulotlarning tarkibiy qismiga aylanmog'i shart. Lug'at yo'q deb, bunday qiziqarli ishni tashlab qo'yish jinoyat bilan baravardir. Lug'atlar bo'lmasa, o'quvchilarni shunday lug'atlarni tuzishga undashimiz, qiziqtirishimiz zarur. Bu esa so'z boyligini oshirishning asosiy omili sanaladi.

2-O'ISM

TIL SATHLARINI O'RGANISH JARAYONIDA O'QUVCHILAR SO'Z BOYLIгинI OSHIRISH IMKONIYATLARI

Ona tili mashg'ulotlarining asosiy maqsadi o'quvchilarning so'z boyligini oshirish va nutqini rivojlantirish ekan, tilning barcha sathlari birliklarini o'rganish jarayonida ana shu maqsad yetakchi o'rinni egallamog'i lozim. Demak, ona tilidan birorta dars qanday xususiy maqsadni ko'zlamasin, umumiy bosh maqsaddan chetda turmasligi kerak. Shuning uchun biz Arastuga ergashib ona tili o'quv predmetining nomini "So'z san'ati", "Nutq mahorati" sifatida yangilash tarafdori bo'lar edik. Chunki savodlilik, to'g'ri yozish va to'g'ri talaffuz etish nutq san'atining poydevoridir. Shunday nomlanganda biz, ehtimol, ilmiylik va grammatizmga bunchalik berilmagan va mana bunday yorqin kunlarda, ish kunida qurolsiz qo'shin, qalamsiz xattot, uskunasiz kosibday ayanchli ahvolda qolmagan bo'lar edik.

Ona till o'qituvchisining lug'atsiz holati ignasiz tikuvchidek fojialidir. Ona tilining har bir sathi umumiy maqsad bilan bir qatorda ma'lum bir xususiy maqsadni ham ko'zlaydi. Lekin hech qachon xususiy maqsad umumiy bosh maqsadga to'siq bo'lmasligi, balki unga bo'ysundirilishi lozim. Shuning uchun biz quyidagi bo'limlarda fonetika, so'zshunoslik /leksikologiya/, morfologiya, sintaksisga oid mavzularni o'rganishda o'quvchilar so'z boyligini oshirish imkoniyatlari ustida alohida-alohida to'xtalib o'tamiz.

Fonetika, orfoepiya, grafika va orfografiyani o'rganish jarayonida o'quvchilar so'z boyligini oshirish

Mazkur bo'lim garchand tilning nutq tovushlarini o'rgansa-da, so'z bilan ishlash, bolalarning shaxsiy so'z boyligini oshirish va nutqini rivojlantirishda juda katta imkoniyatlarga ega.

Ana shu imkoniyatlardan biri *tovushdosh so'zlar* ustida ishlashdir. Tovushdosh so'zlab deb, bir-biridan atigi bitta tovush bilan farqlanuvchi turli xil ma'nolarga ega bo'lgan so'zlar tushuniladi.

Masalan, tush-tosh, to'sh-tish, yoki tir-bir, sir-kir, mir kabi so'zlar shunday so'zlar jumlasidandir.

"Fonetika" bo'limidan "Harf", "Alifbo va uning ahamiyati", "Unli va undosh tovushlar" singari mavzularni o'rganishda tovushdosh so'zlar bilan

ishlashning imkoniyati keng. Chunonchi, unli yoki undosh harf ishtirok etgan soʻzlarning talaffuz va imlo xususiyatlari haqida gap ketganda bir, kir, tir, bur, dur, nur, sur, tur, ur, chur, hur kabi tovushdosh soʻzlar xosil qilish, ularning maʼnolarini izohlash, shunday soʻzlar yordamida gaplar hosil qilish kabi ijodiy - amaliy ishlardan foydalanilsa yaxshi natija beradi.

Tovushdosh soʻzlar ustida ishlashda maʼnosi oʻquvchilarga tushunarli boʻlmagan soʻzlar oʻqituvchi tomonidan izohlanishi, yoki "Oʻzbek tilining izohli lugʻati"dan foydalanib ularning maʼnosi aniqlanishi lozim. Masalan, bir, tir, mir, sir kabi soʻzlardan mir soʻzining maʼnosi koʻpchilik oʻquvchilarga notanish. Oʻqituvchi bu soʻz "amir" soʻzining qisqargan shakli ekanligini va nutqda baʼzan mustaqil holatda qoʻllanilishi /Mir Alisher buyurdilar. Mir Alisher naʼrasiga aks sado berdi jahon kabi/ ni izohlaydi.

Sheʼriy asarlardagi qofiyadosh soʻzlar ustida ishlash ham toshushdosh soʻzlar ustida ishlashning bir koʻrinishidir. Oʻquvchilar sheʼriy asardagi qofiyadosh soʻzlarning maʼnolarini sharhlashlari, shunday soʻzlar roʻyxatini davom ettirishlari, nuqtalar oʻrniga qofiyadosh soʻz topib qoʻyib, sheʼriy misrani toʻldirishlari mumkin.

Oʻquvchilar nutqini tovushdosh soʻzlar bilan boyitishda, ayniqsa, unli yoki undosh tovush juftlari ustida olib boriladigan ishlar samaralidir. Masalan, u-oʻ, u-i, oʻ-i, u-o, i-e, p-b, v-f kabitovush juftlari ustida ishlayotganda shunday soʻzlar hosil qilish /mas., un-oʻn, ul-oʻl, ur-oʻr, uq-oʻq; bur-boʻr, tur-toʻr, sur-soʻr, qur-qoʻr, kul-koʻl, bur-bir, sur-sir, tur-tir, bur-bor, tur-tor, qur-qor, bir-ber, tir-ter, pir-bir, tol-bol, put-but v.h./, ularning maʼno farqlarini sharhlash, bu soʻzlar yordamida gaplar tuzish kabi ijodiy-amaliy ishlar bolalarning soʻz boyligini oshirishga xizmat qiladi.

Maʼlumki, tilimizda unli yoki undosh tovushlarni choʻzish natijasida maʼnoni kuchaytirish /mas., ka-tta bino, ki-chkina bola, qa-ri kishi v.h. /ishonchsizlikni ifodalash /mas., kela-r, borar v.h./, yalinish-erkalash /mas., oyijoni-m, buvijo-n v.h./, qatʼiylikni bildirish maqsadida tovushni ortirish /ogʻzaki nutqda yoʻq, katta v.h./ kabilarni ifodalash mumkin. Fonetik-stilistik hodisaning bu muhim imkoniyatidan bolalarning nutqiy taraqqiyotini taʼminlash maqsadida unumli foydalansa boʻladi. Oʻquvchilar matndagi chizilgan shunday soʻzlarning maʼnosini tushuntirishlari, berilgan soʻz va soʻz birkmalari yordamida gaplar tuzishlari yoki matn yaratishlari mumkin.

"Fonetika" boʻlimini oʻrganishda maʼlum bir guruhdagi soʻzlar roʻyxatini tuzish, berilgan soʻzlarni maʼlum bir belgilarga qarab guruhlarga ajratish, berilgan soʻzlar roʻyhatini davom ettirish, soʻzning maʼnodoshlari, uyadoshlari va qarama-qarshi maʼnolari ustida ishlash kabi ijodiy-amaliy

bo'lgan, lekin bir ma'noni ifodalaydigan so'zlar ro'yxatini tuzish /adab-odob, arava-aroba, asta-ohista, barobar-baravar, kabutar-kaptar, shohi-shoyi, shohsupa-shosupa kabi/, oxiri k, q tovushlari bilan tugagan so'zlarni jaranglaydigan va jaranglamaydigan guruhlarga ajratish /masalan, qishloq-qishlog'i, farq-farqi, mulk-mulki, tark-tarki, pok-poki, ko'rk-ko'rki, yuk-yuki kabi/, mahalliy shevada talaffuzi adabiy tildan farqlanuvchi so'zlar lug'atini tuzish /masalan, arixona-ari uyasi, otashgirak-otashkurak, oxtarmoq-axtarmoq, ovoza-avoza, oppoq-oppoq singari.

O'quvchilarning lug'at boyligini oshirishda so'z urg'usi ustida ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar matnda urg'u belgisi qo'yilgan so'zlarning talaffuzi ustida ishlashlari, o'z so'zlarimizda urg'uning o'rini belgilash, olinma so'zlarda urg'uning o'rni va axamiyati ustida ishlash, berilgan gaplardagi ajratilgan so'zlarga urg'u qo'yib, ularning ma'nosini tushuntirish /masalan, olmani olma deysiz, tugmani tugma deysiz kabi/, urg'u bilan farqlanuvchi ayrim so'zlarning ma'nosini sharhlash /masalan ximik-ximik, fizik-fizik, akademik-akademik v.h./ kabi ishlarni juda katta qiziqish bilan bajaradilar.

O'quvchilar lug'atini har xil fonetik tushunchalar bilan boyitishda shu bo'lim mohiyatini ochishga xizmat qiladigan matnlardan ham foydalansa bo'ladi. Masalan, V sinfda mazkur bo'limni o'rganish jarayonida o'quvchilar diqqati quyidagi matnga qaratilishi mumkin:

NUTQ

Biz fikrimizni so'zlash, gapirish va yozish orqali bayon qilamiz. Boshqalarning fikrini esa eshitish yoki o'qish vositasida tushunamiz. Buning barchasi **nutq** deyiladi. Nutq yozma yoki og'zaki ko'rinishlarda bayon etilishiga ko'ra yoza nutq va og'zaki nutq deb ataladi. Yozma nutqning ham, og'zaki nutqning ham o'ziga xos vositalari, birliklari, bu vositalarni ishlatish qonun-qoida va me'yorlari bor.

Yozma nutqning asosiy vositasi harflar va tinish belgilar. So'z va qo'shimchalarni to'g'ri yozish, tinish belgilarini to'g'ri ishlatish qonun-qoidalari, imlo /lotincha orfografiya/ deb ataladi. "Imloviy xato" deganda so'z va qo'shimchalarni yozishda, tinish belgilarni ishlatishda yo'l qo'yilgan xatolar tushuniladi.

Og'zaki nutqning asosiy vositasi tovushlar, ohang va urg'udir. So'z va qo'shimchadagi tovushlarni to'g'ri aytilish, ohangdan o'rinli foydalanish qonun-qoida, me'yorlari to'g'ri talaffuz /lotincha orfoepiya/ deb aytiladi.

Insonning ma'naviy barkamollik darajasi va savodxonligini imlo va talaffuz belgilaydi.

Og'zaki nutqning tovushlarini, ularning hosil bo'lish xususiyatlarini, so'zlardagi urg'uning tabiatini, gapdagi rangbarang ohanglar va ularning vazifalarini "Fonetika" deb nomlanuvchi fan o'rgatadi.

Fonetika tilshunoslik fanining bir qismi, bo'lagidir.

Matn diqqat bilan o'qilgach, uning mazmuni asosida o'quvchilar bilan savol-javob tashkil etilishi mumkin. O'qituvchi qo'lyozidagi savollar bilan ularga murojat qiladi:

1. Nutq nima?
2. Nutqning qanday shakllari bor?
3. Imlo nima?
4. To'g'ri talaffuz nimani o'rgatadi?
5. Fonetika nimani o'rgatadi? v.h.

O'zbek tilining tovush sistemasini o'rganishda bolalarning so'z boyligini oshirish yo'llaridan yana biri turli xildagi fonetik o'yin-topshiriqlardir.

Darhaqiqat dars jarayonida tashkil etilgan o'yinlar yoki o'yin tarzida o'tkaziladigan mashg'ulotlarning qiziqarli o'tishi turgan gap. Chunki bunda o'quvchilar me'dalariga tegib ketgan dars usullaridan chetga chiqib, o'z qobiliyatlarini ko'rsatish, namoyon etish imkoniyatga ega bo'ladilar.

Ayniqsa, aylana ichida berilgan harflardan, yoki berilgan ma'lum bir so'z tarkibidagi harflar ishtirokida yangi so'zlar hosil qilish, yozdirilgan so'zni "Imlo lug'ati" dan tez topish, ma'lum bir tovushlar takrorlanib kelgan so'zlarni tez aytish, o'qituvchi tomonidan belgilangan vaqt ichida ko'proq so'z topish, so'zda bir tovushni ko'paytirish yoki kamaytirish orqali yangi so'zlar hosil qilish /masalan, bol-bolt-bolta, bu-bur-bura-burash, til-tila-tilak v.h./ kabi o'yin topshiriqlar bolalarning lug'at boyligini oshirish, til hodisalarini amaliy jihatdan puxta o'zlashtirishga yordam beradi.

O'yin-topshiriqlardan ayrim namunalar keltiramiz:

1. "Teskari" o'yini. O'quvchilarga ters o'qilganda ham o'z ma'nosini o'zgartirmaydigan so'zlar topishni topshirish /masalan, bob, lol, alla, non, ko'k, qiziq, arra kabi/

Tez va ko'p so'z topgan o'quvchilar o'yin g'olibi sanaladi.

2. "Kim ko'p so'z hosil qiladi?" o'yini. O'quvchilarga aylana ichida berilgan u, o, t, i, o, l tovushlaridan foydalanib, bir daqiqa vaqt ichida ko'p so'z hosil qilish topshiriladi /masalan, til, tol, stol, stul, olti, ol, lol, sol, il, sil, it, is, ot, sut, sim, ust, tus, ost v.h./.

Belgilangan muddat ichida ko'p so'z hosil qilgan o'quvchilar o'yin g'olibi sanaladi.

3. "K harfli topishmoq" o'yini.

K harfidan boshlanib, k harfi bilan tugaydigan besh harfli sakkizta so'zni 2 daqiqada yozing.

4. "Topqirlar o'yini". O'quvchilarga "Imlo lug'ati"dan 5-6 ta imlosi murakkab so'z yozdiriladi./masalan, tomosha, taassurot, termogenerator, to'kin-sochin, to'qnashtirmoq kabi/. So'zlarni "Imlo lug'ati"dan tez topgan, xatosiz yozgan o'quvchilar o'yin g'olibi sanaladi. /Xatolarni o'z-o'zini tekshirish yoki o'zaro tekshirishdan foydalanib aniqlash mumkin/.

5. "Domino" o'yini. O'yin bir partada o'tirgan ikki o'quvchi o'rtasida yoki qatorlar aro tashkil etilishi mumkin. Bellashayotgan o'quvchi yoki qator muayyan fonetik hodisaga taalluqli so'zlar (masalan, tovushdosh so'zlar, bir xil tovushlar yonma-yon keladigan qo'sh undoshli so'zlar, bo'g'ini ikkinchi qatorga ko'chirilmaydigan so'zlar v.h.) to'plash topshiriladi. O'yinga har bir o'quvchi o'z so'zini qo'yib boradi. Kim so'z topolmay qolsa shubhasiz, mag'lubiyatga uchraydi.

6. "Toyni soyga olib bor" o'yini. O'quvchilarga toy so'zini tovushdosh so'zlar topish orqali soy so'zigacha olib borish topshiriladi (masalan, toy, soy, joy, loy, choy, moy, voy, poy,... soy).

Nuqtalar o'mini birinchi bo'lib tovushdosh so'zlar bilan to'ldira olgan o'quvchilar o'yin g'olibi sanaladi.

7. Berilgan so'zdan bir tovushni tushirib yangi so'z yasang: (masalan, tortiq, torti, ortiq, orti, ort, or, ot, o).

8. Berilgan so'zga bir tovush orttirib yangi so'z yasang(masalan, u, ur, tur, turk, turki, turkiy,...).

Belgilangan muddat ichida ko'p so'z hosil qilgan o'quvchi o'yin g'olibi sanaladi.

9. "Undoshlar tortishuvi" o'yini. Jarangli va jarangsiz tovush juftlari yordamida so'z yasang va ular ma'nosini sharhlang. Ko'p so'z topgan o'quvchi g'olib sanaladi. Masalan: bob-bop, boq-bog', toq-tog', boz-bos, bos-boz, tosh-toj, bot-bod...

10. "Dordan qochib g'orga bor" o'yini. O'quvchilar birinchi undoshni almashtirib tovushdosh so'zlar yasaydilar. 5 daqiqa ichida eng ko'p so'z topgan o'quvchi g'olib sanaladi. Masalan: bor, dor, chor, hor, kor, nor, sor, tor, qor, g'or.

11. "Unlilar tortishuvi" o'yini. O'quvchilar berilgan unli tovush juftlari yordamida yangi so'zlar yasaydilar.

u-u	i-u	u-s	v.h.
bur-bo`r	bil-bul	bur-bor	
buz-bo`z	bir-bur	dur-dor	
buk-bo`k	big`-bug`	sur-sor	

bul-bo'l	sir-sur	sut-sot
bug`-bo`g`	tik-tuk	tut-tot
qul-qo'l	gir-gur	kut-qot

12. "Oldidagi ortiga" o'yini: toq-qot, sot-tos, sal-las, lak-kal, bos-sob, tak-kat, kirt-trik, sirt-tris, sut-tus. 5 daqiqa ichida eng ko'p so'z topgan o'quvchi g'olib sanaladi.

13. "So'z xarfidan so'z yasang" o'yini. O'quvchilar berilgan so'zning har bir harfiga qolgan harflar yordamida so'z topadilar.

Topshiriq:

1. Top, tosh, toshi, toshir, tish, tirq, toq...
2. Ot, osh, oshir, oshiq, oriq, ortiq...
3. Pot, pish, pishir, pisht, piq, pirq, port, pirt, pir...
4. Shoti, shitir, shir, shop, ship, shirq, shior...
5. Irq, ishq, ip, it, Ish, iroq ...

6. Qir, qor, qop, qon, qirot /pui/... v.h.

Bu o'yinda eng ko'p so'z topgan o'quvchi g'olib sanaladi.

14. "Men o'yladim sen tanla" o'yini. Ikki o'quvchi musobaqalashadi. Biri bir so'z aytsa, ikkinchisi shu so'zga bir tovush qo'shib, kamaytirib yoki almashtirib yangi so'z aytadi*

Masalan: qoldi-oldi, quloq-uloq, savat-salat, qalam-alam, salom-kalom, sovun-qovun v.h.

Bu yerda so'z topolmay qolgan o'quvchi mag'lub bo'ladi. Quyidagi takrorlash va mustahkamlash darslarini "Topqirlar bellashuvi" tarzida o'tkazish xususida kengroq fikr yuritmoqchimiz.

O'quv yilining boshida sinf har biri 4-6 o'quvchidan iborat 6 guruhga teng ajratiladi va guruh boshlig'ining ismi bilan nomlanadi. 2-3 o'quvchi asosan, alochilar va faolligi bilan ajralib turuvchi o'quvchilar hakamlar tarkibiga kiritiladi. Hakamlar hay'atini boshqarishni o'qituvchi o'z zimmasiga oladi. O'quvchilarga "Topqirlar bellashuvi" musobaqasining mohiyati va unda foydalaniladigan moslama bilan qanday ishlash mumkinligi tushuntiriladi. Moslama tuzilish jihatidan oddiy bo'lib, uning chizmasi –rasmda ko'rsatilgan / qarang 36-bet/.

Tanlovning mohiyati shundaki, biror mavzu o'tib bo'lingach, har bir guruh mustaqil holda mavzu bo'yicha 16 ta /yoki ikkitadan 32 ta savol-topshiriq tayyorlaydi. Ularni 16 xat jildga qo'yib, xat jildlarini 1,2... 16 deb raqamlaydi. O'yinda birdaniga ikki guruh ishtirok etadi. Biri savol beradi, ikkinchisi dastlab savolni o'zaro muhokama qilib, keyin javob beradi. Necha marta savol berish tartibini o'qituvchi boshliq hakamlar belgilaydi. Javob

beruvchi guruhga har bir javobi uchun 0 dan 3 tagacha, savolning echimini muddatidan oldin topgan taqdirda esa 0 dan 2 tangagacha yutuq beriladi. So'rovchi guruhga tuzilgan savollarning to'g'riligi va qiziqariligi uchun 0-2 tanga, javob to'g'ri to'ldirilganligi uchun 0-3 tanga yutuq beriladi. Savol noto'g'ri tuzilgan bo'lsa, bir-biri bilan savol-javobni tugatgach, har ikkala guruhning shu musobaqada olgan tangalari yig'iladi va g'olib guruh aniqlangach, u navbatdagi ikki juftlikning eng ko'p tanga olgan guruhi bilan bellashadi. G'olib chiqqan guruh qolgan bitta guruh bilan kuch sinashadi. "Topqirlar bellashuvi" da har bir guruhning olgan tangalari qayd qilib boriladi va chorak oxirida ularni yakunlab borish yaxshi samara beradi. G'oliblarni taqdirlash uchun, jumladan biz ishlayotgan maktab homiylari tomonidan mablag' ajratildi va biz ularga kitob, boshqa o'quv qurollari olib, esdalik xati bilan g'oliblarga topshirdik. Bellashuv natijalari asosida sinf qaydnomasiga yakuniy chorak baholarini chiqarish ham yaxshi natija beradi.

O'yin tarzida o'tkaziladigan bu takrorlash mashg'ulotlarining ahamiyatini baholashda tom ma'noda so'z topolmaymiz. O'quvchilar o'yinga shunchalik jiddiy tayyorlandilarki, bunday tayyorgarlikni imtihon davrida ham uchratish qiyin. Zavqlanarli tomoni shundaki, har bir guruhdagi "ilg'orlar", "qoloqlarni" turtkilashga intiladi. Bu mavzuni takrorlashga bag'ishlangan 45-90 daqiqalik mashg'ulotda har bir o'quvchi o'tilgan mavzuni 4-5 sira mukammal xotirada tiklagan bo'ladi. O'yinning diqqatga sazovor tomonlaridan yana biri shundaki, savol-topshiriqlar tuzganda o'quvchilar mashg'ulotlar davomida olingan bilimlarni amalga tadbiiq etish bilan shug'ullanadilar. O'zlarining zukkoliklari, ziyrakliklarini nomoyish etadilar.

Imio va talaffuz bo'yicha bellashuvning bitta savol-javobini namuna tariqasida keltiraylik. Ko'rsatkich II raqamda to'xtadi. II raqamli xatjilddagi topshiriqda "Berilgan so'zni qo'llab bitta gap tuzing" deb yozib qo'yilgan. So'rovchi guruh savol-topshiriq xatjildi ochilgandan keyin javob berayotgan guruhga II raqamli xatjildini topshiradi. Xatjilddagi varaqchada "ekkan" so'zi yozilgan ekan. Javob beruvchi guruh yarim daqiqi o'ylagach, bu so'z yordamida bir marta ishtirok etgan gap tuzish mumkin emas, deb javob berdi va hakamlar hamda saf olqishigi sazovor bo'ldi. Lekin o'quvchilardan biri o'yin yakunida e'tiroz bildirib, qo'yidagi gapni tuzdi: "Sen ekkan nihoini bu bola sindirdi". Haqiqatdan ham, yuqoridagi gapda ma'no jihatdan egmoq fe'li ham to'g'ri keladi. Faqat hakamlar e'tiroz bildirishdiki, niholni ekmaydilar, balki o'tqazadilar va nihol, daraxt kabi o'simliklarga nisbatan ekmoq so'zi qo'llanilishi o'ta xususiydir. Chunonchi,

"Samalyot bilan cho'llarga saksovul ekib, kuchli qumlar oqimini to'xtatish mumkin" kabi.

Ma'lumki, fonetikani o'rganishda asosiy e'tibor bolalarning imlo savodxonligini oshirishga qaratilmog'i shart. Ayniqsa, nuqtalar o'miga zarur harfni qo'yish, noto'g'ri yozilgan so'zlarning imlo xatolarini aniqlash, ma'lum bir imlo qoidasiga taalluqli so'zlar ro'yxatini tuzish, so'zning to'g'ri yozilishini sharhlash, ta'limiy lug'at diktantlari o'tkazish kabi ishlar nafaqat imlo savodxonligi, balki so'z boyligini oshirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu bo'limni o'rganishda o'quvchilarning imlo savodxonligini oshirish va lug'atni boyitishning muhim choralaridan yana biri shaxsiy "Imlo lug'ati" tashkil etishdir. O'qituvchi har bir soatlik ona tili mashg'ulotida o'quvchilarning shaxsiy imlo lug'atlariga 6-8 ta imlosi murakkab so'zni yozdirib, ularning o'zlashtirilishini nazorat qilib boradi.

O'qituvchilarning ish amaliyotida imlosi murakkab so'zlarni shaxsiy imlo lug'atlariga yozdirib borishning boshqa usullari ham mavjud. Ayrim o'qituvchilar imlosi murakkab so'zlarni yozdirishni "Imlo lug'ati"da berilgan tartib asosida amalga oshirsalar, ikkinchilari o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq holda olib boradilar. Bizningcha, o'rganilayotgan mavzu bilan aloqador bo'lgan imlosi murakkab so'zlar ustida ishlashni shu mavzu o'tilayotganda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Buxoro shahridagi 9-o'rta maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi M.Jaillova o'z ish tajribasida ancha qulay usuldan foydalanadi. U har bir soatlik ona tili mashg'uloti boshlanishdan oldin /tanaffus paytida/ sinfning maxsus birlashtirilgan navbatchi o'quvchilarga oldindan tayyorlangan /alohida varaqchada yozilgan/ so'zlarni sinf doskasiga yozib qo'yishni topshiradi. Ko'p hollarda dars boshlanguniga qadar bolalar bu so'zlarni o'z shaxsiy imlo lug'atlariga ko'chirib oladilar. O'qituvchi bu so'zlarning o'zlashtirilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatadi.

Shaxsiy imlo lug'ati yuritish tilning nafaqat fonetika, balki boshqa sathlarini o'rganishda ham davom ettiriladi.

Xullas, "Fonetika" bo'limini o'rganishda asosiy e'tibor bolalarning so'z boyligini oshirish, fonetik hodisalardan nutqiy sharoitlarda umumli foydalanish, imlo savodxonligini yaxshilash maqsadlariga qaratilsagina, bu bilimni o'rganishning samaralilik darajasi yuqori bo'ladi.

SO'ZSHUNOSLIK

"So'zshunoslik" /leksikologiya/ bo'limi bolalarning so'z boyligini oshirishda tilning boshqa sathlariga qaraganda kattaroq imkoniyatlarga

ega. Chunki bu bo`lim tilshunoslikning so`z va uning ma`nolari bilan shug`ullanadigan maxsus bo`limidir. O`quvchilar bu bo`limni o`rganish jarayonida so`zning o`z va ko`chma ma`nolari, ma`nodosh /sinonim/ so`zlar, uyadosh so`zlar, qarama-qarshi ma`noli /antonim so`zlar/, shakldosh /omonim/ so`zlar, talaffuzi yaqin ,ma`nosi farq qiluvchi /paronim/ so`zlar, umumxalq ko`p ishlatadigan va kam ishlatadigan so`zlar, tarixiy so`zlar, shevaga oid so`zlar, atamalar yangi paydo bo`lgan va eskirgan so`zlar, kasb-hunarga oid so`zlar ibora va tasviriy ifodalar kabi zaruriy bilimlarni o`z ichiga qamrab oladiki, ularning har bir bolalarning so`z boyligini oshirishda juda katta ichki imkoniyatlarga ega. Chunonchi" So`zning o`z va ko`chma ma`nosi" mavzusi o`rganilar ekan, o`quvchilar muayyan so`zlar /masalan, matnda ajratilgan so`zlar/ning ma`nosini sharxlash, so`z anglatgan ma`noni voqelikka /predmet-narsaga/ munosabatini aniqlash; berilgan birikmalarda so`zning o`z va ko`chma ma`nosini izohlash, berilgan so`zlarni o`z va ko`chma ma`noda qo`llab, so`z birikmalari hosil qilish, so`z birikmalari va gaplarni taqqoslash, o`z va ko`chma ma`nodagi so`zlarga ma`nodosh va uyadosh topish kabi ijodiy va amaliy ishlarni bajarish lozim.

O`quvchilarning so`z boyligini oshirish uchun ayniqsa, o`z va ko`chma ma`noli so`zlarning har biriga ma`nodosh va uyadosh so`zlar tanlash maqsadga muvofiqdir. Chunonchi, "Hovlimiz chetida bir chinor bor. U bobomdan xotira" gapi bilan "Bobom charchashni bilmasdilar. Qishlog`imizdagilar u kishini chinor deyishardi" matnlarini qiyoslash asosida chinor so`zining birinchi mantdagi uyadoshlari: **daraxt, terak, tol, qayin, qayrag`och** v.h., ikkinchi matnda esa **baquvvat, tetik, bardam...** so`zlar ekanligi osonlikcha aniqlanadi.

Shuni alohida ta`kidlash lozimki, so`zning o`z va ko`chma ma`nolari ustida ishlash "Leksikologiya" bo`limiga ajratilgan 1-2 soatlik mashg`ulot bilan cheklanib qolmasligi kerak. Bu masala bilan o`quvchilar deyarli har bir mashg`ulotda shug`ullanishlari lozim.

Shuning uchun fonetika, morfologiya, sintaksisga doir materiallarni o`tish jarayonida ham, ijodiy matnlar yaratish jarayonida ham o`quvchilar e`tiborini ko`chma ma`noli so`zlarning ishlatilishiga muttasil qaratib turish lozim.

"Izchil kursga kirish" bo`limida o`quvchilar o`z va ko`chma ma`noli so`zlar orasidagi ma`noviy munosabatlar, so`zning ma`noviy guruhlari /shakldosh so`zlar, zid ma`noli so`zlar, uyadosh so`zlar v.h./ haqida ilk ma`lumotlarni olishgan. Shuning uchun "Leksikologiya" bo`limida so`zning o`z va ko`chma ma`nolarini o`rganishlarini tashkil etib, ikkinchi bosqichda so`zning ma`noviy guruhlari /uyadoshlar sirasini/ umumiy ko`chma


imkoniyat yaratadi.

Omiikor o'qituvchilardan biri /H.A.Saidova/ so'zning o'z va ko'chma ma'nosi ustida ishlashga qo'shimcha yana ikki soat vaqt ajratadi.

Birinchi mashg'ulotda, asosiy, birikmalar va gaplar tarkibida alohida olingan so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolari ustida ish olib borildi.

Ikkinchi mashg'ulotda o'quvchilar o'zbek tilida hayvon nomlarining o'z va ko'chma ma'nolari ustida ish olib borishdi. Dastlab, o'quvchilarga hayvon nomlari ro'yxatini tuzish topshirildi. Ikkinchi bosqichda o'quvchilarga o'zlari tuzgan ro'yxat asosida har bir so'zni o'z ma'nosida qo'llab gaplar tuzish taklif etildi. Bu ish tekshirilgach, shu so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llab, gaplar tuzdirildi. O'qituvchi bu topshiriq muhokamasiga mashg'ulotning taxminan 40% vaqtini ajratdi.

Mashg'ulot oxirida "Hayvon nomlari ko'chma ma'noda ishlatilganda ular asosan, nimaga xizmat qiladi?" degan savol bilan o'quvchilarga murojaat qilindi. O'quvchilar bu savolga qiynalmay "Odamni turlicha baholash, tavsiflashga" deb javob berishdi. Shundan so'ng o'qituvchi mashg'ulotning yakunlovchi qismiga o'tdi va ayni bir shaxsni /masalan, Rustam yoki Bahodir/ hayvon nomlari vositasida turlicha tavsiflash vazifasini qo'ydi. O'quvchilar quyida berilgan qatorga monand gaplarni osonlikcha tuzdilar.



Shundan so'ng o'quvchilar har bir so'z shaxsni qanday baholashi va tavsiflashini izohlaydilar. Bu topshiriqlar muhokama etilgach, o'quvchilarga madaniy, yovvoyi o'smlik, mevasiz daraxt, poliz ekinlari, gul, uy - ro'zg'or buyumlarining nomlari kabi xususiy uyalar berildi. Uyalarning ro'yxatini tuzish, o'z va ko'chma ma'noda qo'llab, gaplar hosil qilish, har bir uyani ko'chma ma'noda ishlatganda nimaga xizmat qilishini tushuntirish topshirildi.

Shuni alohida mamnuniyat bilan qayd qilish lozimki, dars mashg'ulotlarida bolalarning faollik darajasi ancha yuqori bo'ldi.

So'zning o'z va ko'chma ma'nolari ustida ishlash morfologiya bo'limini o'tish jarayonida ham davom etadi. So'z turkumlarini o'rganish jarayonida

o'tish jarayonida ham davom etadi. So'z turkumlarini o'rganish jarayonida har bir turkum tarkibidagi yetakchi mavzu-guruhlarining ro'yxati, o'z va ko'chma ma'noda qo'llanishini, shu so'z turkumini o'rganishdagi asosiy yo'l va usul sifatida tanlanishi lozim. Shu bilan so'zning o'z va ko'chma ma'nolari, uyadosh so'zlar ustida ishlash bilan chambarchas bog'lanib, morfologiyani leksikologiya bilan bog'lab o'qitish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Uyadosh so'zlar ustida ishlash Bolalarning so'z boyligini oshirishda muhim o'rin egallaydi. Uyadosh so'zlar deb bir mavzuga, bir turga, bir guruhga oid so'zlar sirasi tushuniladi.

Masalan, atoqli otlarning kishi nomlari, jug'rofiy nomlar, tashkilot nomlari, lavozim nomlari, samoviy va fazoviy jism nomlari kabi bir qator uyalar mavjud. Asliy sifatlarning *rang-tus sifatlari, baholash sifatlari, shakl-hajm sifatlari, maza-ta'm sifatlari, miqdor sifatlari, masofa sifatlari* kabi mustaqil uyalar bor. Bu uyalar yana kichik uyachalarga bo'linishi mumkin.

Afsuski, amaldagi dastur va darsliklarda o'quvchilar nutqini uyadosh so'zlar bilan boyitish mutlaqo ko'zda tutilmagan. Uyadosh so'zlar ustida ishlashda so'zning umumiy /masalan, ot, daraxt, idish, uy v.h./ va xususiy ma'nolariga /masalan, kosa, choynak, piyola, guldun, patnis kabi/ alohida e'tibor qaratishga to'g'ri keladi. Chunki har bir umumiy ma'noli so'zning xususiy ma'nolari bir uyani tashkil etadi. Masalan, gul umumiy ma'noli so'z bo'lsa, uning *rayxon, chinnigul, gultojixo'roz, safsargul, yasmin, qalampirgul* kabi xususiy nomlari ham bor.

O'quvchilar nutqini uyadosh so'zlar bilan boyitishning yo'llari juda ko'p. Masalan, gapda yoki matnda ajratilgan umumiy ma'noli so'zlarga xususiy ma'noli so'zlar topish, ma'lum bir uyadagi so'zlarning izohli lug'ati yoki shu so'zlarning ro'yxatini tuzish, berilgan xususiy ma'noli so'zlarning umumiy ma'nosini aniqlash, ayni bir so'zning o'z va ko'chma ma'nolari, ma'nodoshlari, qarama-qarshi ma'nolari va uyadoshlarini topish kabi mustaqil ish turlari o'quvchilar nutqini bunday so'zlar bilan boyitishda alohida o'rin egallaydi. Ayniqsa, berilgan matndagi ajratilgan so'zlarni ularning uyadoshlari bilan almashtirish, tavsiya etilgan uyadosh so'zlar yordamida / masalan, osmon jismlari: *quyosh, oy, yulduz, Mars, Yupiter* v.h./ matn yaratish kabi amaliy ishlar bolalarning nutqiy taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Shuni esdan chiqarimaslik lozimki, maktabda o'tiladigan 10 ta so'z turkumining har biri 100 tadan 10 gacha lug'aviy uyalariga / mavzuviy guruhlariga egadir va har bir so'z turkumini o'rganish

Ona tili darsliklarining "Morfologiya" qismini shu asosda tuzilgan. Bu ishga omilkor o'qituvchilar allaqachon kirishgan, tajribalar yaxshi samara bergan, yo'llanma va dasturlar bor. Oldimizdagi vazifa bu tajribani keng ommalashtirishdan iboratdir.

So'zlarning shakli va ma'no munosabatiga ko'ra turini o'rganishda o'quvchilar e'tibori *ma'nodosh, shakldosh va qarama-qarshi ma'noli so'zlarga* qaratiladi.

Ma'nodosh so'zlar /Sinonimlar/ ustida ishlash.

Ma'nodosh so'zlar /sinonimlar/ tilimizning leksik boyligi, nutqimiz go'zalligi va ko'rkidir. O'quvchi sinonimlardan qancha ko'p foydalana olsa, fikrini bayon eta olish imkoniyatlari shuncha yaxshi bo'ladi. Sinonimlarni bilish istagan paytda nutqda takror qo'llanilgan ma'lum bir so'zni uning ma'nodoshi bilan almashtirish imkonini beradi- so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish matakasi shakllanadi.

Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilar nutqini ma'nodosh so'zlar bilan boyitishning eng qulay ish usullaridan biri berilgan shunday so'zlarni guruhlariga ajratishdir. Masalan, o'quvchilarga *salomlashmoq, maslahatlashmoq, istamoq, so'rashmoq, maslahat qilmoq, xohlamoq, to'lishmoq, kengaymoq, tusamoq, omonlashmoq, orzulamoq, salom-alik qilmoq, mashvarat qilmoq, tilamoq, ixtiyor qilmoq, sog'inmoq* kabi so'zlar berilgan bo'lsa, ular bu so'zlarni quyidagi guruhlariga ajratishlari mumkin:

Birinchi guruh - *istamoq, xohlamoq, tusamoq, orzulamoq, orzu qilmoq, tilamoq, ixtiyor qilmoq, sog'inmoq;*

Ikkinchi guruh - *maslahatlashmoq, maslahat qilmoq, kengashmoq, fikrlashmoq, ahdlashmoq, mashvarat qilmoq;*

Uchinchi guruh - *salomlashmoq, so'rashmoq, ko'rishmoq, omonlashmoq, salom-alik qilmoq.*

Ma'nodosh so'zlarda ma'lum bir belgining oshib borishi yoki kamayishiga qarab, ularni tartib bilan joylashtirish ham nutqni sinonim so'zlar bilan boyitishda muhim o'rinni egallaydi. Masalan, o'quvchilardan *ot, qulun, toy, do'nan, g'unan; uy, hujra, kulba, xona, koshona, qasr, saroy* kabi ma'no darajalanib borgan so'zlarni belgining oshib borishi yoki kamayishiga qarab, tartib bilan joylashtirish talab etilsa /inni, chaqaloq, go'dak, bola; hujra, kulba, xona, uy, koshona, qasr, saroy; qulun/ bir yoshgacha bo'lgan ot/, toy / ikki yoshgacha /, g'unan/uch yoshgacha /, do'nan /to'rt yoshgacha/, ot / to'rt yoshdan keyin/, *tuzuk, durust, yaxshi,*

yoshgacha bo'lgan ot/, toy / ikki yoshgacha /, g'unan/uch yoshgacha /, do'nan /to'rt yoshgacha/, ot / to'rt yoshdan keyin/, **tuzuk, durust, yaxshi, ajoyib** kabi /ularning ma'nosini bilib olish osonlashadi va bu so'zlardan nutq sharoitiga mos ravishda foydalanish imkoniyatlari kengayadi.

Berilgan so'zlardan sinonimik qator hosil qilish ham samarali usullardan biridir. O'quvchilar tavsiya etilgan so'zlarning har biriga ma'nodoshlar topib, sinonimik qator hosil qilar ekanlar, bu so'zlarning ma'no nozikliklarini bilib olish imkoniyatlari ham vujudga keladi. Masalan, **gulzor, sezmoq, gumon** singari so'zlar berilgan bo'lsa, o'quvchilar bu so'zlar yordamida quyidagi sinonimik qatorlar hosil qiladilar.

1 - qator. Gulzor- gulshan-guliston-gulbog`-bo'ston-chamanzor...

2 - qator. Sezmoq-payqamoq-farqlamoq-uqmoq-tushunmoq-anglamoq...

3 - qator. Gumon-shubha-ishonchsizlik-shubhalanmoq...

Bu mavzuni o'rganishda tashkil etiladigan ijodiy-amaliy ishning yana bir turi gapdagi ma'lum bir so'zni uning ma'nodoshi bilan almashtirishdir. Mustaqil ishning bu turi bolalarning nutq sharoitidan kelib chiqib, so'z tanlash mahoratini kengaytiradi. Masalan, **langasani urma, so'kma /kaltaklama, do'ppaslama, savalama/ ishga so'i** kabi.

Yuqoridagilardan tashqari berilgan gap yoki manida ajratilgan so'zlarga ma'nodosh, uyadosh va qarama-qarshi ma'noli so'zlar topishi, shu asosda ularni o'zgartirish, so'zning o'zi va ko'chma ma'nodagi uyadosh va ma'nodoshlari ustida ishlash, ma'nodosh so'zlar orasidagi noziklikni aniqlash, badiiylik hususiyatiga ega bo'lgan so'zlarga ularning keng iste'moldagi ma'nodoshlarini topib qo'yish, berilgan ma'nodosh so'zlardan foydalanib, matnlar tuzish kabi amaliy ishlar ular nutqini bunday so'zlar bilan boyitishda muhim o'rin egallaydi.

O'quvchilarning lug'at boyligini oshirishda qarama-qarshi ma'noli so'zlar ustida ishlashning ahamiyati benihoya katta. Berilgan so'zlarga qarama-qarshi ma'noli so'zlar tanlash /masalan, **yaxshi... baland**..... , **xursand**..... , **olmoq**....., **kelmoq**....., **boshlamoq**....., **tez**..... kabi/, matndan qarama-qarshi ma'noli so'zlar bilan birga ishlatilgan xollarini ajratib, ularning ma'nosini sharhlash, kecha-kunduz, oq-qora, do'st-dushman, katta-kichik, yosh-qari, yigit-qiz singari juft so'zlarning ma'nosi ustida o'tkazilgan amaliy ishlar bolalarning lug'at boyligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Halq maqollari ham o'quvchilar nutqini qarama-qarshi ma'noli so'zlar bilan boyitishda alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar "O'zbek xalq maqollari", "Hikmatnoma", kitoblaridan qarama-qarshi ma'noli so'zlar ishlatilgan maqollarni ajratadilar /masalan, **yaxshi do'sting kuldirar-**

Yangining nodonligi bor, - eskining qadrdonligi kabi / , ularning ma'nosini sharhlaydilar, ma'lum bir mavzuga oid maqollar topadilar.

Berilgan sinonimik qatorga antonimik munosabatda bo'ladigan qator hosil qilish ham o'quvchilar nutqini qarama-qarshi ma'noli so'zlar bilan boyitishda muhim o'rin egallaydi. Masalan, **chiróyil- go'zal- husndor- husnli - xushro'y - ko'hlik - ko'rkam - barno - suluv- zebo -latofatli - sohibjamol** sinonimik qatordagi har bir so'zga o'quvchilar **xunik - badbashara-badsurat- badqovoq tasqara- bedavo - beo'xsho'v - beso'naqay- sovuq** kabi so'zlar topadilar.

Bulardan tashqari nuqtalar o'rniga zarur so'zni topib qo'yish /masalan, **paxsa uy yozda qishda bo'ladi. 2/..... bilan yursang, yetarsan murodga,..... bilan yursang qolarsan uyatga kabi/**, gapda yoki matnda o'z va ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlarga qarama-qarshi ma'noli so'zlar tanlash, shu asosda matn va gaplarni o'zgartirish /masalan, **Sayilga hamma qatnashdi- Sayilga katta -kichik qatnashdi. 2. To'yga hamma keladi-To'yga do'st-dushman keladi /kabi** mustaqil ish turlari ham o'quvchilar nutqini qarama-qarshi ma'noli so'zlar bilan boyitishda muhim omil sanaladi.

Shakldosh so'zlar /omonimlar/ ham o'quvchilarning nutqiy taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Bolalar nutqini omonim so'zlar bilan boyitishda, ayniqsa matnda ajratilgan so'zlarning /masalan, ot, olma, yoz, chaqmoq v.h./ ma'nolari ustida ishlash, ularning har biriga ma'nodosh va uyadosh so'zlar tanlash, tanlangan so'zlar ishtirokida gaplar tuzish, so'z o'yinlari tashkil etish va tuyuqlar ustida ishlash ancha foydalidir. Ayniqsa, o'quvchilarga nasriy yoki she'riy matnlar berib, shakldosh so'zlar ma'nosini sharhlash ancha samaralidir.

1 - topshiriq. She'riy parchani diqqat bilan o'qing, olma so'zining qanday ma'noda qo'llanganligini sharhlang.

Olma eksa, bog'iga har kim,

Mehmoniga ol, ye, demasmi?

"Olma" mening mehmondo'st xalqim,

Odatiga yot so'z emasmi? (E.Vohidov)

2 - topshiriq. Hikoyani o'qing. Mahramning nima uchun hayron bo'lganligini tushuntiring?

bo'lganligini tushuntiring?

ALISHERNING ZUKKOLIGI

G'iyosiddin Kichkina ertalab o'g'li bilan suhbatlashib o'tirardilar. Mahram kirib keldi. G'iyosiddin unga "Tut", dedilar. Mahram hayron, o'ngu-chapga qaray boshladi.

- Tut keltiring, hazratim tut yemoqchilar, - izoh berdi yosh Alisher. Tut pishig'i edi. G'iyosiddin suyuqli, zukko o'g'li Alisher bilan tut yemoqchi edi.

3 – topshiriq. O'ng va chap ustunchalardagi gaplar tarkibidagi ajratilgan shakldosh so'zlarning ma'nolariga o'tibor bering. O'ng ustundagi ma'nolar va chap ustundagi ma'nolar **qachon** va **qaerda qo'llanilishini** tushuntiring.

1. O'tirishda ot, eshak ulov- Predmetlarni atab kelgan so'zlarning asosiy ning asosiy turlari edi. turlari ot deyiladi.

2. Gap egasini topadi.

Ega gapning bosh bo'lagidir.

3. Ishning tubiga boq.

Tub sonlarni birinchi sinfda o'rganadilar.

4. Mehrnoz qiziq bir voqeani hikoya qilib berdi.

Hikoya kichik hajmli nasriy asar.

Ostiga chizilgan so'zlarning qaysi biri umumiy ma'noda va qaysi biri xususiy ma'noda qo'llanilayotganini izohlang.

O'quvchilar nutqini shakldosh so'zlar bilan boyitishda tuyuqlardan ham foydalanish zarur. Chunonchi, o'quvchilarga quyidagi topshiriq beriladi:

1 – topshiriq. Tuyuqni o'qing. Soch so'zining ma'nolarini tushuntiring.

Bahor keldi, yoz g'animat, dona **soch**.
Keksalik kelmay, oqarmay boshda **soch**,
Bog'laringda qushlar yayrab sayrasin.
Qushlar ichra soz, chug'urchiq ila **soch**.
(Habibiy)

Shakldosh so'zlar ustida ishlash ma'nodosh, qarama-qarshi ma'noli so'zlar ustida ishlash bilan qo'shib olib boriladi.

Paronim so'zlar ustida ishlash. O'quvchilarning lug'at boyligini o'stirishda paronim so'zlar ustida ishlash ham muhim ahamiyatga ega.

bob-bop, jayron-jiyron, ziyrak-zirak, juda-judo, emakdosh-emikdosh v.h.) tashkil etadi. Shuning uchun leksikologiyani o'rganish jarayonida bunday so'zlarga alohida e'tibor berishga to'g'ri keladi.

Berilgan paronim so'zlarining ma'nosini sharhlash, ular yordamida gaplar tuzish, bu so'zlarning ma'nolari va uyadoshlari ustida ishlash kabi amaliy ishlar o'quvchilarning ana shunday so'zlardan nutqda to'g'ri va o'rinni foydalanishlariga yordam beradi. Masalan:

1 – topshiriq. "Dakki bermoq", "Dakki emoq" so'z birikmalarini "Daqqi ot", "Dakki odam" birikmalari bilan qiyoslang. **Daqqi** va **dakki** so'zlarining tamomila boshqa-boshqa so'zlar ekanligini isbotlang.

2 – topshiriq. **Aro-ora-oro** so'zlari ishtirokida bittadan gap tuzing. Ularning boshqa - boshqa so'z ekanligini isbotlang. Bu so'zlarga ma'nodosh so'zlar toping.

Paronim so'zlar ustida ishlashda. "Paronim so'zlar lug'ati"dan (A.Ma'rupov, Toshkent, "O'qituvchi" 1974 yil) foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Leksikologiyaning eng dolzarb muammolaridan yana biri atamalar masalasidir. Ma'lumki, o'quvchilar bir qator fanlarning asosiy tushunchalari bilan tanish. Shuning uchun bu mavzuni o'rganayotganda oddiy so'zlar va atamalar orasida shakl va ma'no munosabatlariga alohida e'tibor berish kerak. O'quvchilarga berilgan so'zlarni qaysi fanga mansubligiga qarab, guruhlariga ajratish, so'z va atama orasidagi munosabatni aniqlash, uyadosh atamalar tanlash va ular yordamida matn yaratish kabi topshiriqlarni berish foydalidir.

Quyida o'quvchilar nutqini atamalar bilan boyitishga qaratilgan topshiriqlardan ayrim namunalar keltiramiz:

1 – topshiriq. Ma'lum bir fan sohasida tor, xususiy ma'noga ega bo'lib, ko'pchilik boshqacharoq ma'noda keng qo'llaniladigan so'zlar toping. Ularning tor va keng qo'llanish ma'nolari asosida gaplar tuzing.

Namuna: yer-Yer. **Dehqon xalqi rizqini yerdan topadi. Quyosh sistemasining to'rtinchi sayyorasi Yerdir.**

2 – topshiriq. "Tabiatshunoslik", "Matematika", "Musiqqa" darsligingizning ma'lum bir betini sinchiklab o'qing. Unda ma'lum bir fan sohasida xususiy, tor ma'noda qo'llanilgan va keng qo'llanishda boshqacharoq ma'noga ega bo'lgan so'zlar ro'yxatini tuzing. Ularning ma'nolarini tushuntiring.

tor ma'noda qo'lanilgan va keng qo'llanishda boshqacharoq ma'noga ega bo'lgan so'zlar ro'yxatini tuzing. Ularning ma'nolarini tushuntiring.

3 – topshiriq. Matnni o'qing. Undan ko'zlangan, lekin ifodalanmagan maqsadni so'zlab bering.

Fanni bilish - uning atamalarini tushunish demakdir.

Ona tili, adabiyot, matematika, musiqa, tabiatshunoslik kabi sizga tanish bo'lgan yoki kelgusida tanishadigan biologiya, kimyo, fizika, falakkiyot kabi har bir fan mag'zini uning o'ziga xos atamaları tashkil etadi. Bu atamalar keng qo'llanishda bo'lgan so'zlarning ma'nolarini bir oz o'zgartirib, toraytirib qo'llaniladigan so'zlardan va faqat shu fan sohasida qo'laniladigan so'zlardan iborat bo'ladi.

Fanni bilish-shu fanga oid atamalarni bilish, tushuna olish, ularni to'g'ri qo'llay olish demakdir. Shuning uchun sizning oldingizda o'nlab fanlarga oid ilmiy atamalarni o'zlashtirish, ularning keng va tor ma'nolarini farqlay olish, to'g'ri ishlatish bilan bir qatorda, har bir fan, kasb-kor uchun xos bo'lgan, shu sohadan tashqarida qo'lanilmaydigan so'zlar - atamalar sirasini o'zlashtirish kabi mas'ul vazifa turibdi.

Buning uchun ...

4 - topshiriq. Sizga yoki yaqinlaringizga tanish bo'lgan kasb-kor, hunar sohalari uchun xos bo'lgan xususiy ma'nolarga ega bo'lgan so'zlardan 10-15 tadan toping. Ularning tor qo'llanish va keng qo'llash ma'nolarini tushuntiring. Keng qo'llanishda umuman uchramaydiganlarining yoki tamoman boshqacha ataladiganlarining ro'yxatini tuzing.

Atamalarni o'rganishda bolalarga yaqin bo'lgan kasb-kor yoki soha nomlari lug'atini tuzdirish juda foydali va samaralidir. Shuning uchun o'quvchilarga tanish va yaqin bo'lgan kasb-hunarga oid bo'lgan so'zlar (novvoylik, temirchilik v.h.) lug'atini tuzish, ularni izohlash va shu so'zlar ishtirokida matnlar yaratishga oid topshiriqlar yaxshi samara beradi.

Olinma so'zlar

ustida ishlash

ham o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishda muhim o'rin egallaydi. Bu mavzuni o'rganishda berilgan gaplar yoki matndan rus va o'zbek tillari uchun mushtarak bo'lgan so'zlarni ajratish, rus tili orqali xorijiy tillardan kirib qolgan so'zlarning ma'nosini sharhlash, o'zbek tiliga arab va tojik tillaridan kirgan so'zlarning imlosi va ma'nosi ustida ishlash, olinma so'zlardan foydalanib, gap va matnlar tuzish kabi

amaliy ishlardan unumli foydalanish mumkin. Ayniqsa, turli sohalar bo'yicha olinma so'zlar ro'yxatini tuzish, imlosi murakkab bo'lgan olinma so'zlarni o'quvchilarning shaxsiy imlo daftarchalariga yozdirib borish, ularning ma'nolari ustida ishlash, o'zbekcha-arabcha-tojikcha-shakldoshlar uyalarini aniqlash (masalan, insoniylik-odamiylik-gumanizm) kabilar ham bolalarning so'z boyligini oshirishda katta o'rin egallaydi.

Olinma so'zlar haqida gap ketar ekan, shuni ham qayd qilish lozimki, ko'pincha o'quvchilar nutqida u yoki bu so'zni ifodalash uchun o'zbekcha so'z mavjud bo'lsa-da, ruscha so'zlardan foydalanish hollari ham uchraydi. O'zbek tilining sofligi uchun kurash nafaqat har bir soatlik ona tili mashg'uloti, balki maktabda olib boriladigan butun ta'limiy va tarbiyaviy ishlarning diqqat markazida turishi kerak. Masalan, o'lkaning bir bo'lagini, bir mintaqasini ifodalaydigan o'zbekcha "tuman" so'zi turganda, olinma "rayon" yoki "nohiya" so'zini ishlatish, o'zbek tiliga singib ketgan odamiylik, insoniylik kabi arabcha so'zlar mavjud bo'lgan holda *gumanizm* so'zini ishlatish, tamg'a, tug'ro kabi qadimiy so'zlarimiz turganda *gerb* so'zini ishlatish o'rinsiz ekanligini bolalar chuqur tushunib olishlari lozim. *Kamchilik-defekt, sil-tuberkulyoz, tumov-gripp, patta-bilet* kabi o'z so'z va olinma so'z lug'atlarini tuzdirish bu ishda katta foyda berishi tajribada sinalgan.

Lekin o'quvchilarimiz hozirgi kunda, ayniqsa matbuotda xunuk ko'rinishlarga ega bo'layotgan *xuristik* (olinma so'zlarga qarshi kurash) harakatlar tilni boyitishga qarshi kurash va behuda urinish ekanligini tushunib yetishlari lozim. Albatta, shim o'mida bryuk so'zini ishlatish yomon ish, lekin *tuffi* yoki *botinka* so'zini *kovush* bilan almashtirish bema'nilik ekanligini bolalar ongiga singdirib borish zarur. *Kostyum* so'zini *kalta yaktak*, pal'to so'zini *qishki to'n*, *movut to'n* yoki *chakman* bilan almashtirishga urinishlar ham shunga o'xshash harakatdir.

Olinma so'zlar "olinma tushunchalar"ni, narsa-buyum, belgi-xususiyatlarni atashda muhim ahamiyat kashf etishi bolalar ongiga etib berishi zarur. Xususan, ilmiy atamalar sirasida olinmalar muhim mavqega ega. "Kvadrat" riyoziy atamasi "sonning o'z-o'ziga ko'paytmasi" yoki "to'rttala tomoni bir-biriga teng, qarama-qarshi tomonlari davom ettirilganda kesishmaydigan tuzilma" kabi sun'iy murakkab atamalarni ishlatish ziyondan boshqa narsa emas. Rus tilidan kirgan deb kub figurasiining nomini ka'b so'zi bilan almashtirish kabi bema'ni urinishlar o'zbek xalqini jahon madaniyatidan uzishga olib kelishini esdan chiqarmaslik lozim.

O'quvchilar lug'at boyligining muhim qismini ibora va tasviriy ifodalar tashkil etadi. Ibora odatda bir so'zga teng keladigan so'zlar qo'shilmasi

bo'lib, u nutqimizni boyitadigan, go'zallashtiradigan va ta'sirchanligini oshiradigan muhim vositalardan biri sanaladi. O'quvchilar nutqini iboralar bilan boyitish uchun, ayniqsa, berilgan so'zlarni iboralar bilan, yoki aksincha, berilgan iboralarni so'zlar bilan almashtirish, iboralarning ma'nosini sharhlash, iboralar tuzish kabi amaliy ishlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, ona tili mashg'ulotlarida har bir o'quvchi mustaqil ravishda o'zi bilgan iboralarni tuzishi ham mumkin.

Quyida o'quvchilar nutqini iboralar bilan boyitishga qaratilgan topshiriqlardan ayrim namunalar keltiramiz:

1 - topshiriq . Gap juftlarida ajratilgan qismlar orasida qanday ma'no munosabatlari borligini aniqlang.

1. *Xaridor xursand bo'ldi.*

Xaridorning chehrasi ochildi.

2. *Bolalar xafa bo'lishdi.*

Bolalarning hafsalasi pir bo'ldi.

3. *O'quvchilar quvonishdi.*

O'quvchilarning boshi ko'kka

4. *Rozliya bilan Hafiza juda inoq do'st.*

Rozliya bilan Hafizaning

Oralaridan qil ham o'tmaydi.

2 – topshiriq. Berilgan iboralarning ma'nosini tushuntiring, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Mazasi qochdi, alamini oldi, baloga qoldi, bag'ri tosh, bei bog'ladi, vahima bosdi, gapl bir joydan chiqdi, dimog'i chog' bo'ldi, yeng shimardi, joni halqumiga keldi, kalavaning uchini topdi, nomi chiqdi, oq-qorani tanidi, tili bir qarich, xo'rligi keldi, terisiga sig'madi.

3 – topshiriq. Berilgan so'zlarni iboralar bilan almashtiring. Ular yordamida gaplar tuzing.

Gapirmadi, toza, yuvosh, rahmdil, kutdi, qo'rqdi, chaqqon, ko'p gapirdi, quvondi.

Namuna: gapirmadi - lom-mim demadi: ko'p gapirdi - jag'i ochildi kabi.

4 – topshiriq. Berilgan iboralarni qarma-qarshi iboralar bilan almashtiring.

Ko'ngli oq – ko'ngli qora, ichi qora, dill qora.

Qo'll to'g'ri – qo'll egri, dill egri.

Ko'zi och - ko'zi to'q, nazari to'q.

Ko'ngli yumshoq – ko'ngli qattiq, oq ko'ngil.

Ko'ngli butun – bag'ri butun, ko'ngli yarim.

5 – topshiriq. Lug'at daftaringizda "Iboralar" bo'limini oching. Unga badiiy asarlarni o'qiyotganingizda uchratgan iboralaringiz va ularning izohini yozib boring.

Tasviriy ifodalalar ham nutq go`zalligini ta`minlovchi asosiy vositalardan biridir. O`quvchilar *mexanik-haydovchi* so`zini *po`lat ot chavandozi*, *Zangori kema kapitani*, *televizor so`zini zangori ekran*, *oynai-jahon*, *shifokor* so`zini *salomatlik posboni*, *ko`mir so`zini qora oltin*, *pilla* so`zini *kumush tola*, *rassom so`zini mo`yqalam sohibi*, *qushlar* so`zini *qanotli do`stlar* kabi **tasviriy ifodalalar** bilan almashtira olsagina, nutqda undan to`g`ri va o`rinli foydalanishga erishadi. Bolalar nutqini bunday vositalar bilan boyitishda predmet nomini tasviriy ifoda yoki tasviriy ifodani predmet nomi bilan almashtirish, ularning ma`nolarini sharhlashdan tashqari, tasviriy ifodalarni qatnashtirib gap va matnlar tuzish ham ancha foydalidir.

"Leksikologiya" bo`limini o`rganishda bolalar lug`atini boyitishning muhim choralaridan yana biri so`z va uning ma`nolari ustida ishlashga oid o`yin - topshiriqlardir.

Qur`a o`yini. O`qituvchi kartondan to`rtburchak (kub) yasaydi va uning har citi tomoniga ma`nosini izohlash murakkab bo`lgan bitta so`zni yozib qo`yadi.

O`yinga kirgan o`quvchi qur`ani tashlaydi va qaysi so`z yuzaga chiqsa, o`sha so`zning ma`nosini izohlaydi yoki o`sha so`z yordamida gap tuzadi.

"Men boshlayman, sen davom ettir" o`yini.

Ma`lum bir qatordagi o`quvchilar halq maqolining boshlanish qismini aytadilar, ikkinchi qator esa uni davom ettiradi, Masalan,

1 - qator **Bulbul chamanni sevar,**

2 - qator **Odam vatanni.**

1 - qator **Ona yurtning omon bo`lsa,**

2 - qator **Rangi-ro`ying somon bo`lmas.**

Xuddi shunday o`yin - musobaqani o`z va ko`chma ma`nodagi so`zlar ma`nodosh, shakidosh, uyadosh va qarama-qarshi ma`noli so`zlar, tasviriy ifoda va iboralar yuzasidan tashkil etish mumkin.

"Qarindoshlar" o`yini. Bellashayotgan o`quvchi yoki guruhiarning biridan sinonimik qator hosil qilish mumkin bo`lgan ma`lum bir so`zni yoki umumiy ma`noli uyadosh so`zni aytish talab etaladi. Ikkinchi guruh uning ma`nodoshi yoki uyadoshlarini aytadi. O`yinda vazifalar almashtirib turiladi.

Javob berishda qiynalmagan o`quvchi yoki guruh g`olib sanaladi. Shunday qilib, "Leksikologiya" bo`limini o`rganishda o`z va ko`chma ma`noli so`zlar, ma`nodosh, shakidosh, uyadosh va qarama-qarshi iboralar lug`atini tuzish, ularni nutqda qo`llash, so`z va uning ma`nolarini

MORFOLOGIYA

Morfologiyani o'rganish jarayonida o'quvchilar boshlang'ich sinflarda o'rganilganlarga asosanib, so'zlarni mustaqil va yordamchilarga ajrata oladilar. Mustaqil so'zlarni so'roqlar asosida ot, sifat, son, olmosh, fe'l singari so'z turkumlariga ajratish ham boshlang'ich sinfdan ularga ma'lum. 5-sinfdan boshlab o'rganiladigan izchil kursga kirish va ona tilining izchil kursidan beriladigan bilimlar boshlang'ich sinflarda berilgan bilimlarning mantiqiy davomi sanaladi. Boshqa bo'limlar singari morfologiyadan berilgan izchil bilimlar silsilasi ham, asosan, amaliy maqsadni, so'z boyligini oshirish hamda so'zdan nutqda o'rinli foydalanish malakalarini kengaytirishga xizmat qilishi kerak.

"Morfologiya" bo'limini o'rganishda ana shu muhim talabni amalga oshirishning samarali yo'llari va usullari mavjud.

"Ot" - so'z turkumini o'rganish jarayonida ko'zlanadigan asosiy maqsad o'quvchilarni shu so'z turkumiga kiruvchi so'zlar olamiga olib kirish, ularning to'g'ri yozilishi, talaffuz qilinishi, nutqda o'rinli ishlatilishini ta'minlashdir. O'quvchi nutqini ot so'z turkumiga kiruvchi so'zlar bilan boyitish bir qator amaliy yo'nalishdagi mustaqil ishlarni ya'ni ijodiy tafakkurni kuchaytirishni taqazo etadi.

Ana shunday amaliy ishlardan biri otlarni aniq va mavhumlarga ajratishdir. O'quvchilar avval egallagan bilimlariga asosanib, istagan matndan so'roqlar asosida otlarni aniqlashlari mumkin. Bu otlar o'quvchilar tomonidan ular ifodalagan predmetlarning aniqligi, ya'ni ushlar, ko'rish, o'chash mumkinligini va mavhumligi, ya'ni ushlar, ko'rish, o'chash mumkin bo'lmaganligi asosida ikki guruhga ajratiladi va guruhlar mustaqil davom ettiriladi. Masalan:

Aniq va mavhum otlar tasnifi.

Ushlar, ko'rish, o'chash mumkin bo'lgan narsa va shaxs nomlari	Qo'shim-chasi	Ushlar, ko'rish, o'chash mumkin bo'lmagan so'zlar-ning nomlari	Qo'shim-chasi
Avtobus	-	Xushmuomalalik	-lik
Ishchi	-chi	Isrofgarchilik	-chilik
Poyondoz	-doz	Tuyg'u	-
Oynoma	-noma	Muhabbat	-
Muhandisning	-ning	Do'stlik	-lik
Maktabdosh	-dosh	Qardoshlik	-lik

MORFOLOGIYA

Morfologiyani o'rganish jarayonida o'quvchilar boshlang'ich sinflarda o'rganilganlarga asoslanib, so'zlarni mustaqil va yordamchilarga ajrata oladilar. Mustaqil so'zlarni so'roqlar asosida ot, sifat, son, olmosh, fe'l singari so'z turkumlariga ajratish ham boshlang'ich sinfdan ularga ma'lum. 5-sinfdan boshlab o'rganiladigan izchil kursga kirish va ona tilining izchil kursidan beriladigan bilimlar boshlang'ich sinflarda berilgan bilimlarning mantiqiy davomi sanaladi. Boshqa bo'limlar singari morfologiyadan berilgan izchil bilimlar silsilasi ham, asosan, amaliy maqsadni, so'z boyligini oshirish hamda so'zdan nutqda o'rinli foydalanish malakalarini kengaytirishga xizmat qilishi kerak.

"Morfologiya" bo'limini o'rganishda ana shu muhim talabni amalga oshirishning samarali yo'llari va usullari mavjud.

"Ot" - so'z turkumini o'rganish jarayonida ko'zlanadigan asosiy maqsad o'quvchilarni shu so'z turkumiga kiruvchi so'zlar olamiga olib kirish, ularning to'g'ri yozilishi, talaffuz qilinishi, nutqda o'rinli ishlatilishini ta'minlashdir. O'quvchi nutqini ot so'z turkumiga kiruvchi so'zlar bilan boyitish bir qator amaliy yo'nalishdagi mustaqil ishlarni ya'ni ijodiy tafakkurni kuchaytirishni taqazo etadi.

Ana shunday amaliy ishlardan biri otlarni aniq va mavhumlarga ajratishdir. O'quvchilar avval egallagan bilimlariga asoslanib, istagar matndan so'roqlar asosida otlarni aniqlashlari mumkin. Bu otlar o'quvchilar tomonidan ular ifodalagan predmetlarning aniqligi, ya'ni ushlash, ko'rish, o'lchash mumkinligini va mavhumligi, ya'ni ushlash, ko'rish, o'lchash mumkin bo'lmaganligi asosida ikki guruhga ajratiladi va guruhlar mustaqil davom ettiriladi. Masalan:

Aniq va mavhum otlar tasnifi.

Ushlash, ko'rish, o'lchash mumkin bo'lgan narsa va shaxs nomlari	Qo'shim-chasi	Ushlash, ko'rish, o'lchash mumkin bo'lmagan so'zlar-ning nomlari	Qo'shim-chasi
Avtobus	-	Xushmuomalalik	-lik
Ishchi	-chi	Isrofgarchilik	-chilik
Poyonoz	-doz	Tuyg'u	-
Oynoma	-noma	Muhabbat	-lik
Muhandisning	-ning	Do'stlik	-lik
Maktabdosh	-dosh	Qardoshlik	-lik

ifodalab keladigan ma'nosiga ko'ra shaxs otlari, kasb-hunar otlari, o'rin-joy otlari, qurol-vosita otlari, qavm-qarindoshlik otlari, marosim otlari kabi katta uyalarga bo'linadi. Bu uyalarni o'z navbatida yana bir necha kichik uyachalarga bo'lish mumkin. Masalan, kasb-hunar otlarining dehqonchilik, hunarmandchilik, shifokorlik kabi sohalarni ifodalovchi uyalari mavjud.

Ona tili mashg'ulotlarida bu uya va uyachalarining har biri ustida to'xtalishga to'g'ri keladi.

O'quvchilar nutqini shaxs otlari bilan boyitish uchun matndan shaxs otlarini ajratish, ularni tub va yasamalariga ko'ra guruhlash, ajratilgan so'zlarga ma'nodosh va uyadosh so'zlar tanlab, guruhlarni kengaytirish, -chi, -vchi, -uvchi, -dosh, -kor, -zor, -shunos kabi qo'shimchalar yordamida shaxs otlari hosil qilish, juft shaxs otlari (mexanik - haydovchi, muhandis - pedagog, metodist - o'qituvchi v.h.) tuzish, ularning imlosi ustida ishlash kabi ijodiy- amaliy topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Kasb-hunar otlari, o'rin-joy otlari, ularni tub va yasamaligi ustida ishlashda ham matndan shunday otlarni ajratish, ularni tub va yasamalariga bo'lish, ajratilgan so'zlarga ma'nodosh va uyadosh tanlash, shunday otlarni hosil qiluvchi qo'shimchalar yordamida yangi so'zlar qosil qilish kabi ish usullaridan foydalansa bo'ladi.

"Qavm-qarindoshlik otlari" ustida ish olib borilar ekan, shunday so'zlarni qon-qarindoshlik (*ota-ona, singil, aka, uka, amaki* v.h.) va nikoh qarindoshligi (*yanga, kelinoyi, pochcha, qaynona, quda* v.h.) kabi guruhlariga ajratish, shunday so'zlar lug'atini tuzish, qarindoshlik nomlarini ko'chma ma'noda ishlatish (masalan, keksa kishilarni otajon, onajon, buvijon, yoshlarni ukajon, singiljon, akajon, opajon deb chaqirish holatlari) ko'proq to'xtalish ma'qul.

"Marosim otlari"ni o'rganish jarayonida shunday so'zlarni to'y-tomosha, tantana, aza marosimlari kabi guruhlariga ajratish, bu guruhlarini mustaqil davom ettirish, "ot+fe'l+di" qolipli marosim otlari lug'atini tuzish (masalan, *kelin tushirdi, ro'mol berdi, non sindirdi, yuzko'rdi, joy yig'di, sep berdi* v.h.) yoki "ot+fe'l" qolipli marosim otlaridan foydalanib, matn yaratish kabi ijodiy-amaliy ishlardan foydalansa bo'ladi.

"Ot" ni o'rganish jarayonida umumxalq iste'molida bo'lmagan yoki kamiste'mol so'zlar ustida ishlash ham bolalarning so'z boyligini oshirish choralaridan biridir. Tilimizdagi *adash, adovat, almisoq, anduh, girdob, biya, vakolat, yorliq, javhar, zarbof, kalom, sidirg'a* kabi qator otlarning ma'nosini izohlash, ular yordamida gaplar tuzish bolalar nutqini shunday so'zlar bilan boyitishning muhim choralaridan biridir.

O'quvchilarning so'z boyligini oshirishda o'tli birikmalar ustida ishlash

otlari, qurol-vosita otlari, qavm-qarindoshlik otlari, marosim otlari kabi katta uyalarga bo'linadi. Bu uyalarni o'z navbatida yana bir necha kichik uyachalarga bo'lish mumkin. Masalan, kasb-hunar otlarining dehqonchilik, hunarmandchilik, shifokorlik kabi sohalarni ifodalovchi uyalari mavjud.

Ona tili mashg'ulotlarida bu uya va uyachalarining har biri ustida to'xtalishga to'g'ri keladi.

O'quvchilar nutqini shaxs otlari bilan boyitish uchun matndan shaxs otlarini ajratish, ularni tub va yasamalarga ko'ra guruhlash, ajratilgan so'zlarga ma'nodosh va uyadosh so'zlar tanlab, guruhlarni kengaytirish, -chi, -vchi, -uvchi, -dosh, -kor, -zor, -shunos kabi qo'shimchalar yordamida shaxs otlari hosil qilish, juft shaxs otlari (mexanik - haydovchi, muhandis - pedagog, metodist - o'qituvchi v.h.) tuzish, ularning imlosi ustida ishlash kabi ijodiy- amaliy topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Kasb-hunar otlari, o'rin-joy otlari, ularni tub va yasamaligi ustida ishlashda ham matndan shunday otlarni ajratish, ularni tub va yasamalarga bo'lish, ajratilgan so'zlarga ma'nodosh va uyadosh tanlash, shunday otlarni hosil qiluvchi qo'shimchalar yordamida yangi so'zlar qosil qilish kabi ish usullaridan foydalansa bo'ladi.

"Qavm-qarindoshlik otlari" ustida ish olib borilar ekan, shunday so'zlarni qon-qarindoshlik (*ota-ona, singil, aka, uka, amaki* v.h.) va nikoh qarindoshligi (*yanga, kelinoyi, pochcha, qaynona, quda* v.h.) kabi guruhlarga ajratish, shunday so'zlar lug'atini tuzish, qarindoshlik nomlarini ko'chma ma'noda ishlatish (masalan, kekxa kishilarni otajon, onajon, buvijon, yoshlarni ukajon, singiljon, akajon, opajon deb chaqirish holatlari) ko'proq to'xtalish ma'qul.

"Marosim otlari"ni o'rganish jarayonida shunday so'zlarni to'y-tomosh, tantana, aza marosimlari kabi guruhlarga ajratish, bu guruhlarni mustaqil davom ettirish, "ot+fe'l+di" qolipli marosim otlari lug'atini tuzish (masalan, *kelin tushirdi, ro'mol berdi, non sindirdi, yuzko'rdi, joy yig'di, sep berdi* v.h.) yoki "ot+fe'l" qolipli marosim otlaridan foydalanib, matn yaratish kabi ijodiy-amaliy ishlardan foydalansa bo'ladi.

"Ot" ni o'rganish jarayonida umumxalq iste'molida bo'lmagan yoki kamiste'mol so'zlar ustida ishlash ham bolalarning so'z boyligini oshirish choralaridan biridir. Tilimizdagi *adash, adovat, almisoq, anduh, girdoL, biya, vakolat, yorliq, javhar, zarbof, kaiom, sidirg'a* kabi qator otlarning ma'nosini izohlash, ular yordamida gaplar tuzish bolalar nutqini shunday so'zlar bilan boyitishning muhim choralaridan biridir.

O'quvchilarning so'z boyligini oshirishda otli birkimlar ustida ishlash muhim o'rin egallaydi. Berilgan matndan otli birkimlarni ajratish, tavsilya

qizilishton - qizil ishton, beshbarmaq - besh barmaq v.h.) "sifat+turdosh ot", "son+turdosh ot", "ot+fe'l" qolipli qo'shma so'zlar lug'atini tuzish, ularning inilosini sharhlashga ko'proq e'tibor berishga to'g'ri keladi. Juft otlar masalasi ham ancha murakkab masalalardan biri bo'lib, juft so'zlarni ular orasidagi ma'no munosabatlariga ko'ra uyadosh so'zlar (**aka-uka, opa-singil, ota-ona, ko'z-quloq, og'iz-burun, tog'a-jiyan** v.h.) ma'nodosh so'zlar (**uy-joy, shirin-shakar, kuch-quvvat, baxt-saodat, tog'u-tosh, makr-hiyla** v.h.), qarama-qarshi ma'noli so'zlar (**do'st-dushman, kecha-kunduz, baland-past, yaxshi-yomon, achchiq-chuchuk** v.h.) singari guruhlariga ajratish, faqat bitta tovushning o'zgarishi bilan **bug'doy-mug'doy, ko'rpa-mo'rpa, choy-poy, osh-posh, sayr-payr, paxta-maxta** singari juft so'zlarning ma'nosini sharhlash kabi ishlar bu murakkablikni bartaraf etish va bolalarning so'z boyligini oshirishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

"Ot" so'z turkumini o'rganishda uning stilistik xususiyatlarini ham unutmash lozim. O'quvchilar otlarda ko'plik, egalik, kelishik qo'shimchalarini o'rganishar ekan, ayni vaqtda - lar ko'plik qo'shimchasining hurmat (**onamlar, dadamlar, opamlar...**) noaniqlik, kuchaytirish, takrorlash, taxmin (**may oylari, 15 dekabr kunlari...**), kinoya, piching (**kelibdilar-da, yozmabdilar-ku...**) predmetning navi (**yog'lar, unlar, bug'doylar**) jamlik (**Buxorolar, Samarqandlar, Gullistonlar, Vashingtonlar...**) ma'nolarini ifodalash, kelishik qo'shimchalarini bir-biri bilan sinonimik munosabatga kirishishi (o'quvchilarning biri-o'quvchilardan biri, suvni ichdim-suvdan ichdim...), kelishik qo'shimchalarini ko'makchilar ko'makchi so'zlarni kelishik shakllari bilan almashtirishning mumkinligi (qalamda yozdim - qalam bilan yozdim, singlimga oldim - singlim uchun oldim, telefonda gaplashdim - telefon orqali gaplashdim) kabi nutq uchun o'ta muhim me'yorlardan ham xabardor bo'lishlari lozim.

O'quvchilarning so'z boyligini oshirish maqsadida shu so'z turkumiga oid bo'lgan o'yin-topshiriqlardan ham foydalanish mumkin. Masalan "O'z o'ringni top", O'yin mazmuni: 5-6 o'quvchi sinf oldiga chiqariladi va ularning qo'lga qo'shma so'zlarning bir o'zagi (masalan, **ko'k...., gul...., obod** kabi) tarqatiladi. Shu so'zlarning qolgan o'zklari (masalan, **sulton,yo'tal,bichak,beor,ra'no, ...tojxo'roz, ...ko'rpa,tuvak,xayri,xona,chambar,qog'oz,g'uncha,dasta, Hamza...., Zafar...., mehnat....** kabi) sinf o'quvchilariga tarqatiladi. O'yinga kirgan har bir o'quvchi sinf oldiga chiqib, o'z o'rnini aniqlaydi, qo'shma so'z hosil qiladi.

Xuddi shunday tartibda ot sinonimlarga doir ham o'yin tashkil qilish

birikmaning ma'nosini izohlash (*oqqush - oq qush, ko'ktosh - ko'k tosh, qizilishton - qizil ishton, beshbarmoq - besh barmoq* v.h.) "sifat+turdosh ot", "son+turdosh ot", "ot+fe'l" qolipli qo'shma so'zlar lug'atini tuzish, ularning imlosini sharhlashga ko'proq e'tibor berishga to'g'ri keladi. Juft otlar masalasi ham ancha murakkab masalalardan biri bo'lib, juft so'zlarni ular orasidagi ma'no munosabatlariga ko'ra uyadosh so'zlar (*aka-uka, opa-singil, ota-ona, ko'z-quloq, og'iz-burun, tog'ajiyon* v.h.) ma'nodosh so'zlar (*uy-joy, shirin-shakar, kuch-quvvat, baxt-saodat, tog'u-tosh, makr-hiyla* v.h.), qarama-qarshi ma'noli so'zlar (*do'st-dushman, kecha-kunduz, baland-past, yaxshi-yomon, achchiq-chuchuk* v.h.) singari guruhlariga ajratish, faqat bitta tovushning o'zgarishi bilan *bug'doy-mug'doy, ko'rpa-mo'rpa, choy-poy, osh-posh, sayr-payr, paxta-maxta* singari juft so'zlarning ma'nosini sharhlash kabi ishlar bu murakkablikni bartaraf etish va bolalarning so'z boyligini oshirishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

"Ot" so'z turkumini o'rganishda uning stilistik xususiyatlarini ham unutmash lozim. O'quvchilar otlarda *ko'plik, egalik, kelishik* qo'shimchalarini o'rganish ekan, ayni vaqtda - lar ko'plik qo'shimchasining hurmat (*onamlar, dadamlar, opamlar...*) noaniqlik, kuchaytirish, takrorlash, taxmin (*may oylari, 15 dekabr kunlari...*), kinoya, piching (*kelibdilar-da, yozmabdilar-ku...*) predmetning navi (*yog'lar, unlar, bug'doylar*) jamiik (*Buxorolar, Samarqandlar, Gulistonlar, Vashingtonlar...*) ma'nolarini ifodalash, kelishik qo'shimchalarini bir-biri bilan sinonimik munosabatga kirishishi (o'quvchilarning biri-o'quvchilardan biri, suvni ichdim-suvdan ichdim...), kelishik qo'shimchalarini ko'makchilar ko'makchi so'zlarni kelishik shakllari bilan almashtirishning mumkinligi (qalamda yozdim - qalam bilan yozdim, singlimga oldim - singlim uchun oldim, telefonda gaplashdim - telefon orqali gaplashdim) kabi nutq uchun o'ta muhim me'yorlardan ham xabardor bo'lishlari lozim.

O'quvchilarning so'z boyligini oshirish maqsadida shu so'z turkumiga oid bo'lgan o'yin-topshiriqlardan ham foydalanish mumkin. Masalan "O'z o'ringni top", O'yin mazmuni: 5-6 o'quvchi sinf oldiga chiqariladi va ularning qo'lga qo'shma so'zlarning bir o'zagi (masalan, *ko'k...., gul...., obod* kabi) tarqatiladi. Shu so'zlarning qolgan o'zaklari (masalan, *sulton,yo'tal,bichak,beor,ra'no, ...tojixo'roz, ...ko'rpa,tuvak,xayri,xona,chambar,qog'oz,g'uncha,dasta, Hamza...., Zafar...., mehnat...* kabi) sinf o'quvchilariga tarqatiladi. O'yinga kirgan har bir o'quvchi sinf oldiga chiqib, o'z o'mini aniqlaydi, qo'shma so'z hosil qiladi.

Govun, tarvuz, uzum, handalak, yong'och, pista, bodom, nok, olcha, piyoz, olma, tut, gilos, karam, shaftoli, o'rik, anjir, anor, loviya, olxo'ri, qaroli, kadi, terak, mosh, baqatarak, tol, qayrag'och, majruntol, chinor, kartoshka, sabzi, sarimsoq, jiyda.

2. Mevali va mevasiz daraxt nomlarining qanday xususiyati borligini tushuntiring, bu so'zlarga daraxt, yog'och so'zlarini qo'shib, so'z birikmalari hosil qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

2 – topshiriq . Meva va daraxt oti bo'lib kela oladigan so'zlar ishtirokida gaplar tuzing. So'z ma'nolarining farqlanishini tushuntiring.

3 - topshiriq . Uzum, qovun, olma, olcha, o'rik turlarini atovchi so'zlarni toping va uyadosh so'zlar qatori hosil qiling.

Namuna: o'rik - qandak, payvandi, xashaki, shirpayvand v.h.

4 – topshiriq . Matni o'qing. Uyadosh so'zlarni ajrating.

X A R S E B

Esimdan chiqmaydi... Hali-hali yoqimda. Otam katta, sersuv, taranglikdan yaltirab turgan olmadan bitta berdilar. Men xursand bo'lib: "Dadajon, bu qanaqa olma?" - deb so'radim.

- Bu olmani "Xarseb" deydilar, - javob berdilar dadam. Hafsalam pir bo'ldi. Chunki tojik tilida xarseb degani "eshak olma" degani...

Kunlardan bir kuni bozorga borganimda xushsoqol, ozoda kiyingan qariyaning chiroyli xarseblarni did bilan avaylab artib, oldidagi uyumga qo'yayotganini ko'rdim. Yonida xaridor yo'qligidan foydalanib:

- Otajon, bu olmalarni qanaqa olma deydilar? - deb so'radim.

- O'g'lim - xursand bo'lib so'z boshladi qariya, - bu olma bizda bitadigan olmalar ichida eng katta, eng sersuv, tarang va qurtlamaydigan xili. Hamma olmalardan kech pishadi. Kelgusi olma pishig'igacha suvi va tarangligini, nordon ta'mini saqlaydi. Bobolarimiz buni "xarseb" deydilar. "Xar" bu qadimgi tilda "katta", "kuchli", "zo'r" degani, "seb" esa tojikcha "olma" demakdir.

Xarseb qadimgi tilda "katta olma", "zo'r olma" degani.

Chehram yorishdi, xursand bo'ldim. "Xarseb" juda chiroyli, ismi jismiga mos nom ekan.

Olmaning navlari, turlari ko'p, - so'zlarini davom ettirdilar otaxon...

Dumchaborak, mahtobi, javpazak, antonovka, semirinka, aport, qizilcha kabi navlarini, uzumning husayni, shibirg'oni, kelinbarmoq, toifi, xalili,

1 - topshiriq. 1. Soʻzlarni oʻqing. Ularni "poliz ekinlari", "mevalar", "daraxtlar" kabi uyalarga ajrating: guruhlarni mustaqil davom ettiring.

Qovun, tarvuz, uzum, handalak, yongʻoq, pista, bodom, nok, olcha, piyoz, olma, tut, gilos, karam, shaftoli, oʻrik, anjir, anor, loviya, olxoʻri, qaroli, kadi, terak, mosh, baqaterak, tol, qayragʻoch, majnuntol, chinor, kartoshka, sabzi, sarimsoq, jiyda.

2. Mevali va mevasiz daraxt nomlarining qanday xususiyati borligini tushuntiring, bu soʻzlarga daraxt, yogʻoch soʻzlarini qoʻshib, soʻz brikmalari hosil qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

2 – topshiriq . Meva va daraxt oti boʻlib kela oladigan soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing. Soʻz maʼnolarining farqlanishini tushuntiring.

3 - topshiriq . Uzum, qovun, olma, olcha, oʻrik turlarini atovchi soʻzlarni toping va uyadosh soʻzlar qatori hosil qiling.

Namuna: oʻrik - qandak, payvandi, xashaki, shirpayvand v.h.

4 – topshiriq . Matnni oʻqing. Uyadosh soʻzlarni ajrating.

X A R S E B

Esimdan chiqmaydi... Hali-hali yodimda. Otam katta, sersuv, taranglikdan yaltirab turgan olmadan bitta berdilar. Men xursand boʻlib: "Dadajon, bu qanaqa olma?" - deb soʻradim.

- Bu olmani "Xarseb" deyдилar, - javob berdilar dadam. Hafsalam pir boʻldi. Chunki tojik tilida xarseb degani "eshak olma" degani...

Kunlardan bir kuni bozorga borganimda xushsoqol, ozoda kiyingan qariyaning chiroyli xarseblarni did bilan avaylab artib, oldidagi uyumga qoʻyayotganini koʻrdim. Yonida xaridor yoʻqligidan foydalanib:

- Otajon, bu olmalarni qanaqa olma deyдилar? - deb soʻradim.

- Oʻgʻlim - xursand boʻlib soʻz boshladi qariya, - bu olma bizda bitadigan olmalar ichida eng katta, eng sersuv, tarang va qurtlamaydigan xili. Hamma olmalardan kech pishadi. Kelgusi olma pishigʻigacha suvi va tarangligini, nordon taʼmini saqlaydi. Bobolarimiz buni "xarseb" deyдилar. "Xar" bu qadimgi tilda "katta", "kuchli", "zoʻr" degani, "seb" esa tojikcha "olma" demakdir.

Xarseb qadimgi tilda "kalta olma", "zoʻr olma" degani.

Chehram yorishdi, xursand boʻldim. "Xarseb" juda chiroyli, ismi jismiga mos nom ekan.

Olmaning navlari, turlari koʻp, - soʻzlarini davom ettirdilar otaxon...

bolalarning soʻz boyligini oshirishda muhim imkoniyat sanaladi. Ayniqsa, ona tili mashgʻulotlarida sifat sinonimlar va sifat antonimlar ustida olib boriladigan ishlarning ahamiyati benihoya katta. Bu borada peshqadam ona tili oʻqituvchilari amaliyotida anchagina boy tajribalar toʻplangan. Masalan, Buxoro shahridagi 11-maktab oʻqituvchisi M.Mirakova oʻquvchilarga "Oʻzbek tili sinonimlarining izohli lugʻati" va "Oʻzbek tili antonimlarining izohli lugʻati"dan foydalanib, shunday soʻzlar roʻyxatini tuzishni tavsiya qilgan. Natijada har bir oʻquvchi darsdan keyin mustaqil ishlash orqali oʻrtacha 130-150 atrofida sifat sinonim uyalar va sifat-antonimlarni toʻplashga erishgan.


Sifat yasovchi qoʻshimchalar ustida ishlash ham bolalarning soʻz boyligini oshirish choralaridan biridir. "Nisbiy sifatlar" mavzusi oʻrganilayotganda -li (*rasmli, doʻppili, baxtli, aqlli, hushli...*); -dor (*jozibador, manfaatdor, daxldor...*); -ser (*sermeva, serfarzand, serunum...*); -ba (*baquvvat, badaviyat, bahaybat...*); -mand (*davlatmand, kasalmand, orzumand...*); -kor (*fidokor, tadbirkor, isyonkor...*); -siz (*asossiz, zararsiz, mehrsiz...*); -iy (*ilmiy, qiyosiy, dolmiy...*); -viy (*dunyoviy, zamonaviy, oilaviy...*); -k (-q, -gʻ), (*chirik, oʻlik, yirtiq...*); -kin (-gʻin), (*joʻshqin, soʻlgʻin...*); -namo (*majnunamo, suratnamo*); -parvar (*adolatparvar, xalqparvar...*); -xush (*xushtabiat, xushmuomala, xushfeʻl...*) kabi qoʻshimcha yordamida sifatlar hosil qilish, hosil qilingan sifatning maʼnodoshlari va qarama-qarshi maʼnolarini topish, ularning qaysi soʻz turkumidan yasalganligini aniqlash kabi amaliy ishlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

"Sifat" soʻz turkumining oʻquvchilar oʻrganadigan muhim xususiyatlaridan yana biri sifat darajalaridir. Bu mavzuni oʻrganish jarayonida oddiy, qiyosiy, orttirma darajadagi sifatlar roʻyxatini tuzish, ularning maʼnosini qiyoslash, shu darajalarni hosil qiluvchi qoʻshimchalarning oʻzaro sinonimik munosabatga kirishishi kabi ijodiy-amaliy ishlardan foydalansa boʻladi. Ayniqsa, berilgan gaplarda yoki matnda **-rog** qoʻshimchasini shunga yaqin maʼno anglatuvchi -ish, -mtir, -imtir, (-imtil) qoʻshimchalari, bir oz soʻzi bilan almashtirish (masalan, *qoraroq-qoramtir, qizilroq-qizgʻish, yaxshiroq-bir oz yaxshi* v.h.), orttirma daraja, hosil qilgan maʼlum bir vosita (masalan, eng) oʻrinda shu maʼnoni beruvchi beshta vosita (masalan, *juda, gʻoyat, nihoyat, behad, cheksiz, gʻoyatda, nihoyatda*) qoʻllash, sifat yasovchi qoʻshimchalarni uning sinonimlari bilan almashtirish (masalan, -li, ba-), *mazali - bemaza, haybatli-bahaybat, -digan, yoqimli-yoqadigan, ajablanarli-ajablanadigan, li-lik, chiroyli-chiroylik, sezilarli-sezilarlik, -li -dor, -kor,*

kuchsiz, bequvvat, kamquvvat, zaif, nimjon, ojiz v.h.) kabi amaliy ishlar bolalarning soʻz boyligini oshirishda muhim imkoniyat sanaladi. Ayniqsa, ona tili mashgʻulotlarida sifat sinonimlar va sifat antonimlar ustida olib boriladigan ishlarning ahamiyati benihoya katta. Bu borada peshqadam ona tili oʻqituvchilari amaliyotida anchagina boy tajribalar toʻplangan. Masalan, Buxoro shahridagi 11-maktab oʻqituvchisi M.Mirakova oʻquvchilarga "Oʻzbek tili sinonimlarining izohli lugʻati" va "Oʻzbek tili antonimlarining izohli lugʻati"dan foydalanib, shunday soʻzlar roʻyxatini tuzishni tavsiya qilgan. Natijada har bir oʻquvchi darsdan keyin mustaqil ishlash orqali oʻrtacha 130-150 atrofida sifat sinonim uyalar va sifat-antonimlarni toʻplashga erishgan.

Sifat yasovchi qoʻshimchalar ustida ishlash ham bolalarning soʻz boyligini oshirish choralaridan biridir. "Nisbiy sifatlar" mavzusi oʻrganilayotganda -li (*rasmli, doʻppili, baxtli, aqlli, hushli...*); -dor (*jozibador, manfaatdor, daxldor ...*); -ser (*sermeva, serfarzand, serunum ...*); -ba (*baquvvat, badavlat, bahaybat ...*); -mand (*davlatmand, kasaimand, orzumand ...*); -kor (*fidokor, tadbirkor, isyonkor ...*); -siz (*asossiz, zararsiz, mehrsiz ...*); -iy (*ilmiy, qiyosiy, doimiy ...*); -viy (*dunyoviy, zamonaviy, oilaviy ...*); -k (-q, -gʻ), (*chirik, oʻlik, yirtiq...*); -kin (-gʻin), (*joʻshqin, soʻlgʻin...*); -namo (*majnunnamo, suratnamo*); -parvar (*adolatparvar, xalqparvar...*); -xush (*xushtabiat, xushmuomala, xushfeʼl ...*) kabi qoʻshimcha yordamida sifatlar hosil qilish, hosil qilingan sifatning maʼnodoshlari va qarama-qarshi maʼnolarini topish, ularning qaysi soʻz turkumidan yasalganligini aniqlash kabi amaliy ishlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

"Sifat" soʻz turkumining oʻquvchilar oʻrganadigan muhim xususiyatlaridan yana biri sifat darajalaridir. Bu mavzuni oʻrganish jarayonida oddiy, qiyosiy, ortirma darajadagi sifatlar roʻyxatini tuzish, ularning maʼnosini qiyoslash, shu darajalarni hosil qiluvchi qoʻshimchalarning oʻzaro sinonimlik munosabatiga kirishishi kabi ijodiy-amaliy ishlardan foydalansa boʻladi. Ayniqsa, berilgan gaplarda yoki matnda rog qoʻshimchasini shunga yaqin maʼno anglatuvchi -ish, -mtir, -imtir, (-imtil) qoʻshimchalari, bir oz soʻzi bilan almashtirish (masalan, *qoraroq-qoramtir, qizilrog-qizgʻish, yaxshiroq-bir oz yaxshi* v.h.), ortirma daraja, hosil qilgan maʼlum bir vosita (masalan, eng) oʻrinda shu maʼnoni beruvchi beshta vosita (masalan, *juda, gʻoyat, nihoyat, behad, cheksiz, gʻoyatda, nihoyatda*) qoʻllash, sifat yasovchi qoʻshimchalarni uning sinonimlari bilan almashtirish (masalan, -li, ba-), *mazali - bemaza, haybatli-bahaybat*, -digan, *yoqimli-yoqoʻcigan, ajablanarli-*



Xuddi shunday topshiriq o`quvchilar o`qigan hikoyalar, qissalar, kinofilmlar, ko`rilgan sahna asarlari asosida ham bajarilsa bo`ladi.


Ona tili mashg`ulotlarida bolalar nutqini qo`shma va juft sifatlar bilan boyitishga ham alohida e`tibor berish zarur. "Imlo lug`ati"dan qo`shma va juft sifatlar ajratib yozish, ma`lum bir qolip asosida hosil bo`lgan (Masalan, "Ot+ot", "Sifat+ot", "Ot+sifat") sifatlar ustida ishlash, berilgan so`zlar (masalan, *tinchliksevar*, *erksevar*, *tezpishar*...) ro`yxatini davom ettirish, ikkinchi qismi -aro bilan tugagan sifatlar (*xalqaro*, *millatlararo*, *davlatlararo*...)ni topib yozish, yozilgan juft sifatlar qarama-qarshi ma`noli so`zlar, uyadosh va ma`nodosh so`zlardan yasalgan juft sifatlar guruhiga ajratish, bu guruhlarni mustaqil davom ettirish, takroriy sifatlar ro`yxatini tuzish kabi ijodiy-amaliy ishlardan foydalanish bolalar lug`atini boyitishda muhim o`rin egallaydi.

Qo`shma va juft sifatlar ustida ishlash imlo bilan chambarchas bog`liqlikda amalga oshiriladi. Ayniqsa, ajratib va qo`shib yoziladigan qo`shma sifatlar, juft sifatlar chiziqcha bilan ajratish, ularning -u, -yu bilan bog`lanishi va chiziqchani tushib qolishi (masalan, *baland-past*, *balandu past*, *katta-kichik*, *kattayu kichik* v.h.) kabilarga alohida e`tibor berishga to`g`ri keladi.

"Sifat" so`z turkumini o`rganishda rang-barang o`yin-topshiriqlar ham bolalarning so`z boyligini oshirishga xizmat qiladi.

Bu o`yinlar sifatlar o`z o`rnida qo`llash, sifat-omonim va sifat-antonimlar topish, berilgan ot bilan bog`lanadigan sifatlar to`plash kabi masalalarga oid bo`lishi mumkin.

O`yin namunasi. "Oddiy, qiyosiy, ortirma daraja" o`yini. Sinf



Xuddi shunday topshiriq o`quvchilar o`qigan hikoyalar, qissalar, kinofilmlar, ko`rilgan sahna asarlari asosida ham bajarilsa bo`ladi.

Ona tili mashg`ulotlarida bolalar nutqini qo`shma va juft sifatlar bilan boyitishga ham alohida e`tibor berish zarur. "Imlo lug`ati"dan qo`shma va juft sifatlarni ajratib yozish, ma`lum bir qolip asosida hosil bo`lgan (Masalan, "Ot+ot", "Sifat+ot", "Ot+sifat") sifatlar ustida ishlash, berilgan so`zlar (masalan, *tinchliksevar*, *erksevar*, *tezpishar*...) ro`yxatini davom ettirish, ikkinchi qismi -aro bilan tugagan sifatlar (*xalqaro*, *millatlararo*, *davlatlararo*...)ni topib yozish, yozilgan juft sifatlarni qarama-qarshi ma`noli so`zlar, uyadosh va ma`nodosh so`zlardan yasalgan juft sifatlar guruhiga ajratish, bu guruhlarni mustaqil davom ettirish, takroriy sifatlar ro`yxatini tuzish kabi ijodiy-amaliy ishlardan foydalanish bolalar lug`atini boyitishda muhim o`rin egallaydi.

Qo`shma va juft sifatlar ustida ishlash imlo bilan chambarchas bog`liqlikda amalga oshiriladi. Ayniqsa, ajratib va qo`shib yoziladigan qo`shma sifatlar, juft sifatlarni chiziqcha bilan ajratish, ularning -u, -yu bilan bog`lanishi va chiziqchani tushib qolishi (masalan, *baland-past*, *balandu past*, *katta-kichik*, *kattayu kichik* v.h.) kabilarga alohida e`tibor berishga to`g`ri keladi.

"Sifat" so`z turkumini o`rganishda rang-barang o`yin-topshiriqlar ham bolalarning so`z boyligini oshirishga xizmat qiladi.

Bu o`yinlar sifatlarni o`z o`rnida qo`llash, sifat-omonim va sifat-antonimlar topish, berilgan ot bilan bog`lanadigan sifatlarni to`plash kabi masalalarga oid bo`lishi mumkin.

Hashamatii akademik litsey majmuasi foydalanishga topshirildi.

Shunday qilib, "Sifat" soʻz turkumini oʻtishda uning ichki maʼno guruhlari ustida ishlash, sifatlarni ishtirok etgan soʻz birkmalari hosil qilish, bu soʻz turkumiga oid materiallarni fonetika va stilistika bilan aloqadorlikda oʻrganish, sifat sinonimlar va sifat antonimlar ustida maxsus ish olib borish, har xil oʻyin-topshiriqlardan foydalanish kabilar bolalarning soʻz boyligini oshirish va nutqiy mahoratini rivojlantirishda hal qiluvchi oʻrin egallaydi.

S O N

"Son" soʻz turkumini oʻrganish jarayonida koʻzlanadigan amaliy maqsad-oʻquvchilarning tilimizda mavjud sonlarni bilish, ularni toʻgʻri yoza olish, nutqda toʻgʻri va oʻrinli qoʻllanishiga erishishdir.

Oʻquvchilar tez-tez takrorlanadigan mavjud sonlarning uncha koʻp emasligi va boshlangʻich hamda izchil kursga kirishda bu borada talaygina maʼlumotlar olganliklari tufayli ularni nutqda qoʻllashda uncha katta qiyinchiliklarga duch kelmaydilar. Shuning uchun izchil kursda bu soʻz turkumidan bolalar egallashi zarur boʻlgan bilimlar silsilasi uncha koʻp emas. Ular, asosan, oldin egallangan bilimlarni takrorlaydilar hamda sonning ichki maʼno guruhlari, qoʻshma va juft sonlar, ularning imlosiga oid zarur maʼlumotlarni mustahkamlaydilar.

"Son" soʻz turkumi yuzasidan boshlangʻich sinf va izchil kursga kirishdan egallangan bilimlarni takrorlash jarayonida oʻquvchilardan berilgan matnda qancha? nechta? nechanchi? soʻroqlariga javob boʻlgan soʻzlarni guruhlash, bu guruhlarni mustaqil davom ettirish, koʻp, oz kabi soʻzlar bilan bir, oʻn bir, beshinchi kabi soʻzlar orasidagi maʼno farqlarini aniqlash va izohlash talab etiladi.

Sonning maʼno guruhlarini oʻrganish natijasida bolalar, avvalo, bu soʻzlarni ikki guruhga: sanoq son va tartib sonlarga ajratishni oʻrganadilar. Soʻz ustida ishlashni chuqurlashtirish maqsadida sanoq sonning 1/miqdor son, 2/dona son, 3/chama son, 4/jamlovchi son, 5/taqsim son kabi turlariga alohida-alohida toʻxtalishga toʻgʻri keladi. Bu guruhlarni oʻrganish jarayonida ular berilgan soʻzlarni bir turdagi predmetning umumiy miqdorini anglatgan sonlar, *(toʻrt kishi, sakkiz yil, oʻn besh kun)*, bir xil predmetlarning yakalab, donalab sanaladigan umumiy miqdorini anglatgan sonlar *(uchta qalam, yigirmata qoramol, oʻttiz uchta sinf*

Dang'illama o'quvchilar saroyi qurilishi tugallandi
Hashamatli akademik litsey majmuasi foydalanishga
topshirildi.

Shunday qilib, "Sifat" so'z turkumini o'tishda uning ichki ma'no guruhlari ustida ishlash, sifatlar ishtirok etgan so'z birikmalari hosil qilish, bu so'z turkumiga oid materiallarni fonetika va stilistika bilan aloqadorlikda o'rganish, sifat sinonimlar va sifat antonimlar ustida maxsus ish olib borish, har xil o'yin-topshiriqlardan foydalanish kabilar bolalarning so'z boyligini oshirish va nutqiy mahoratini rivojlantirishda hal qiluvchi o'rin egallaydi.

S O N

"Son" so'z turkumini o'rganish jarayonida ko'zlanadigan amaliy maqsad-o'quvchilarning tilimizda mavjud sonlarni bilish, ularni to'g'ri yoza olish, nutqda to'g'ri va o'rinli qo'llanishiga erishishdir.

O'quvchilar tez-tez takrorlanadigan mavjud sonlarning uncha ko'p emasligi va boshlang'ich hamda izchil kursga kirishda bu borada talaygina ma'lumotlar olganliklari tufayli ularni nutqda qo'llashda uncha katta qiyinchiliklarga duch kelmaydilar. Shuning uchun izchil kursda bu so'z turkumidan bolalar egallashi zarur bo'lgan bilimlar silsilasi uncha ko'p emas. Ular, asosan, oldin egallangan bilimlarni takrorlaydilar hamda sonning ichki ma'no guruhlari, qo'shma va juft sonlar, ularning imlosiga oid zarur ma'lumotlarni mustahkamlaydilar.

"Son" so'z turkumi yuzasidan boshlang'ich sinf va izchil kursga kirishdan egallangan bilimlarni takrorlash jarayonida o'quvchilardan berilgan matnda qancha? nechta? nechanchi? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni guruhlash, bu guruhlarni mustaqil davom ettirish, ko'p, oz kabi so'zlar bilan bir, o'n bir, beshinchi kabi so'zlar orasidagi ma'no farqlarini aniqlash va izohlash talab etiladi.

Sonning ma'no guruhlari o'rganish natijasida bolalar, avvalo, bu so'zlarni ikki guruhga: sanoq son va tartib sonlarga ajratishni o'rganadilar. So'z ustida ishlashni chuqurlashtirish maqsadida sanoq sonning 1/miqdor son, 2/dona son, 3/chama son, 4/jamlovchi son, 5/taqsim son kabi turlariga alohida-alohida to'xtalishga to'g'ri keladi. Bu guruhlarni o'rganish jarayonida ular berilgan so'zlarni bir turdagi predmetning umumiy miqdorini anglatgan sonlar, (*to'rt kishi, sakkiz yil, o'n besh kun*), bir xil predmetlarning yakkalab, donalab sanaladigan umumiy miqdorini

guruhidagi soʻzlar hosil qilish, sonlar sinonimiyasi, ularning imlosi kabi muhim masalalarga bagʻishlanadi. Bu soʻz turkumini oʻrganishda, ayniqsa, "Litseyimiz tarixi", "Maktabimiz tarixi", "Qishlogʻimiz tarixi", "Xoʻjaligimiz tarixi" kabi mavzularda insholar yozdirish juda foydalidir.

F E L

"Fe'l" soʻz turkumini oʻrganishda ham oʻzbek tilining boshqa sathlari singari soʻz boyligi ustida ishlash imkoniyatlari benihoya katta. Avvalo, bu imkoniyatlar fe'l soʻz turkumidan oʻquvchilarga nimani oʻrgatish masalasi, yaʼni egallanishi lozim boʻlgan bilimlar silsilasi bilan bogʻliq. Maʼlumki, amaldagi dastur va darsliklarda oʻquvchilar eʼtibori koʻproq feʼlning grammatik xususiyatlari (*taʼrifi, soʻroqlari, boʻlishli, boʻlshsiz, zamon, shaxs-son, mayl, nisbat, harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh* kabi tushunchalar, ularni hosil qiluvchi vositalar v.h.)ga qaratiladi. Darsda foydalaniladigan topshiriqlar silsilasi ham, asosan, shularni oʻrgatishga boʻysundirilgan. Bu hol oʻz-oʻzidan ravshanki, mashgʻulotga ajratilgan vaqtning asosiy qismini nazariy materiallar egallab, bolalarning soʻz boyligini oshirish, nutqini rivojlantirish uning soyasida qolib ketishiga sabab boʻladi.

Maktab va litseylarda bu murakkab va hajm jihatdan katta soʻz turkumini oʻrganishdan koʻzlanadigan bosh maqsad - oʻquvchilarning soʻz xazinasini, avvalo, feʼllar bilan boyitish, nutqda ulardan toʻgʻri va oʻrinli foydalana bilish malakalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir.

Koʻzlangan maqsadga erishishning bosh omili, avvalo, oʻquvchilar uchun feʼlga oid zaruriy-foydali bilimlar hamda bu bilimlarga muvofiq keladigan koʻnikma va malakalar silsilasini aniqlab olishdir.

"Fe'l" soʻz turkumini oʻrganishda bolalarning soʻz boyligini oshirish omillaridan biri soʻz turkumining ichki maʼno guruhlariga eʼtiborni kuchaytirishdir.

Maʼlumki, amaldagi dastur va darsliklarda feʼlni maʼno guruhlariga ajratish koʻzda tutilgan emas. Ularda faqat predmetning harakatini bildirib, nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilmoqchi? kabi soʻroqlardan biriga javob boʻlgan soʻzlarning feʼl ekanligi qayd qilinadi. Ammo feʼllarning nafaqat harakatni, balki holatni ham ifodalab kela olishi maʼlum. Umuman, feʼllarni ifodalab keladigan maʼnolariga koʻra quyidagi toʻrt katta guruhga ajratish mumkin: 1/yurish-harakat, bir joydan ikkinchi joyga oʻtish feʼllari; 2/natijali faoliyat feʼllari; 3/nutq feʼllari; 4/holat feʼllari. Bu maʼno guruhlarining har biriga alohida-alohida toʻxtalish, shu soʻzlar ustida ishlash, bolalarning

guruhlari, ma'lum bir ma'no guruhidagi so'zlardan boshqa bir ma'no guruhidagi so'zlar hosil qilish, sonlar sinonimiyasi, ularning imlosi kabi muhim masalalarga bag'ishlanadi. Bu so'z turkumini o'rganishda, ayniqsa, "Litseyimiz tarixi", "Maktabimiz tarixi", "Qishlog'imiz tarixi", "Xo'jaligimiz tarixi" kabi mavzularda insholar yozdirish juda foydalidir.

F E' L

"Fe'l" so'z turkumini o'rganishda ham o'zbek tilining boshqa sathlari singari so'z boyligi ustida ishlash imkoniyatlari benihoya katta. Avvalo, bu imkoniyatlar fe'l so'z turkumidan o'quvchilarga nimani o'rgatish masalasi, ya'ni egallanishi lozim bo'lgan bilimlar silsilasi bilan bog'liq. Ma'lumki, amaldagi dastur va darsliklarda o'quvchilar e'tibori ko'proq fe'lning grammatik xususiyatlari (*ta'rifi, so'roqlari, bo'lishli, bo'lishsiz, zamon, shaxs-son, mayl, nisbat, harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh* kabi tushunchalar, ularni hosil qiluvchi vositalar v.h.)ga qaratiladi. Darsda foydalaniladigan topshiriqlar silsilasi ham, asosan, shularni o'rgatishga bo'ysundirilgan. Bu hol o'z-o'zidan ravshanki, mashg'ulotga ajratilgan vaqtning asosiy qismini nazariy materiallar egallab, bolalarning so'z boyligini oshirish, nutqini rivojlantirish uning soyasida qolib ketishiga sabab bo'ladi.

Maktab va litseylarda bu murakkab va hajm jihatdan katta so'z turkumini o'rganishdan ko'zlanadigan bosh maqsad - o'quvchilarning so'z xazinasini, avvalo, fe'liar bilan boyitish, nutqda ulardan to'g'ri va o'rinli foydalana bilish malakalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir.

Ko'zlangan maqsadga erishishning bosh omili, avvalo, o'quvchilar uchun fe'lga oid zaruriy-foydali bilimlar hamda bu bilimlarga muvofiq keladigan ko'nikma va malakalar silsilasini aniqlab olishdir.

"Fe'l" so'z turkumini o'rganishda bolalarning so'z boyligini oshirish omillaridan biri so'z turkumining ichki ma'no guruhlariga e'tiborni kuchaytirishdir.

Ma'lumki, amaldagi dastur va darsliklarda fe'lni ma'no guruhlariga ajratish ko'zda tutilgan emas. Ularda faqat predmetning harakatini bildirib, nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilmoqchi? kabi so'roqlardan biriga javob bo'lgan so'zlarning fe'l ekanligi qayd qilinadi. Ammo fe'llarning nafaqat harakatni, balki holatni ham ifodalab kela olishi ma'lum. Umuman, fe'llarni ifodalab keladigan ma'nolariga ko'ra quyidagi to'rt katta guruhga ajratish mumkin: 1/yurish-harakat, bir joydan ikkinchi joyga o'tish fe'llari; 2/natijali faoliyat fe'llari; 3/nutq fe'llari; 4/holat fe'llari. Bu ma'no guruhlarining har biriga alohida-alohida to'xtalish, shu so'zlar ustida ishlash, bolalarning

bilan almashtirish (masalan, *uxladi - uxlamađi, bordi- bormadi*); berilgan gaplar yoki matnda o'tgan zamon fe'larini hozirgi zamon yoki kelasi zamoni (va aksincha) fe'llari bilan almashtirib, ularni o'zgartirish, ko'chirma gapni sifatdosh va harakat nomi birikmali o'zlashtirma gapga aylantirish kabi ijodiy-amaliy ish turlari ancha qo'l keledi.

O'quvchilar so'z boyligini oshirishning yana bir muhim yo'li so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida so'zlar hosil qilishdir. Ma'lumki, o'zbek tilida fe'l yasovchi qo'shimchalar uncha ko'p bo'lmasa-da, ammo ular yordamida yasalgan fe'llar juda ko'p. Ayniqsa, -la (*boshla, tozala, yo'lia, randala* v.h.), -illa (*g'irilla, zing'illa, shang'illa* v.h.), -ay (*kengaytiray, boray, ko'ray, so'ray, bilay* v.h.), -lan (*ovqatlan, izlan, foydalan* v.h.), -lash (*aralash, suhbatlash, dardlash* v.h.), -sira (*suvsira, xavfsira, hadiksira* v.h.), -ik (*birik, kechik, zo'riq...* v.h.) kabi mahsuldor fe'l yasovchi qo'shimchalarni berib, ular yordamida yangi so'zlar hosil qildirish, qo'shimchadosh so'zlarni guruhlash kabi amaliy ishlar ham o'quvchilar nutqini fe'llar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Muayyan qolip asosida so'zlar hosil qilish ham bolalarning so'z boyligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, "ot+ -la", "sifat+ -ay", fe'l+ -sa edi (saydi)", "fe'l+ -sa kerak" (*tish-la, toray, uzsa edi, yozsa kerak* v.h.) shunday qoliplar sirasidandir.

O'quvchilar ma'nosi ko'pchilikka tushunarli bo'lmagan fe'llarning ma'nolari ustida ishlashlari, qo'shimcha qo'shilganda fe'l ma'nosida bo'ladigan o'zgarishlarni sharhlashlari, nutq sharoitidan kelib chiqib, fe'lni to'g'ri tanlay olishlari lozim. Masalan, fe'l nisbatlarini osonlikcha tushunishni ta'minlash maqsadida yuvdi, yuvindi, yuvildi, yuvishdi, yuvirdi so'zlaridagi -in, -il, -ish, -dir qo'shimchalari o'zaro qiyoslanadi va ma'noda bo'layotgan o'zgarish sharhlanadi.

O'quvchilarning so'z boyligini oshirish omillaridan yana biri fe'ning stilistik imkoniyatlarini ishga solishdir.

Fe'l zamonlari o'rganilar ekan, o'tgan, hozirgi va kelasi zamonlarni hosil qiluvchi vositalar sinonimiyasiga e'tiborni kuchaytirish lozim. Chunonchi, o'tgan zamon fe'lini hosil qiluvchi -gan edi shaklining -ib edi, -moqda edi, (-ar) edi, -guvchi edi shakllari bilan (masalan, *borgan edi, borib edi, bormoqda edi, borar edi* v.h.) hozirgi zamon fe'lini hosil qiluvchi -yotir qo'shimchasining -yap, -moqda qo'shimchalari bilan (masalan, *vozayotirsan, vozayapsan, vozmoqdasan; o'qiyapsan, o'qiyotirman, o'qimoqdaman* v.h.) kelasi zamon fe'lini hosil qiluvchi -ajak (-yajak), qo'shimchasining -moqchi, -digan qo'shimchasi bilan (masalan, *vozajakman, vozmoqchiman, borajaksan,*

tanishtirayotgan hozirgi zamon ko'rsatkichining o'tgan zamon yoki kelasi zamon ma'nosida, o'tgan zamon fe'lining o'tgan zamon ma'nosida, hozirgi-kelasi zamon fe'lining o'tgan zamon ma'nosida kelishiga oid amaliy ishlardan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, nutqda grammatik ko'rsatkichlarning ko'chma qo'llanishi muayyan uslubiy vazifani bajaradi va qo'shma ma'nolar ifodalaydi. Masalan, tasviriy bo'yoq: ifodalilik, hodisalarni "jonli" tasvirlash, hissiy bo'yoq: piching, kinoya, g'azablanish, hurmat, kamsitish, mensimaslik, kutilmaganlik, hayronlik, taxmin, ishonchsizlik, qat'iylik kabi ma'nolar grammatik kategoriyalarni ko'chma ma'noda qo'llash natijasida anglashiladi.

"Fe'l" so'z turkumini o'rganishda o'quvchilarning so'z boyligini oshirish maqsadida o'yin-topshiriqlardan ham samarali foydalanish mumkin. Masalan, o'quvchilar nutqini fe'l-sinonimlar bilan boyitishga xizmat qiladigan qo'yidagi o'yinlardan foydalansa bo'ladi.

"Topqirlar" o'yini.

O'yinning mazmuni: sinf o'quvchilari 2 yoki 3 guruhga bo'linadi: o'yinni boshlab boruvchi guruh fe'llardan sinonimik qator hosil qilish mumkin bo'lgan ma'lum bir so'zni aytadi. Qolgan guruhlar aytilgan so'zga ma'nodoshlar topib, uni davom ettiradilar. (Masalan, *ag'anadi - yumaladi - dumaladi; bahslashdi - tortishdi - munozaralashdi; tanovul qildi - iste'mol qildi - totdi; mo'ljalladi - mo'ljal qildi - ko'zladi, - chog'ladi - chamaladi - cho'ladadi - taxmin qildi* kabi).

"Kesimni tikla" o'yini.

O'yinning mazmuni: O'qituvchi yoki sinf o'quvchilarining ma'lum bir guruhi gap tuzib, kesimni tushirib qoldiradi. O'yinga kirgan boshqa o'quvchilar tushirilgan so'zni, uning ma'nodoshlarini topib, kesimni tiklaydilar. (Masalan, *Rahimjon sezgirlik bilan oyoq tovushlarini ... (payqadi, sezdi, faqmladi), Manzura onasining yuziga uzoq ... (qarab qoldi, termildi, tikildi, koqdi, nigoh tashladi)*).

"Fe'l yasash" o'yini.

Bu o'yin orqali bolalar boshqa so'z turkumlaridan fe'l yasovchi qo'shimchalar yordamida fe'l yasaydilar:

Masalan, "ot + -la = fe'l"

ko'z - ko'zla

joy - joyla

tuz - tuzla

boy - boyla

iz - izla

kuy - kuyla

ko`z - ko`zla	tuz - tuzla	iz - izla
joy - joyla	boy - boyla	kuy - kuyla
soz - sozla...	bo`z - bo`zla...	tish - tishla...

Eng ko`p so`z topgan o`quvchi o`yin g`olibi bo`ladi.

"Qofiyalash" o`yini. Bir o`quvchi fe'l turkumiga oid so`z aytadi, qolganlari shu so`zga qofiyadosh so`zlar topadilar. Eng ko`p so`z topgan o`quvchi g`olib sanaladi.

Masalan, o`yladi - so`yladi, bo`yladi, kuyladi, boyladi, joyladi, moyladi, poyladi, siyladi, qiymadi, qo`ymadi, to`ymadi, suymadi, v.h.

Shunday qilib, fe'l so`z turkumini o`rganishda bu turkumga mansub so`zlarning ichki ma`no guruhlari ustida ishlash, o`quvchilarga tushunarli bo`lmagan fe'llarning lug`aviy ma`nolarini sharhlash, bunday so`zlar yordamida gaplar qurish, berilgan fe'llarga ma`nodosh va qarama-qarshi ma`noli so`zlar topish, fe'ning stilistik imkoniyatlaridan nutqda foydalanishga oid ijodiy-amaliy ishlar bolalarning so`z boyligini oshirish va nutq jarayonida so`zdan to`g`ri hamda o`rinli foydalanish malakalarini kengaytiradi.

RAVISH

Ravish tilshunoslikda ziddiyatli talqinga ega. Birinchidan, "Mardona yigit mardona gapiradi", "Yaxshi qiz yaxshi o`qiydi", kabi birikmalarda mardona so`zini hali ravish va hali sifat deb ataydigan, ziddiyatli ta`rifdan cheklanish va ravishlar doirasini **hech qanday so`z o`zgartiruvchi qo`shimchalarni qabul qilmaydigan so`zlar** deb chegaralash lozim.

Ravish turkumini o`rganishda so`z boyligini oshirish bo`yicha ishlar uch yo`nalishda olib boriladi.

1. Ravishlarning payt, o`rin, holat, tarz kabi ma`no guruhlari o`rganish jarayonida ular ro`yxatini berish va shu so`zlarni mustaqil davom ettirish (chunonchi, payt ravishlari: endi, avval, so`ngra, keyin, hozir v.h.), o`rin ravishlari (bu yer, u yer, oldin, keyin, orqa, yon v.h.), daraja-miqdor ravishlar (ancha, picha, bir oz, jinday v.h.), holat ravishlari (keskin, erkin, bosiq, vazmin, qat`iy v.h.);

2. Berilgan ravishlarga ma`nodoshlar, uyadoshlar va zid ma`noli so`zlar tanlash (arang-zo`rg`a; zo`rg`a-oston v.h.);

Masalan, "ot + -la = fe'l"

ko`z - ko`zla

joy - joyla

soz - sozla...

tuz - tuzla

boy - boyla

bo`z - bo`zla...

iz - izla

kuy - kuyla

tish - tishla...

Eng ko`p so`z topgan o`quvchi o`yin g`olibi bo`ladi.

"Qofiyalash" o`yini. Bir o`quvchi fe'l turkumiga oid so`z aytadi, qolganlari shu so`zga qofiyadosh so`zlar topadilar. Eng ko`p so`z topgan o`quvchi g`olib sanaladi.

Masalan, o`yladi - so`yladi, bo`yladi, kuyiadi, boyladi, joyladi, moyladi, poyladi, siyladi, qiymadi, qo`ymadi, to`ymadi, suymadi, v.h.

Shunday qilib, fe`l so`z turkumini o`rganishda bu turkumga mansub so`zlarning ichki ma`no guruhlari ustida ishlash, o`quvchilarga tushunarli bo`lmagan fe`llarning lug`aviy ma`nolarini sharhlash, bunday so`zlar yordamida gaplar qurish, berilgan fe`llarga ma`nodosh va qarama-qarshi ma`noli so`zlar topish, fe`lning stilistik imkoniyatlaridan nutqda foydalanishga oid ijodiy-amaliy ishlar bolalarning so`z boyligini oshirish va nutq jarayonida so`zdan to`g`ri hamda o`rinli foydalanish malakalarini kengaytiradi.

RAVISH

Ravish tilshunoslikda ziddiyatli talqinga ega. Birinchidan, "Mardona yigit mardona gapiradi", "Yaxshi qiz yaxshi o`qiydi", kabi birikmalarda mardona so`zini hali ravish va hali sifat deb ataydigan, ziddiyatli ta`rifdan cheklanish va ravishlar doirasini hech qanday so`z o`zgartiruvchi qo`shimchalarni qabul qilmaydigan so`zlar deb chegaralash lozim.

Ravish turkumini o`rganishda so`z boyligini oshirish bo`yicha ishlar uch yo`nalishda olib boriladi.

1. Ravishlarning payt, o`rin, holat, tarz kabi ma`no guruhlarini o`rganish jarayonida ular ro`yxatini berish va shu so`zlarni mustaqil davom ettirish (chunonchi, payt ravishlari: endi, avval, so`ngra, keyin, hozir v.h.), o`rin ravishlari (bu yer, u yer, oldin, keyin, orqa, yon v.h.), daraja-miqdor ravishlar (ancha, picha, bir oz, jinday v.h.), holat ravishlari (keskin, erkin, bosiq, vazmin, qat`iy v.h.);

2. Berilgan ravishlarga ma`nodoshlar, uyadoshlar va zid ma`noli so`zlar

ravishlarni topib qo'yib, so'z birikmalari hosil qiladilar.

Berilgan so'zga ravish sinonimlar topib qo'yish ham mumkin. Masalan, keldi, so'zini darrov, darhol, tezda, birpasda, bir zumda, bir lahzada, bir zumda kabi sinonimlar bilan bog'lab birikmalar hosil qilsa bo'ladi.

Mazkur so'z turkumini o'rganishda ajratib va qo'shib yoziladigan qo'shma ravishlar hamda juft ravishlar imlosiga alohida e'tibor berishga to'g'ri keladi. Bu so'zlarni alohida-alohida guruhlariga ajratish, har bir guruhni mustaqil davom ettirish kabi amaliy ishlar o'quvchilarning imlo savodxonligini oshirish va nutqiy taraqqiyotini ta'minlash uchun o'ta muhimdir.

O'qituvchi bolalarning so'z boyligini oshirish maqsadida boshqa so'z turkumlarini o'tishda qo'llanilgandek har xil qiziqarli o'yin-topshiriqlarni ham ishga solishi mumkin. Masalan, "Men holat ravishiman", "Men payt ravishiman", "Men o'rin ravishiman", "Men daraja-miqdor ravishiman" singari topshiriqlar shular jumlasidandir. O'yinni tashkil etish uchun o'quvchilarga so'zlar tarqatiladi. O'qituvchi ravishning qaysi bir ma'no turini aytsa, o'sha guruhga kiruvchi so'zni oigan o'quvchilargina o'rinlaridan turadilar. So'zlarning ma'no guruhini to'g'ri belgilagan o'quvchilar o'yin g'olibi sanaladi.

1-topshiriq. Gapni o'qing. Ajratilgan so'z-ravishning uyadoshlarini toping.

Buvim sekin so'zlardilar.
sokin
asta
ohista
mayin
muloyim
jilmayib
erkalatib
har bir so'zga urg'u berib
chertib-chertib
topib-topib...

2-topshiriq. O'zingizga yoqqan so'zni tanlab, yangi badiiy bo'yoqli gap quring. Jumlada avvalgi ma'no saqlansin.

Buvijonim mayin ovozda muloyim so'zlar, yosh qalbmiz ertakning sehrli og'ushida, nurafshon tuyg'ularga to'lib-toshib borayotganligini sezib sevinar, yayrar edilar.

Xullas, "Ravish" so'z turkumini o'rganishda bolalarning so'z boyligini oshirish imkoniyatlari benihoya ko'p. O'qituvchi o'rganilayotgan o'quv

fidokorona, qahramonlarcha, alpomishchasiga, rustam-chasiga kabi ravishlarni topib qo'yib, so'z birikmalari hosil qiladilar.

Berilgan so'zga ravish sinonimlar topib qo'yish ham mumkin. Masalan, keldi, so'zini darrov, darhol, tezda, birpasda, bir zumda, bir lahzada, bir zumda kabi sinonimlar bilan bog'lab birikmalar hosil qilsa bo'ladi.

Mazkur so'z turkumini o'rganishda ajratib va qo'shib yoziladigan qo'shma ravishlar hamda juft ravishlar imlosiga alohida e'tibor berishga to'g'ri keladi. Bu so'zlarni alohida-alohida guruhlariga ajratish, har bir guruhni mustaqil davom ettirish kabi amaliy ishlar o'quvchilarning imlo savodxonligini oshirish va nutqiy taraqqiyotini ta'minlash uchun o'ta muhimdir.

O'qituvchi bolalarning so'z boyligini oshirish maqsadida boshqa so'z turkumlarini o'tishda qo'llanilgandek har xil qiziqarli o'yin-topshiriqlarni ham ishga solishi mumkin. Masalan, "Men holat ravishiman", "Men payt ravishiman", "Men o'rin ravishiman", "Men daraja-miqdor ravishiman" singari topshiriqlar shular jumlasidandir. O'yinni tashkil etish uchun o'quvchilarga so'zlar tarqatiladi. O'qituvchi ravishning qaysi bir ma'no turini aytsa, o'sha guruhga kiruvchi so'zni olgan o'quvchilargina o'rinlaridan turadilar. So'zlarning ma'no guruhini to'g'ri belgilagan o'quvchilar o'yin g'olibi sanaladi.

1-topshiriq. Gapni o'qing. Ajratilgan so'z-ravishning uyadoshlarini toping.

Buvim sekin so'zlardilar.

sokin

asta

ohista

mayin

muloyim

jilmayib

erkala'ib

har bir so'zga urg'u berib

chertib-chertib

topib-topib...

2-topshiriq. O'zingizga yoqqan so'zni tanlab, yangi badiiy bo'yochi gap quring. Jumlada avvalgi ma'no saqlansin.

Buvijonim mayin ovozda muloyim so'zlar, yosh qalbimiz ertakning sehrli og'ushida, nurafshon tuyg'ularga to'lib-toshib borayotganligini sezib sevinar, yayrar edilar.

Xullas, "Ravish" so'z turkumini o'rganishda bolalarning so'z boyligini

ettirish, ular yordamida gaplar tuzish, soʻroq olmoshlarini nisbiy soʻzlar sifatida ishlatib, gaplar hosil qilish (masalan, *Kim mehnat qilsa, u rohat koʻradi. Nimani eksang, shuni oʻlasan* v.h.) kabi amaliy ishlar uning puxta oʻzlashtirilishini taʼminlaydigan asosiy omillardir.

Soʻroq olmoshlarini oʻrganishda -ni soʻroq yuklamasining soʻroq olmoshli gaplarda taʼkid, qayta soʻrashi maʼnolarida ishlatilishi hamda ularda tinish belgilar xususida ham toʻxtalish maqsadga muvofiqdir.

Olmoshning yana bir maʼno guruhi-belgilash. Oʻquvchilar berilgan matndan shunday, shunaqa, muncha, shuncha soʻzlarida ifodalangan maʼnoni, qanday soʻzlarga ishora qilib kelayotganligini aniqlash, bunday olmoshlar roʻyxatini tuzish, ular ishtirokida matn yaratish orqali bu haqda puxta bilimga ega boʻladilar.

Tilimizda jamlash olmoshlari uncha koʻp emas. Oʻquvchilar *hamma, barcha, bari, jami, birga, butun, yaʼni* soʻzlarining maʼno va vazifasi ustida ishlash, bu soʻzlar yordamida gaplar tuzish orqali ularni oʻzlarining lugʻatlariga olib kiradilar.

Oʻquvchilar lugʻatiga belgilash, boʻlishsizlik va gumon olmoshlarini olib kirish, bu soʻzlarning nutqiy faoliyatda qoʻllanishini taʼminlash uchun soʻroq olmoshlarini *har, hech va alla* - soʻzlari bilan birlashtirib, qoʻshma soʻzlar hosil qilish; *hech kim, hech nima, hech bir, hech narsa, har bir, har narsa, allakim, allanima, allaqanday, allamahol, allaqachon, allavaqt, nimanidir, kimningdir, qayerdadir, qayoqqadir, qachondir* kabi soʻzlarning maʼnolari va qoʻllanishi ustida ishlash, "har+ot", "hech+ot", "al-la+ot" singari hosilalar lugʻatini tuzish kabi amaliy ishlardan unumli foydalanishga toʻgʻri keladi.

Harakat olmoshlari ham mazkur soʻz turkumining maʼno guruhlaridan birini tashkil etadi. Bunday olmoshlarni oʻquvchilarning nutqiy faoliyatiga olib kirish uchun shunday qilmoq, shunday demoq singari soʻzlarning maʼnolari va qoʻllanishi ustida ishlash, ular yordamida gaplar qurish zarur.

Olmoshlarning maʼno guruhlarini haqida toʻxtalar ekanmiz, bu soʻz turkumining stilistik imkoniyatlarini ham unutmaslik lozim. Chunonchi, odatda, kishilik olmoshlari *men, sen, yakka shaxslarni koʻrsatish* uchun xizmat qiladi. Shuning uchun bu olmoshlar -lar qoʻshimchasi bilan qoʻllanilmaydi. Ammo soʻzlovchi nutqi qaratilgan shaxsga humatsizlik bilan muomala qilganda, undan oʻzini yuqori tutganda baʼzan sen olmoshi -lar qoʻshimchasi bilan ishlatiladi. (mas., *Senlar kimsanlar? Senlarga maktab tashvishi begonami?* kabi). Oʻquvchilar kishilik olmoshlari bilan tanishtirilgan ekan, uning bu xususiyatlariga ham toʻxtalishga toʻgʻri keladi.

Soʻroq olmoshi oʻrganilayotganda, uning turli xil koʻrinishlari (*kim, nima,*

Soʻroq olishi oʻrganilayotganda, uning turli xil koʻrinishlari (*kim, nima, qancha, qanday, qaysi, qancha, necha, qayer, qachon* kabi) oʻzaro sinonim sifatida ishlatilishga oid amaliy mashqlardan foydalanish oʻrinlidir. Ayniqsa, berilgan gaplarda yoki matnda osti chizilgan olmoshlarni uning maʼnodoshi bilan almashtirish (mas., *Sinfdochim Zilolaxon sizning kimingiz boʻladi?, Sinfdo-shim Zilolaxon sizning nimangiz boʻladi? Sen qaysi badiiy asarni oʻqib chiqding? Sen qanday badiiy asarni oʻqib chiqding?*) samarali ish usullaridan biridir.

Sinonimlar mavjud olmoshlarni alohida roʻyxat qilish ham (mas., *hammasi - jami, barcha, bari; allakim, kimdir, allanima, nimadir, allaqanday, qandaydir* kabi) oʻquvchilarning nutqiy taraqqiyotini taʼminlash uchun nihoyatda zarurdir.

Mazkur soʻz turkumining stilistik imkoniyatlariga oid amaliy ishlarning muayyan qismi ayrim olmoshlarning nutqda juftlanib yoki takrorlanib qoʻllanishga oid boʻlishi kerak. Berilgan juft yoki takroriy olmoshlarni (mas., *shu-shu, oʻsha-oʻsha, u-bu, uni-buni, unga-bunga, uncha-muncha, kim-kim, nima-nima, necha-necha* v.h.) qatnashtirib gaplar hosil qilish, ularning maʼnosini sharhlashga oid amaliy topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.

Olmosh soʻz turkumini oʻrgatishda oʻqituvchi har xil oʻyinlar ham tashkil etishi mumkin. Masalan, oʻquvchilarning nutqiy va fikriy taraqqiyotini koʻzlab, olmoshning maʼno guruhlari oʻrganilgandan keyin uni mustahkamlash maqsadida "ljodkor" oʻyin-topshi-rigʻidan foydalansa boʻladi.

Oʻyin topshiriqning mazmuni: oʻquvchilar 2 guruhga ajratiladi. Birinchi guruh egasi ot bilan ifodalangan gaplarga misollar keltiradi. Ikkinchi guruh esa, shu gaplardagi egani olmosh bilan almashirib, uni davom ettiradilar.

Namuna:

1-guruh
Paxtalar qiygʻos ochildi.

Zangori kemalar terimga
shay qilib qoʻyilgan.

Nodirning ogʻzi qulo-gʻida.

2-guruh
Uni yigʻib-terib olish uchun puxta
hozirlik koʻrilmoqda.

Har bir mexanizator oʻz zimmasiga
olgan majburiyatini bajarishga tayyor.

U bokschilarning shahar musobaqasida
gʻolib boʻldi.

ustida ishlash (berilgan soʻzlarni maʼnolariga qarab guruhlash, har bir maʼno guruhidagi soʻzlar lugʼatini tuzish, ularning maʼnosini sharhlash v. h.) berilgan matni tahrir qilib, undagi takroriy soʻzlarni olmosh bilan almashtirish, berilgan olmoshlarni ularning maʼnodoshlari bilan almashtirish, topshiriqlarning qiziqarli va rang-barangligiga erishish bolalarning soʻz boyligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

TAQLIDIY SOʻZLAR VA UNDOVLAR

Tilimizda mustaqil soʻz turkumlariga ham yordamchi soʻz turkumlariga ham kirmaydigan talaygina taqlidiy soʻzlar va undovlar boʻlib oʻquvchilarni bu soʻzlar olamiga olib kirish ularning nutqiy taraqqiyotida muhim oʻrin egallaydi.

Maʼlumki, taqlidiy soʻzlar maʼno jihatidan 2 guruhga boʻlinadi:

a) tovushga taqlid bildiradigan soʻzlar; b) holatga taqlid bildiruvchi soʻzlar.

Oʻquvchilar lugʼatini tovushga taqlid bildiradigan soʻzlar bilan boyitish maqsadida berilgan soʻzlarni (mas., *inga-inga, gumbur-gumbur, pix-pix, be-be, qa-qa-qa, vish-vish, vaq-vaq, miyov-miyov, uv-vov, pildir-pildir* v.h.) inson tovushiga taqlid soʻzlar, hayvon, qush, hasharotlar chiqaradigan tovushga taqlid soʻzlar, tabiat hodisalari chiqargan tovushlarga taqlid soʻzlarga ajratish va bu soʻzlar guruhini mustaqil davom ettirish, tovushga taqlid soʻzlarni toʻliq takrorlangan (mas., *gumbur-gumbur*) va tovushlar takrori (mas., *taq-tuq*) kabi guruhlariga ajratish, ular yordamida gaplar qurish, matn yaratish, taqlid soʻzlarda maʼnoning torayishi (*shiq-shiqa*) (*shaq-shaqa, tar-tarak* v.h.) ularning qoʻllanishi va imlosi ustida ishlashga oid amaliy ishlardan foydalanish mumkin.

Holatga taqlid soʻzlar ustida ishlashda ham xuddi shunga oʻxshash ish usullaridan (mas., holatga taqlid soʻzlar roʻyxatini tuzish, berilgan soʻzlarning uyadoshlarini topish, gaplar qurish, matn yaratish v.h.) foydalansa boʻladi.

Undovlarni oʻrganishda ham, ularning maʼno guruhlarini ustida ishlash bolalarning soʻz boyligini oshirishda muhim manba sanaladi. Berilgan undovlarni maʼno jihatdan his-hayajon, undovlari (mas., *oh, eh, uh, o, e, voy, ura, ofarin, rahmat, hormang, balli, hay-hay, bay-bay, xoʻsh* v.h.) va haydash-chaqirish undovlari (*kisht, chuh, beh-beh, qurey-qurey, tu-tu, gah* v.h.)ga ajratish bu har ikkala roʻyxatni mustaqil davom ettirish, ularni yakka holda, juft holda, yoki tarorlab qoʻllanilganligini aniqlash va imlosini sharhlash, har bir undov soʻzning maʼno nozikligi ustida ishlash, ular yordamida gaplar tuzish yoki matn yaratish, (*oh-vohlari, dodiga yet,*

ular yordamida gaplar tuzish yoki matn yaratish, (*oh-voh'ari, doctiga yet, voy-voylari* singari) ma'nosi toraygan undovlarning nutqda qo'llanilishi ustida ishlash kabi amaliy ishlar o'quvchilarning so'z boyligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, badiiy asarlar ustida bolalarning mustaqil ishlashini tashkil etish, bu asarlardan undovli gaplarga misollar topdirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu mavzuni o'rganishda xalqimizning asriy urf-odatlar va minnatdorchilikni ifodalovchi *hormang, bor bo'ling, rahmat, tashakkur, barakalla, ofarin, balli* kabi undov so'zlarni o'quvchilarning nutqiy faoliyatiga olib kirishga alohida e'tibor berish lozim.

Taqildiy so'zlar va undovlarni o'rganishda o'quvchilar o'rtasida she'riy musobaqa tashkil etsa ham bo'ladi. Masalan, shunday so'zlar ishtirok etgan she'riy misralarga misollar keltirilishi mumkin.

Chunonchi:

**Olisdan jangur-jungur,
Yaqindan oddiy temir.**
(Z.Diyor)

**Ajoyibdur oq laylak,
Nog'ora chalar tak-tak.**
(Q.Muhammadiy)

**To'pim to'p-to'p etasan,
Ursam uchib ketasan.**
(Z.Diyor) kabi.

MODAL VA YORDAMCHI SO'ZLARNI O'RGANISH

Tilimizda so'zlovchining anglashilayotgan fikrga munosabatini ifodalovchi: *albatta, darhaqiqat, shubhasiz, tabiiy, aslida, chamasi, balki, ehtimol, koshki, qaniydi, zoraki, darvoqe, nahotki* singari bir qator so'zlar borki, ularning ma'nosini bilish va nutqda qo'llanilishini ta'minlash maktabda modal so'zlarni o'rganishdan ko'zlanadigan maqsadni tashkil etadi.

O'quvchilarni modal so'zlar olamiga olib kirishning eng qulay usullaridan biri berilgan so'zlarni: a) fikrning rostligi, chinligini tasdiqlovchi so'zlar (mas., *albatta, haqiqatdan, tabiiy, shubhasiz, so'zsiz* v.h.); fikrning

ifoda etadigan soʻzlar (zoraki, shoyadki v.h.); kutilmaganlikni ifoda etadigan soʻzlar (mas., *yoʻgʻ-e, nahot, nahotki* v.h.) ga ajratish, bu soʻzlar roʻyxatini mustaqil davom ettirish, ularning maʼno nozikligi ustida ishlash, berilgan modal soʻzlarga maʼnodosh soʻzlar topish, gapda yoki matnda maʼlum bir modal soʻzni uning maʼnodoshi bilan almashtirish, shunday soʻzlar ishtirokida gaplar tuzish va matn yaratish kabilar boʻlib sanaladi. Mazkur ish usullaridan foydalanishga modal soʻzlarning gapda vergul bilan ajratilishiga ham alohida eʼtibor berishga toʻgʻri keladi.

Yordamchi soʻzlar ham oʻquvchilarning nutqiy faoliyatida muhim oʻrin egallaydi.

Maʼlumki, yordamchi soʻzlar haqidagi ilk maʼlumotlar boshiangʻich sinflarda beriladi. "Izchi kursga kirish" da (5-sinf) bu maʼlumotlar ham takrorlanadi, ham bir muncha chuqurlashtiriladi. 7-sinfda gaplarni gap boʻlaklariga ajratish, mustaqil holda gap boʻlagi boʻlib kela olmaydigan soʻzlar roʻyxatini tuzish, bu roʻyxatni mustaqil davom ettirish, shunday soʻzlar yordamida gaplar tuzib, bu soʻzlarning vazifalari ustida ishlash oldin egallangan maʼlumotlarni takrorlash va kengaytirishga xizmat qiladi.

Yordamchi soʻzlarning muhim qismini koʻmakchilar tashkil etadi. Tilimizda *bilan, uchun, kabi, sari, sayin, qadar, tomon, boshqa, sababli, orqali, tufayli, qarab, qaramay, soʻng, tashqari, koʻra, chogʻil, uzra*, singari juda koʻp soʻzlar borki, nutqiy faoliyat uchun ularning ahamiyati benihoya katta. Mazkur mavzuni oʻrganishda berilgan gaplar yoki matndan ajratilgan soʻzlarni (mas., *uchun, orqali* v.h.) kelishik qoʻshimchalari bilan almashtirish (mas. *Bu ertaklar toʻplamini singlim uchun oldim. Bu ertaklar toʻplamini singlimga oldin. Mehrinoz telefon orqali men bilan soʻzlashdi. Mehrinoz telefonda men bilan soʻzlashdi* v.h.) bu soʻzlar va kelishiklar orasidagi oʻxshashlik va farqlarni sharhlash, "sifatdosh+ -ga koʻra" (*qarshi, tomon, qarab, qaramasdan, qaramay*), "ot+dan"+ soʻng *boshqa, keyin, tashqari, boʻlak* singari hosilalar ustida ishlash, bosh kelishikdagi soʻzlar bilan qoʻllanadigan koʻmakchilar (mas., *bilan, uchun, sayin, sari, sababli, orqali, tufayli, boʻylab, boʻyiga, chamasi, haqida* v.h. joʻnalish kelishigidagi soʻzlar bilan qoʻllaniladigan koʻmakchilar (mas., *tomon, qadar, koʻra, qarshi, qarab, qaraganda, yarasha, asosan, binoan, muvofiq, qarata* v.h.) chiqish kelishigidagi soʻzlar bilan qoʻllaniladigan koʻmakchilar (mas., *soʻng, keyin, boshqa, tashqari, boʻlak, oʻzga, beri, buyon, nari, burun, ilgari, boshlab, tortib* v.h.) ni alohida-alohida roʻyxat qilish, maʼlum bir koʻmakchini, uning sinonimi bilan almashtirish, gaplarda bilan soʻzini va, yoki kelishik qoʻshimchalari bilan almashtirish,

bu soʻzning qaysi holatda koʻmakchi va qaysi holatda bogʻlovchi boʻlib kelishini aniqlash kabi amaliy ishlardan foydalansa boʻladi.

Yordamchi soʻzlarning yana bir muhim qismini bogʻlovchilar tashkil etadi. Bu soʻzlarni oʻquvchilarning nutqiy faoliyatiga olib kirish uchun sodda gap juftlarini oʻzaro birkittirib, bitta gapga aylantirish, ularning oʻzaro bogʻlanish vositalarini aniqlash, juft va yakka bogʻlovchilarni alohida-alohida guruhlariga ajratish, teng bogʻlovchilar va ergashtiruvchi bogʻlovchilar roʻyxatini tuzish, ular yordamida gaplar qurish, matn yaratish kabi amaliy ishlardan foydalansa boʻladi. Mazkur mavzuni oʻrganishda ohang va bogʻlovchilarning oʻzaro vazifadoshligi ustida ishlashni ham unutmashlik lozim.

Oʻquvchilarni tilimizda bogʻlovchi vazifasini beruvchi "deb" soʻzi bilan tanishtirish oʻta muhimdir. Oʻquvchilar berilgan gaplarda (mas., sport musobaqasidan kech qolmay deb vaqtli kelgan edim v.h.) bu soʻzning vazifasini sharhlashlari, undan foydalanib, gap qurishlari mumkin.

Yordamchi soʻzlarning yana bir katta guruhini yuklamalar tashkil etadi. Bu guruhdagi soʻzlarni oʻrganishda berilgan gaplarni oʻzaro qiyoslab, maʼno farqlarini, bu farq nima bilan berilayotganligini aniqlash, (mas., *Gullarga suv berdim - Gullarga suv berdim-ku. Aziza raqs toʻgaragiga qatnashadi - Faqat Aziza raqs toʻgaragiga qatnashadi - Azizagina raqs toʻgaragiga qatnashadi* v.h.) berilgan yuklamalarni (mas., -chi, -mi, -a, -ya, -ku, -ham, -u, -yu, -da, ok, -yoq, -ki, -kim, xuddi, -goʻyo, -na v.h.) ifodalab kelayotgan maʼnosiga koʻra: a) Soʻroq taajjub yuklamalariga; b) kuchaytiruv va taʼkid yuklamalariga; v) ayiruv chegaralov yuklamalariga hamda; g) inkor yuklamalariga ajratish, ular yordamida gaplar qurish va har bir yuklamaning maʼno nozikligini sharhlash, soʻzsimon va qoʻshimchasimon yuklamalar roʻyxatini tuzish, ularning imlosi va qoʻllaniladigan tinish belgilari ustida ishlash kabi topshiriqlardan unumli foydalansa boʻladi. Ayniqsa, yuklamalardan foydalanib, matnlar yaratish, tasviriy, rivoyat va muhokama insholar yozish kabi amaliy ishlar nutqiy taraqqiyot uchun oʻta muhimdir.

Oʻquvchilar nutqini yordamchi soʻzlar bilan boytish faqat shu mavzular doirasida qolib ketmasdan, balki tilning keyingi sathi-sintaksisini oʻrganish jarayonida davom ettiriladi, hamda egallangan koʻnikma va malakalar har jihatdan mustahkamlanib, oʻquvchining amaliy faoliyatiga koʻchadi.

sathlari orasida sintaksis alohida mavqe kashf etadi. Sintaksisini o'rganish jarayonida o'quvchilarning so'z boyligini oshirish ustida emas, undagi lug'aviy xazinaning faollashishi, amalda tadbiqi haqida so'z borishi lozim. O'quvchi bir so'zning o'nlab ma'nodoshini bilsayu, uni o'rinni qo'llay olmasa, bu bilim foydasiz, amaliyotsiz bilimdir. Shuning uchun ona tili mashg'ulotlarida sintaksisini o'rganish jarayonida yetakchi yo'nalish asosan ikkitaadir:

1. Oldingi bo'limlarni o'rganishda hosil qilingan so'z xazinasidan o'rinni foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish.

2. Nutq ravonligi va ifodaliligini ta'minlash.

Shuning uchun sintaksisini o'rganishda asosiy diqqat tilning ifoda vositalaridan to'g'ri va o'rinni foydalanishga qaratilgan bo'lish zarur. Umuman bu o'ziga xos alohida mavzu bo'lib, "nutq xomashyosini" ko'paytirishga emas, masalliqdan umumli foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Shuning uchun sintaksis va sintaktik birliklar, so'z birikmalari, gap bo'laklari, sodda va qo'shma gaplarni o'rganish jarayonida o'quvchilar so'z xazinalari durdonalarini, ma'nodoshlar, zid ma'noli so'zlar va, ayniqsa, nutqiy ma'nodoshlar - ma'lum bir nutqiy sharoitda bir-birini bermalol almashtira oladigan so'zlar va so'z birikmalari bilan boyitish imkoniyatiga ega. Lekin bu ona tili metodikasiga o'ziga xos alohida yondoshishni talab etadi.

O'quvchilarning so'z boyligini oshirish muam-mosini: a) til sathlarini o'zaro bog'lab o'rganish; b) so'zning ma'no guruhlar ustida ishlash; v) o'quvchilarda so'zga ehtiyoj hissini vujudga keltiradigan o'quv-topshiriqlari orqali leksikologiyani fonetika, morfologiya va sintaksisning tarkibiy qismiga aylantirish; g) o'quvchilar lug'atini boyitishning ona tili darsliklarida e'tibordan chetda qolgan ko'plab imkoniyatlarini aniqlash; d) uni o'zbek tili metodikasida izchil qo'llash orqaligina hal etish mumkin.

Ona tili ta'limi pedagogik texnologiyalar asosida qayta ishlab chiqildi. Buyuk istiqloq "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi" va ona tili bo'yicha Davlat Ta'lim Standartlari oldimizga qo'ygan ulkan va mas'uliyatli vazifani, bajaruvchi kuchlar mavjud, bajariy yo'llari aniq. Ona yurt ravnaqi va osoyishtaligi uchun xizmat qiluvchi barkamol avlod tarbiyasi biz o'qituvchilardan fidoyi mehnat talab etadi. Har bir o'qituvchi va o'quvchi mustaqil fikrlash izlanuvchanlik va ijodkorlikni o'z ish faoliyatining shioriga aylantirsa, biz shubhasiz, ko'zlangan maqsadlarga erishamiz.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
Ona tilidan davlat ta'lim standartlarida lug'at loyligi.....	7
Gapni kengaytirish usullari.....	9
O'quvchilarning so'z boyligini oshirish omillari.....	12
O'quvchilarda lug'atdan foydalanish va ularni turish malakasini shakllantirish.....	13
So'zlar xaritasi.....	15
Qomusiy va izohli lug'atlar bilan ishlash.....	16
2-qism. Til sathlari o'rdanish jarayonida o'quvchilarda so'z boyligini oshirish imkoniyatlari.....	20
Nutq.....	22
So'zshunoslik.....	28
Morfologiya. Ot.....	40
Sifat.....	48
Son.....	53
Fe'l.....	54
Ravish.....	59
Olmosh.....	62
Taqlidiy so'zlar va undovlarni o'rganish.....	65
Modal va yordamchi so'zlarni o'rganish.....	66
Sintaksis.....	69

H.Ne'matov, A. G'ulomov, T. Ziyodova

**HÖZIRGI O'ZBEK ADABIY TILINI O'RGANISHDA
O'QUVCHILAR SO'Z BOYLIGINI OSHIRISH**

O'zbek tilida

**Muharrir: O'MKHTRI Ma'naviyat va ma'rifat ishlari
bo'yicha 1-prorektori A.F.Marasulov**

Tex. muharrir: M. G'ulomova

16 № 382

**Terishga berildi 10.04.2002 y. Bosishga ruxsat etildi 28.05.2002 y.
Bichimi 60x84 1/6. Shartli bosma tabog'i 4.0. Nashr bosma tabog'i
3.0. Adadi 1000 nusxada. Bahosi shartnoma asosida.
Buyurtma №**

**A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent-129, Navoiy
ko'chasi, 30-uy.**

**МЧЖ «Камалак Принт» босмахонасида чоп этилди.
Тошкент, Широқ кўчаси, 2-уй.**